


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

T.S.MALIKOV, N.T.TILABOV

MOLIYA

SAVOL-JAVOBLAR

Toshkent
•Akademnashr•
2013



UO'K: 336.02 (076.1)

KBK: 65.261 - *Molliya*

M-21

M-21

Malikov T.

Moliya: test (savol-javob)lar / T.Malikov, N.Tilabov.
- Toshkent: Akademnashr, 2013. - 448 b.

I. Tilabov, N.

UO'K: 336.02 (076.1)

ISBN 978-9943-4117-5-3

KBK: 65.261v6

Test (savol-javob)lar «Moliya» fani dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, unda moliyaning mohiyati va funksiyalari, moliyaviy siyosat, moliya tizimi, moliyaviy boshqaruv, moliyaviy rejalashtirish, tartibga solish hamda moliyaviy nazoratga oid masalalar o'z aksini topgan. Ular iqtisodiy yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarining talabalari, magistrantlari, aspirantlari, professor-o'qituvchilari, mamlakatning moliya tizimida faoliyat ko'rsatayotgan amaliyotchi mutaxassislar va moliya muammolari bilan qiziquvchi barcha o'quvchilarga mo'ljallangan.

10 41436
281

Taqrizchilar:

O.O.Olimjonov,

iqtisod fanlari doktori, professor,


N.H.Haydarov,

iqtisod fanlari doktori, professor

O.K.Iminov,

iqtisod fanlari doktori, professor

Toshkent moliya instituti ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.



© T.S.Malikov, N.T.Tilabov
«Moliya: savol-javoblar»
© «Akademnashr», 2013

KIRISH

«Moliya» fani iqtisod ilmining eng qiyin va nozik sohasi bo'lganligi uchun, uni o'rganish ancha murakkab hisoblanadi. Lekin bundan sira xavotirga tushmaslik va uni aylanib o'tishga harakat qilmaslik kerak. Chunki «moliya» fanini o'rganish qanchalik murakkab bo'lmasin, hozirgi paytda uni yaxshi o'zlashtirishga xizmat qiluvchi ko'plab vosita (usul)lar bor. Ana shunday vosita (usul)lardan biri test (savol-javob) lardir.

Test (savol-javob)lar har qanday fanni, shu jumladan, «moliya» fanini o'rganishning ham o'ziga xos zamonaviy vositasi (usuli) bo'lib, ular bir necha o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan fanni o'rganishning o'zga usullaridan farqlanadi. Bu borada shuni alohida qayd etish lozimki, ***birinchidan***, fanni test (savol-javob)lar orqali o'rganish oldindan mustaqil ravishda maxsus tayyorgarlik ko'rishni taqozo etadi. Bu tarzda ish tutmasdan fanni test (savol-javob)lar orqali o'rganishga kirishish, o'zbekona aytganda, hech bo'lmaganda, «daryoni ko'rmasdan turib etikni yechish» bilan barobardir. Shu bois bu holda «yalangoyoq» vaqtidan oldin «chaqa» bo'lganligi uchun daryoga yetib bo'lmaganidek, ilmni ham egallash imkonsiz.

Ikkinchidan, fanni darslik yoki o'quv qo'llanma yordamida o'rganishda ularda tegishli masalaning yagona javobi o'z aksini topgan bo'lsa, bunday fikrni fanni test (savol-javob)lar orqali o'rganishga nisbatan bildirish noo'rin. Chunki test (savol-javob)larda qo'yilgan savolning ikki va undan ortiq javoblari keltirilgan bo'lib, ularning orasidan to'g'ri javobni topish o'quvchining tayyorgarlik darajasiga yoki saviyasiga bevosita bog'liqdir. Bunday sharoitda o'quvchining o'z «peshona teri» bilan topilgan to'g'ri javob uning miyasiga muhr-lanib (ayrim hollarda bir umrga) qolishi shubhasiz.

Uchinchidan, fanni an'anaviy darslik yoki o'quv qo'llanma orqali o'rganish o'quvchidan haddan ziyod (o'ta) hushyorlik yoki diqqatni taqozo etmaydi. Aslida, bular fanni an'anaviy

darslik yoki o'quv qo'llanma orqali o'rganishda ham muhim bo'lishiga qaramasdan, fanni test (savol-javob)lar orqali o'rganishda o'ta hushyorlik yoki diqqatning roli beqiyos ekani hech kimga sir emas. Busiz ko'zlangan maqsadga – fanni test (savol-javob)lar orqali puxta o'rganish (o'zlashtirish)ga erishib bo'lmaydi.

To'rtinchidan, fanni test (savol-javob)lar yordamida o'rganish o'quvchining mustaqil fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi, charxlaydi, o'tkirlashtiradi, bu narsa hozirgi sharoitda alohida ahamiyat kasb etadi. O'rni kelganda o'quvchining taqdiri, kelajagi, turmush tarzi, yashash sharoiti, muvaffaqiyati, karyerasi, riskli sharoitda yakka-yu yagona oqilona (to'g'ri) javobni topa olishi faqat shunga (fikrlash qobiliyatining o'tkirligiga, hozirjavobligiga) bog'liq bo'lib qoladi.

Ana shu va yana boshqa bir qancha afzalliklarga egaligi uchun, ushbu uslubiy qo'llanmada mualliflar tomonidan «moliya» fanini o'rganish (o'zlashtirish)ning «test (savol-javob) li varianti» taklif etilmoqda. Bu «variant» hozircha ushbu faning birinchi qismi, ya'ni moliyaning umumnazariy masalalarini o'rganish (o'zlashtirish)ga qaratilgan bo'lib, o'zining nisbatan ko'proq kompleks (atrofficha) xarakterga egaligi bilan ajralib turadi.

«Moliya: test (savol-javob)lar» qo'llanmasi o'z ichiga qariyb 1000 ta testni olib, u olti qismdan iborat. Birinchi qismida moliyaning mohiyati va funksiyalarini aniqlashga qaratilgan 250 ta test (savol-javob) o'z ifodasini topgan. Qo'llanmaning ikkinchi qismi moliyaviy siyosatga bag'ishlangan bo'lib, bu yerda 172 ta test (savol-javob) mavjud. Moliya tizimiga bag'ishlagan test (savol-javob)lar 110 tani tashkil etgan va ular qo'llanmaning uchinchi qismida mujassamlashtirilgan. Shuningdek, qo'llanmaning to'rtinchi qismi moliyaviy boshqaruv (92 ta test (savol-javob)), beshinchi qismi esa moliyaviy rejalashtirish va tartibga solish masalalariga (168 ta test (savol-javob) bag'ishlangan. Nihoyat, uning oltinchi qismida moliyaviy nazoratga doir 203 ta test (savol-javob) keltirilgan.

«Moliya» fanining o'ziga xos fundamenti bo'lgan uning umumnazariy masalalarini tom ma'noda test (savol-javob)lar yordamida sidqidildan o'zlashtirish (o'rganish)ga ahd qilgan o'quvchilarimizga quyidagilarni tavsiya etamiz:

1. «Moliya: test (savol-javob)lar» qo'llanmasini «yechish»ga kirishishdan va o'zimizning nimaga qodir ekanligimizni bilishdan oldin iqtisod fanlari doktori, professor A.V.Vahobov va iqtisod fanlari doktori, professor T.S.Malikovlar tomonidan tayyorlangan «Moliya» darsligi (Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: Darslik. – Toshkent: Noshir, 2012. – 712 b. 5-154-betlar), shu mualliflarning «Moliya: umumnazariy masalalar» o'quv qo'llanmasi (Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2008. – 380 b.) va iqtisod fanlari doktori, professor T.S.Malikov va iqtisod fanlari nomzodi D.R.Vahobovlar tomonidan tayyorlangan «Moliya: chizmalarda» o'quv qo'llanmasi (Malikov T.S., Vahobov D.R. Moliya: chizmalarda. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2010. – 660 b. 4-127-betlar), shu mualliflarning «Moliya: chizmalarda» o'quv qo'llanmasining (Malikov T.S., Vahobov D.R. Moliya: chizmalarda. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2012. – 660 b. 4-127-betlar) dastlabki 6 ta mavzulari bilan chuqur tanishish zarur. Aks holda urinish behuda ketishi turgan gap. Chunki «test (savol-javob)lar» yuqorida keltirilgan darslik va o'quv qo'llanmalari asosida tayyorlanib, hukmingizga havola etilayotir.

2. «Test (savol-javob)» savoliga doir to'g'ri javobni topishda «tanishish» jarayonini javoblarga asosiy e'tiborni qaratishdan boshlamang. Oldin test (savol-javob) savolining o'ziga jiddiy e'tibor bering. Sizdan konkret nima talab qilinayotganligini yoki so'ralayotganligini aniqlang. So'ngra ana shundan kelib chiqqan holda har bir javobga e'tibor qarating va eng to'g'ri javobni tanlang.

3. Tezda to'g'ri javobning oson topilganidan xursand bo'lmang. Uni boshqa javoblar bilan taqqoslab ko'ring va tegishli xulosa chiqarib, qarorni qabul qiling.

4. Javoblar tanlanayotgan paytda tom ma'noda mantiqqa rioya etish esingizdan chiqmasin va u doimo diqqat-markazingizda tursin.

5. Biror-bir test (savol-javob)ning javobini topishga qiynalayotgan bo'lsangiz, faqat unga «yopishib» olmang. Uni, hech narsa bo'lmagandek, «o'tkazib» yuboring va keyingi testning javobini topishga harakat qiling. Test (savol-javob)larning «oxiri»ga borganingizdan so'ng javobini topishga qiynalgan oldingi test (savol-javob)larga qaytishingiz mumkin.

6. Test (savol-javob) savolining javoblarini diqqat bilan o'qing. Ularning ma'no-mazmuniga, qarama-qarshi ekanligi yoki emasligiga, mantig'iga e'tibor bering.

7. «Katta» savol va «katta» javoblarga ega bo'lgan test (savol-javob)larga e'tibor bermasdan, ularni birinchi bosqichda «o'tkazib» yuborish maqsadga muvofiq.

8. Javoblarning bir-biriga yaqinligidan tashvishga tushmang. E'tibor bering: ular nimasi bilandir bir-biridan farqlanadi va bu farq to'g'ri javobning topilishida hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

9. Ishonchingiz komil bo'lsin: aynan sizni «yiqitish»ga yoki aynan bilim-saviyangiz pastligini ko'rsatishga qaratilgan test (savol-javob) savollari va javoblari bu yerda mavjud emas.

10. Qo'llanmaning yakunida test (savol-javob) savollarining to'g'ri javoblari aks ettirilgan. Ularni ko'rib sizni osonlik bilan erishilgan va vaqtinchalik xarakteriga ega bo'lgan xursandchilik kayfiyati qamrab olmasin. Bu o'ringda haqiqiy bilimga ega bo'lish igna bilan quduq qazishga azal-azaldan bekordan bekorga tenglashtiril(qiyoslan)magani e'tiboringizdan chetda qolmasin. Buning ustiga, o'z peshona teri bilan yoshlikda egallangan bilimning «toshga o'yilgandek» bir umr o'chmas iz qoldirishi uchun ham ancha «ter to'kish» taqozo etiladi. Shu bois ularning «tayyor» variantini izlashga va ularga murojaat qilish yo'li bilan o'z muammongizni hal qilishga shoshilmang. O'z oldingizga qanday maqsadni qo'yganingiz (har holda, o'zingizni o'zingiz aldashni emas, balki puxta bilimga ega bo'lish) es-

dan chiqmasin. Oldin tegishli manbalarga murojaat qilib puxta tayyorgarlik ko'ring. So'ng «Test (savol-javob) topshirish uchun tayyorman» deb xolisona, o'zingizni o'zingiz aldamasdan qaror qabul qiling va test (savol-javob)larni oxirigacha mustaqil yeching. Undan keyin o'z javoblarinigizni qo'llanma nihoyasida keltirilgan javoblar bilan solishtirib ko'ring. Yuqoridagi darslik va o'quv qo'llanmalarini qo'lga olmagan yoki ular bilan tanish bo'lmasangiz ham tayyor keltirilgan javoblarga e'tibor bermasdan hech qanday tayyorgarliksiz test (savol-javob) savollariga mustaqil ravishda javob berishga harakat qiling. Shunda ham, jilla qursa, bu masalaga nisbatan umumiy dunyoqarashingizning haqiqatda qandayligi ma'lum bo'ladi.

11. Bilib qo'ying va tashvishga tushmang: test (savol-javob) savollari va javoblarining aynan shu variantlarda berilishi mualliflar xohish-istagi yoki fantaziyasining mahsuli emas. Bu borada mualliflar «Amerikani kashf etmagan» yoki qaytadan «velosipedni ixtiro qilmagan» ham. Ular dunyo amaliyotidagi «moliya» faniga tegishli bilimlarga asoslangan, xolos. Unda bizning ixtiyorimizga kelib tushgan ruscha manbalarning ustuvorlik qilganini tabiiy hol sifatida qabul qilmoq lozim. Bu o'rinda mualliflarning vazifasi «moliya»ga daxldor bo'lgan mavjud bilimlarni birov (tegishli manba)lardan olib, ularni davr nuqtayi nazaridan tanqidiy o'rganib, zamonaviy o'zgarishlarni hisobga olib, mantiqqa rioya etgan holga yagona bir tizimga keltirib, o'zga (siz o'quvchi)larga berishdan iborat bo'lgan.

12. «Moliya» fanining dastlabki olti mavzusi bo'yicha 1000 ga yaqin test (savol-javob)ning hukmingizga havola etilganligidan hayratlanmang. Ular sonining ko'pligi sizni qo'rqitib yubormasin, «dahshat»ga ham tushmang. Hech ikkilanmasdan ularni o'z nazaringiz bo'yicha yoki manfaatingizdan kelib chiqqan holda «kerakli» va «keraksiz» qismlarga bo'lavering (aslida, ularning «keraksiz»lari bo'lmaydi). O'shanda ham ularning «kerakli»lari siz uchun «moliya» fanini o'zlashtirishda yetarli bo'lishiga ishonchimiz komil. Shu bois, hech

bo'lmaganda, o'zingiz uchun «kerakli» test (savol-javob)larni «iste'mol» qilishda sizga katta «ishtaha» tilaymiz.

Moliyaning umumnazariy masalalariga bag'ishlangan ushbu qo'llanma o'zbek tilida ilk marta o'quvchilar e'tiboriga havola etilayotganligi uchun ayrim kamchiliklardan xoli bo'lmasligi tabiiy. Uning sifatini oshirishga xizmat qiluvchi har qanday taklif-mulohazalarni mualliflar mamnuniyat bilan qabul qiladi.

1-BOB.**MOLIYANING MOHIYATI
VA FUNKSIYALARI****1.1. MOLIYANING IJTIMUIY-IQTISODIY MOHIYATI**

1.1.1. O'zbek tilida ishlatilayotgan «moliya» so'zi, aslida, qaysi tildagi so'z hisoblanadi?

- a) o'zbek tilidagi
- b) fors tilidagi
- c) arab tilidagi
- d) turk tilidagi

1.1.2. «Moliya» so'zi eng umumiy tarzda qanday ma'noni anglatadi?

- a) «pul mablag'lari»
- b) «pul to'lovlari»
- c) «pul resurslari»
- d) «pul daromadlari»

1.1.3. «Moliya» so'zi ona tilimizda ishlatilishining qanday ko'rinishlari mavjud?

a) maqsadli pul fondlarini hosil etish, jamlash, taqsimlash va ishlatish yuzasidan paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar majmuyi; pul mablag'larini shakllantirish, taqsimlash, ularni sarf qilish tizimi (masalan, moliya yili, moliya kapitali, moliya tizimi)

b) maqsadli pul fondlarini hosil etish, jamlash, taqsimlash va ishlatish yuzasidan paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar majmuyi; pul mablag'larini shakllantirish, taqsimlash, ularni sarf qilish tizimi (masalan, moliya yili, moliya kapitali, moliya tizimi); biror shaxs, oila, jamoa, muassasa, tashkilot yoki davlat tasarrufidagi pul mablag'lari (masalan, korxonalar moliyasi)

c) maqsadli pul fondlarini hosil etish, jamlash, taqsimlash va ishlatish yuzasidan paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar majmuyi; pul mablag'larini shakllantirish, taqsimlash,

ularni sarf qilish tizimi (masalan, moliya yili, moliya kapitali, moliya tizimi); biror shaxs, oila, jamoa, muassasa, tashkilot yoki davlat tasarrufidagi pul mablag'lari (masalan, korxonalar moliyasi); shunday (moliya) ishlar(i) bilan shug'ullanuvchi davlat organi (so'zlashuv tilida)

d) uni yuqoridagilardan tashqari yana boshqa ko'rinishlarda ham ishlatilishi mumkin

1.1.4. Arab tilidagi «mol», ya'ni boylik, mulk; pul jamg'armasi, shuningdek, «moliyat», ya'ni pul mablag'lari; soliqliq so'zlari ham moliyaga daxldormi?

- a) ha, daxldor
- b) yo'q, daxldor emas
- c) savolning bunday qo'yilishi prinsipial ahamiyatga ega emas
- d) yuqoridagilarning har birini to'g'ri deb hisoblash mumkin

1.1.5. O'zining lug'aviy ma'nosi jihatidan «moliya» so'zi fransuzcha «finance», lotincha «financia» va ruscha «финансы» so'zlarining ekvivalenti yoki ma'lum ma'noda sinonimi hisoblanadimi?

- a) ha, hisoblanadi
- b) yo'q, hisoblanmaydi
- c) buning hech qanday qizig'i yo'q
- d) barcha javoblar to'g'ri

1.1.6. O'zbek tilida «moliya» so'zi yana qanday ma'nolarda ishlatilishi mumkin?

- a) boshqa hech qanday ma'noda ishlatilmaydi
- b) «daromad» ma'nosida ishlatiladi
- c) «daromad», «pul mablag'lari» va «to'lov» ma'nolarida ishlatilishi mumkin
- d) «to'lov» ma'nosida ishlatiladi

1.1.7. «Moliya» atamasining kelib chiqishi xususida iqtisodiy adabiyotlarda yagona qarashlar, tasavvurlar mavjudmi?

- a) yo'q, mavjud emas
- b) «moliya» atamasining kelib chiqishi xususida iqtisodiy

adabiyotlarda turlicha qarashlar, tasavvurlar mavjud. Ayrim mualliflarning fikricha, bu atama XIII – XIV asrlarda Italiyaning savdo shaharlarida vujudga kelib, keyinroq xalqaro maydonga tarqalgan hamda aholi va davlat o'rtasidagi pul munosabatlari tizimi bilan bog'langan tushunchani o'zida mujassam etgan. Boshqa mualliflarning fikriga qaraganda, bu atama muomalaga 1755-yili «Respublika xususida olti kitob» asarini nashr ettirgan fransuz olimi J.Boden tomonidan kiritilgan

c) ha, mavjud

d) hozirgi paytda bu savolning javobini topish o'quvchida qiziqish uyg'otmaydi

1.1.8. Moliya qanday sharoitda paydo bo'ldi?

a) moliya davlatning vujudga kelishi va uning resurslarga bo'lgan ehtiyoji rivojlanishi bilan doimiy (uzluksiz) tovar-pul munosabatlari sharoitida paydo bo'ldi

b) moliya davlatning vujudga kelishi bilan paydo bo'ldi

c) moliya resurslarga ehtiyojning rivojlanishi bilan doimiy (uzluksiz) tovar-pul munosabatlari sharoitida paydo bo'ldi

d) barcha javoblar to'g'ri

1.1.9. Davlatning mavjudligi nimaning o'rnatilishini taqozo etadi va u qanday tushunchada o'z ifodasini topadi?

a) davlatning mavjudligi yaratilayotgan iqtisodiy (moddiy) ne'matlarni taqsimlash va qayta taqsimlash bo'yicha oliy hokimiyat organi (shaxsi) sifatida ma'lum bir munosabatlarning o'rnatilishini taqozo etadi

b) davlatning mavjudligi yaratilayotgan iqtisodiy (moddiy) ne'matlarni taqsimlash hamda qayta taqsimlash bo'yicha oliy hokimiyat organi (shaxsi) sifatida davlat va takror ishlab chiqarish munosabatlarning boshqa ishtirokchilari (subyektlari) o'rtasida ma'lum bir munosabatlarning o'rnatilishini taqozo etadi. Bu munosabatlar «moliya» tushunchasida o'z ifodasini topadi

c) har ikkala javob ham to'g'ri

d) «a» va «b» javoblarda noaniqliklar mavjud

1.1.10. Natural munosabatlar ustunlik qilgan jamiyatlarda taqsimlash hamda qayta taqsimlash jarayonlari qanday soliqlar va to'lanmalar xarakteriga ega bo'lgan?

a) natural munosabatlar ustunlik qilgan jamiyatlarda taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlari natural soliqlar xarakteriga ega bo'lgan

b) natural munosabatlar ustunlik qilgan jamiyatlarda taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlari turli ko'rinishdagi shaxsiy to'lanmalar xarakteriga ega bo'lgan

c) natural munosabatlar ustunlik qilgan jamiyatlarda taqsimlash hamda qayta taqsimlash jarayonlari natural soliqlar va turli ko'rinishdagi shaxsiy to'lanmalar xarakteriga ega bo'lgan

d) barcha javoblar noto'g'ri

1.1.11. Tovar-pul munosabatlarning rivojlanishi taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlari shakllarining o'zgarishiga olib keldimi, ular ko'proq qanday xarakterga ega bo'ldi?

a) tovar-pul munosabatlarning rivojlanishi taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlari shakllarining o'zgarishiga olib kelmadi, ularning xarakterini ham o'zgartirmadi

b) tovar-pul munosabatlarning rivojlanishi taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlari shakllarining o'zgarishiga olib keldi-yu, lekin ularning xarakterini o'zgartirmadi

c) tovar-pul munosabatlarning rivojlanishi taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlari shakllarining o'zgarishiga olib keldi, ular ko'proq pul xarakteriga ega bo'la boshladi

d) barcha javoblar to'g'ri

1.1.12. Zamonaviy tasavvurdagi «moliya» tushunchasini qanday bosqichga kiritish mumkin?

a) zamonaviy tasavvurdagi «moliya» tushunchasini davlat xazinasining alohidalashuvi va davlat byudjetining vujudga kelishi bosqichiga kiritish mumkin

b) zamonaviy tasavvurdagi «moliya» tushunchasini davlat xazinasining alohidalashuvi bosqichiga kiritish mumkin

c) zamonaviy tasavvurdagi «moliya» tushunchasini davlat byudjetining vujudga kelishi bosqichiga kiritish mumkin

d) barcha javoblar to'g'ri

1.1.13. Moliya va moliyaviy munosabatlarning mohiyati haqidagi tasavvurlar vaqt o'tishi bilan o'z ko'rinishini o'zgartirib borganmi?

a) yo'q, o'zgartirmagan

b) ha, o'zgartirib borgan

c) buning hech qanday ahamiyati yo'q

d) o'zgarishi yoki o'zgarimasligi muhim ahamiyatga ega emas

1.1.14. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, taraqqiyot qonuniyatlari, tovar-pul munosabatlarining qamrab olish sohasi va ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli nimalar bilan belgilanadi?

a) moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, taraqqiyot qonuniyatlari, tovar-pul munosabatlarining qamrab olish sohasi va ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli jamiyatning iqtisodiy tuzumi bilan belgilanadi

b) moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, taraqqiyot qonuniyatlari, tovar-pul munosabatlarining qamrab olish sohasi hamda ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli jamiyatning iqtisodiy tuzumi va davlatning tabiati bilan belgilanadi

c) moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, taraqqiyot qonuniyatlari, tovar-pul munosabatlarining qamrab olish sohasi va ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli jamiyatning iqtisodiy tuzumi, davlatning tabiati va funksiyalari bilan belgilanadi

d) moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, taraqqiyot qonuniyatlari, tovar-pul munosabatlarining qamrab olish sohasi hamda ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli jamiyatning iqtisodiy tuzumi va davlatning funksiyalari bilan belgilanadi

1.1.15. Tarixiy kategoriya sifatida moliyaning vujudga kelishi nimalar bilan bog'liq?

a) tarixiy kategoriya sifatida moliyaning vujudga kelishi jamiyatning sinflarga bo'linishi bilan bog'liq

b) tarixiy kategoriya sifatida moliyaning vujudga kelishi davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq

c) tarixiy kategoriya sifatida moliyaning vujudga kelishi jamiyatning sinflarga bo'linishi va davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq

d) barcha javoblar to'g'ri

1.1.16. Moliya deb nimaga aytiladi?

a) kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun sharoitlarni ta'minlash, davlatning funksiyalari hamda vazifalarini bajarish maqsadida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag'lari fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarga moliya deyiladi

b) takror ishlab chiqarish uchun sharoitlarni ta'minlash hamda davlatning funksiyalari hamda vazifalarini bajarish maqsadida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag'lari fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarga moliya deyiladi

c) davlatning funksiyalari hamda vazifalarini bajarish maqsadida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag'lari fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarga moliya deyiladi

d) markazlashtirilgan hamda markazlashtirilmagan pul mablag'lari fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarga moliya deyiladi

1.1.17. Maxsus pul mablag'lari fondlari nimalar hisobidan shakllantiriladi?

a) turli faoliyatlardan olingan daromadlar hisobidan maxsus pul mablag'lari fondlari shakllantiriladi

b) daromadlar hisobidan maxsus pul mablag'lari fondlari shakllantiriladi

c) xo'jalik subyektlarining turli faoliyatlaridan olingan daromadlar hisobidan maxsus pul mablag'lari fondlari shakllantiriladi

d) yuqoridagi javoblar bir-biridan unchalik farqlanmaydi va ularning har birini to'g'ri javob deb qabul qilish mumkin

1.1.18. YIMni taqsimlashda aholi ishtirok etganda ular o'z hissa ulushlarini qanday ko'rinishlarda olishlari mumkin?

a) YIMni taqsimlashda aholi ishtirok etganda ular o'z hissa (ulush)larini ish haqi va tadbirkorlik (ishbilarmonlik) daromadi ko'rinishida olishlari mumkin

b) YIMni taqsimlashda aholi ishtirok etganda ular o'z hissa (ulush)larini ish haqi, tadbirkorlik (ishbilarmonlik) daromadi va dividendlar ko'rinishida olishlari mumkin

c) YIMni taqsimlashda aholi ishtirok etganda ular o'z hissa (ulush)larini ish haqi va dividendlar ko'rinishida olishlari mumkin

d) YIMni taqsimlashda aholi ishtirok etganda ular o'z hissa (ulush)larini ish haqi, tadbirkorlik (ishbilarmonlik) daromadi, dividendlar va qayta taqsimlashning boshqa shakllari ko'rinishida olishlari mumkin

1.1.19. Majburiylik xarakteriga ega bo'lgan soliqlar va boshqa to'lovlarni to'lash orqali (vositasida) aholi markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini shakllantirishda ishtirok etadimi?

a) ha, ishtirok etadi

b) yo'q, ishtirok etmaydi

c) bu narsa aholining o'z xohish-istagiga bog'liq

d) aholi bundan manfaatdor bo'lsagina ishtirok etishi mumkin

1.1.20. Quyidagilarning qay biri moliyaning xarakterli belgilari tarkibiga kiradi?

a) qiymatning tovar shaklidagi harakatiga bog'liq bo'lmasdan, aksincha, real pullarning harakatiga bog'liq bo'lgan, huquqiy normalar yoki biznesni yuritish etikasiga asoslangan munosabatlarning taqsimlash xarakterdaligi

b) pul mablag'lari harakatining, odatda, bir tomonlama yo'nalishga ega ekanligi

c) markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlarini yaratish (vujudga keltirish)

d) yuqoridagilarning qay biri emas, balki ularning barchasi moliyaning xarakterli belgilari tarkibiga kiradi

1.1.21. Moliya pul munosabatlarining ajralmas qismi hisoblanadimi?

a) ha, xuddi shunday
b) yo'q, uni pul munosabatlaridan ayro holda ham tasavvur etish mumkin

c) moliyani pul munosabatlaridan ajratib bo'lmaydi

d) noto'g'ri javob yo'q

1.1.22. Moliyaning roli va ahamiyati nimaga bog'liq?

a) moliyaning roli va ahamiyati uning pul munosabatlari tizimidagi tutgan o'rniga bog'liq

b) moliyaning roli va ahamiyati uning iqtisodiy munosabatlar tizimida tutgan o'rniga bog'liq

c) moliyaning roli va ahamiyati pul munosabatlarining iqtisodiy munosabatlar tizimida qanday o'rinni egallaganligiga bog'liq

d) bu yerda bir-birini inkor etuvchi javoblar mavjud

1.1.23. Moliya puldan o'zining mazmuni va bajaradigan funksiyalari bo'yicha farqlanadimi?

a) yo'q, farqlanmaydi. Chunki amaliyotda juda ko'p hollarda pul deganda moliya va, aksincha, moliya deganda pul tushuniladi

b) yo'q, ular o'rtasida barobarlik belgisini qo'ysa ham bo'ladi

c) ha, farqlanadi. Chunki agar pul umumiy ekvivalent bo'lib, uning yordamida umumlashtirilgan ishlab chiqaruvchilarning mehnat xarajatlari o'lchansa, moliya yalpi ichki mahsulot (YIM) va milliy daromad (MD)ni taqsimlash hamda qayta taqsimlashning iqtisodiy instrumenti, pul mablag'lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish qurolidir

d) yuqoridagi barcha javoblarni to'g'ri deb hisoblash mumkin

1.1.24. Moliyaning nima uchun mo'ljallanganligini nimalar belgilab beradi?

a) pul daromadlari hamda fondlarini shakllantirish yo'li

bilan faqatgina davlat va korxonalarining pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash emas, balki moliyaviy resurslarning sarflanishi ustidan nazoratni ham amalga oshirish moliyaning nima uchun mo'ljallanganligini belgilab beradi

b) pul daromadlari shakllantirish yo'li bilan davlatning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash emas, balki moliyaviy resurslarning sarflanishi ustidan nazoratni ham amalga oshirish moliyaning nima uchun mo'ljallanganligini belgilab beradi

c) pul daromadlari va fondlarini shakllantirish yo'li bilan faqatgina korxonalarining pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash emas, balki moliyaviy resurslarning sarflanishi ustidan nazoratni ham amalga oshirish moliyaning nima uchun mo'ljallanganligini belgilab beradi


d) pul daromadlari hamda fondlarini shakllantirish yo'li bilan davlat va korxonalarining pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash moliyaning nima uchun mo'ljallanganligini belgilab beradi

1.1.25. Moliya quyidagilarning qay biri o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlarini ifodalaydi?

a) tovar-moddiy boyliklarni sotib olish, mahsulot va xizmatlarni realizatsiya qilish jarayonida korxonalar o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari; markazlashtirilgan pul mablag'lari fondlarini yaratish hamda ularni taqsimlash borasida korxonalar va ularning yuqori organlari o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari

b) byudjet tizimiga soliqlarni to'lash hamda xarajatlarini byudjetdan moliyalashtirish davomida korxonalar va davlat o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari; soliqlar va boshqa ixtiyoriy to'lovlarni to'lash jarayonida davlat hamda fuqarolar o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari

c) to'lovlarni amalga oshirish hamda resurslarni olish jarayonida korxonalar, fuqarolar va nobyudjet fondlari o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari; byudjet tizimining alohida bo'g'inlari o'rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari



batlari; sug'urta badallarini to'lash va zararlarni qoplash, sug'urta hodisasi ro'y bergan paytda aholi, korxonalar hamda mulkiy va shaxsiy sug'urta organlari o'rtasida vujudga keldigan pul munosabatlari

d) bu savolga to'g'ri va to'liq javob berish uchun yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda korxonalar fondlarining doimiy doiraviy aylanishiga xizmat qiluvchi pul munosabatlarini ham hisobga olish kerak

1.1.26. Pul daromadlari va fondlarining eng asosiy moddiy manbai nima hisoblanadi?

a) pul daromadlari va fondlarining eng asosiy moddiy manbai mamlakatning MDi hisoblanadi

b) pul daromadlari va fondlarining eng asosiy moddiy manbai mamlakatning YIMi hisoblanadi

c) pul daromadlari va fondlarining eng asosiy moddiy manbai mamlakatning MDi va YIMi hisoblanadi

d) barcha javoblarni to'g'ri deb hisoblash mumkin

1.1.27. MDning hajmi qanday imkoniyatlarni aniqlab beradi?

a) MDning hajmi umumdavlat ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini aniqlab beradi

b) MDning hajmi ijtimoiy ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini aniqlab beradi

c) MDning hajmi umumdavlat ehtiyojlarini qondirish va ijtimoiy ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini aniqlab beradi

d) yuqoridagilardan tashqari MDning hajmi yana boshqa imkoniyatlarni ham aniqlab berishi mumkin

1.1.28. Moliyaning ishtirokisiz MDni taqsimlab bo'ladimi yoki yo'q? Nega?

a) bo'lmaydi. Chunki moliya MDni yaratish va undan foydalanishning ajratib bo'lmaydigan bog'lovchi bo'g'ini hisoblanadi. Moliya ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'molga ta'sir etib, obyektiv xarakterga ega. U ishlab chiqarish munosabatlarining ma'lum bir sohasini ifodalab, bazis kategoriyasiga mansubdir

b) bo'ladi. Chunki moliya MDni yaratish va undan foyda-

lanishning ajratib bo'lmaydigan bog'lovchi bo'g'ini hisoblanmaydi. Moliya ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'molga ta'sir etmaydi hamda u obyektiv xarakterga ega emas. U ishlab chiqarish munosabatlarining ma'lum bir sohasini ifodalamaydi, ustqurma kategoriyasiga mansubdir

c) bo'lmaydi. Chunki moliya MDni yaratish va undan foydalanishning ajratib bo'lmaydigan bog'lovchi bo'g'ini hisoblanadi. Moliya ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'molga ta'sir etib, obyektiv xarakterga ega. U ishlab chiqarish munosabatlarining ma'lum bir sohasini ifodalab, ustqurma kategoriyasiga mansubdir

d) bo'ladi. Chunki moliya MDni yaratish va undan foydalanishning ajratib bo'lmaydigan bog'lovchi bo'g'ini hisoblanmaydi. Moliya ishlab chiqarish, taqsimlash hamda iste'molga ta'sir etmaydi va u obyektiv xarakterga ega emas. U ishlab chiqarish munosabatlarining ma'lum bir sohasini ifodalamaydi, bazis kategoriyasiga mansubdir

1.1.29. Zamonaviy iqtisodiyot davlat moliyasisiz faoliyat ko'rsatishi mumkinmi?

a) ko'rsatishi mumkin. Chunki tarixiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichiga qadar jamiyatning ba'zi bir ehtiyojlari faqat davlat tomonidan moliyalashtirilmasa ham bo'laveradi

b) zamonaviy iqtisodiyot davlat moliyasisiz faoliyat ko'rsatolmaydi. Chunki tarixiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichiga qadar jamiyatning ba'zi bir ehtiyojlari faqat davlat tomonidan moliyalashtirilishi mumkin

c) atom sanoati, kosmik tadqiqotlar, iqtisodiyotning qator yangi ustuvor tarmoqlari, barcha uchun zarur bo'lgan korxonalar (pochta, telegraf va h.k.)ni rivojlantirish zarur bo'lganligi uchun, zamonaviy iqtisodiyot davlat moliyasisiz faoliyat ko'rsatolmaydi

d) «b» va «c» javoblar to'g'ri

1.1.30. Mamlakat iqtisodiyotining ahvoli moliyaning ahvolini belgilab beradimi?

a) mamlakat iqtisodiyotining ahvoli moliyaning ahvolini belgilab beradi. Chunki doimiy ravishdagi iqtisodiy o'sish,

YIM va MD ko'payishi (oshib borishi) sharoitida moliya o'zining muntazamligi hamda barqarorligi bilan xarakterlanadi. U ishlab chiqarishning yanada rivojlanishini va mamlakat fuqarolari hayotining sifat darajasi yanada ortishini rag'batlantiradi

b) mamlakat iqtisodiyotining ahvoli moliyaning ahvolini belgilab bermaydi. Chunki doimiy ravishdagi iqtisodiy o'sish, YIM va MD ko'payishi (oshib borishi) sharoitida hamma vaqt ham moliya o'zining muntazamligi hamda barqarorligi bilan xarakterlanmasligi, u ishlab chiqarishning yanada rivojlanishini va mamlakat fuqarolari hayotining sifat darajasi yanada ortishini rag'batlantirmasligi mumkin

c) mamlakat iqtisodiyotining ahvoli moliyaning ahvolini belgilab beradi. Chunki doimiy ravishdagi iqtisodiy o'sish, YIM va MD ko'payishi (oshib borishi) sharoitida hamma vaqt ham moliya o'zining muntazamligi hamda barqarorligi bilan xarakterlanmasligi, u ishlab chiqarishning yanada rivojlanishini va mamlakat fuqarolari hayotining sifat darajasi yanada ortishini rag'batlantirmasligi mumkin

d) mamlakat iqtisodiyotining ahvoli moliyaning ahvolini belgilab bermaydi. Chunki doimiy ravishdagi iqtisodiy o'sish, YIM hamda MD ko'payishi (oshib borishi) sharoitida moliya o'zining muntazamligi va barqarorligi bilan xarakterlanadi, u ishlab chiqarishning yanada rivojlanishini va mamlakat fuqarolari hayotining sifat darajasi yanada ortishini rag'batlantiradi

1.1.31. Iqtisodiy krizis (tanazzul), ishlab chiqarishning pasayishi, ishsizlikning ortishi sharoitida moliyaning holati (ahvoli) ...

a) keskin yomonlashmasligi mumkin

b) keskin yomonlashadi

c) o'zgarmasdan qolaveradi

d) keskin yaxshilanadi

1.1.32. Mamlakat miqyosida moliyaviy ahvolning keskin yomonlashganligi nimalarda namoyon bo'ladi?

a) davlat ichki va tashqi qarzlari hisobidan moliyalashtiriladigan byudjet defitsitining kattaligida

b) pul emissiyasida

c) davlat qarzining ortishi va unga xizmat qilish bo'yicha xarajatlarning ko'payishida

d) yuqoridagilarning hammasida

1.1.33. Mamlakat miqyosida moliyaviy ahvoning yomonlashuvi nimalarga olib keladi?

a) inflyatsiyaning kuchayishiga, xo'jalik aloqalarining buzilishiga, pul surrogatlarining paydo bo'lishiga, barterli bitimlarning ko'payishiga, soliqlarni byudjetga undirish borasida qiyinchiliklarning kelib chiqishiga, davlat xarajatlarining o'z vaqtida moliyalashtirilmasligiga, aholi keng qatlamlari turmush darajasining pasayishiga

b) inflyatsiyaning kuchayishiga, xo'jalik aloqalarining buzilishiga, o'zaro noto'lovlarning ortishiga, pul surrogatlarining paydo bo'lishiga, barterli bitimlarning ko'payishiga, soliqlarni byudjetga undirish borasida qiyinchiliklarning kelib chiqishiga, davlat xarajatlarining o'z vaqtida moliyalashtirilmasligiga, aholi keng qatlamlari turmush darajasining pasayishiga

c) inflyatsiyaning kuchayishiga, xo'jalik aloqalarining buzilishiga, o'zaro noto'lovlarning ortishiga, pul surrogatlarining paydo bo'lishiga, soliqlarni byudjetga undirish borasida qiyinchiliklarning kelib chiqishiga, davlat xarajatlarining o'z vaqtida moliyalashtirilmasligiga, aholi keng qatlamlari turmush darajasining pasayishiga

d) inflyatsiyaning kuchayishiga, xo'jalik aloqalarining buzilishiga, o'zaro noto'lovlarning ortishiga, barterli bitimlarning ko'payishiga, soliqlarni byudjetga undirish borasida qiyinchiliklarning kelib chiqishiga, davlat xarajatlarining o'z vaqtida moliyalashtirilmasligiga, aholi keng qatlamlari turmush darajasining pasayishiga

1.1.34. O'zining moddiy mazmuniga ko'ra moliya nimanı ifodalaydi va nimalarnı tashkil etadi?

a) o'zining moddiy mazmuniga ko'ra moliya pul mablag'lari fondlarini ifoda etib, ularning jami (yig'indisi) oxir-oqibatda mamlakatning moliyaviy resurslarini tashkil etadi

b) o'zining moddiy mazmuniga ko'ra moliya pul mablag'lari fondlarini ifodalab, ularning jami (yig'indisi) oxir-oqibatda mamlakatning resurslarini tashkil etadi

c) o'zining moddiy mazmuniga ko'ra moliya pul mablag'larining maqsadli fondlarini ifodalab, ularning jami (yig'indisi) oxir-oqibatda mamlakatning moliyaviy resurslarini tashkil etadi

d) barcha javoblar to'g'ri

1.1.35. Mamlakat moliyaviy resurslari o'sishining asosiy sharti ...

a) MDning ortishi (ko'payishi)dir

b) YIMning ortishi (ko'payishi)dir

c) tushumning ortishi (ko'payishi)dir

d) foydaning ortishi (ko'payishi)dir

1.1.36. «Moliya» va «moliyaviy resurslar» teng kuchli bo'lmagan tushunchalar hisoblanadimi?

a) ha, teng kuchli bo'lmagan tushunchalar hisoblanadi

b) yo'q, ular teng kuchli tushunchalar hisoblanadi

c) bu tushunchalar o'rtasida tenglik belgisini qo'yish mumkin

d) «moliya» va «moliyaviy resurslar» bir-biridan keskin farqlanadi

1.1.37. Quyidagi tasdiqlarning qay biri to'g'ri?

a) moliyaviy resurslar o'z-o'zicha moliyaning mohiyatini aniqlab beradi, uning ichki mazmuni va ijtimoiy mo'ljallanganligini ochadi. Moliya fani resurslarning o'zini emas, balki resurslarni shakllantirish, taqsimlash va foydalanish asosida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi. Bu fan moliyaviy munosabatlarning taraqqiyot qonunlarini tadqiq etadi

b) moliyaviy resurslar o'z-o'zicha moliyaning mohiyatini aniqlab bermaydi, uning ichki mazmuni va ijtimoiy mo'ljallanganligini ocholmaydi. Moliya fani resurslarning o'zini emas, balki resurslarni shakllantirish asosida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi. Bu fan moliyaviy munosabatlarning taraqqiyot qonunlarini tadqiq etadi

c) moliyaviy resurslar o'z-o'zicha moliyaning mohiyatini aniqlab bermaydi, uning ichki mazmuni va ijtimoiy mo'ljalanganligini ocholmaydi. Moliya fani resurslarning o'zini emas, balki resurslarni taqsimlash asosida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi. Bu fan moliyaviy munosabatlarning taraqqiyot qonunlarini tadqiq etadi

d) moliyaviy resurslar o'z-o'zicha moliyaning mohiyatini aniqlab bermaydi, uning ichki mazmuni va ijtimoiy mo'ljalanganligini ocholmaydi. Moliya fani resurslarning o'zini emas, balki resurslarni shakllantirish, taqsimlash va foydalanish asosida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi. Bu fan moliyaviy munosabatlarning taraqqiyot qonunlarini tadqiq etadi

1.1.38. Moliya bazis kategoriyasi hisoblansa-da, ko'p jihatdan ...

a) hukumat tomonidan amalga oshiriladigan (yurgiziladigan, hayotga tatbiq etiladigan) moliyaviy siyosatga bog'liq bo'lmaydi

b) hukumat tomonidan amalga oshiriladigan (yurgiziladigan, hayotga tatbiq etiladigan) moliyaviy siyosatga ham bog'liq bo'ladi

c) hukumat tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy siyosatsiz tasavvur etish mumkin

d) barcha javoblar to'g'ri

1.1.39. Moliya, eng avvalo ...

a) ayirboshlash kategoriyasi

b) ishlab chiqarish kategoriyasi

c) taqsimlash kategoriyasi

d) iste'mol kategoriyasi

1.1.40. Moliya yordamida ...

a) MDning birlamchi taqsimlanishi yoki qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi

b) MDning ikkilamchi taqsimlanishi yoki qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi

c) MDning taqsimlanishi amalga oshiriladi

d) MDning qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi

1.1.41. Moliyaviy munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati qanday savolning tadqiq qilinishi orqali namoyon bo'ladi?

a) moliyaviy munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati «Davlat kimning hisobidan moliyaviy resurslarni oladi?» degan savolning tadqiq qilinishi orqali namoyon bo'ladi

b) moliyaviy munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati «Davlat kimlarning manfaatlari uchun bu mablag'lardan foydalanadi?» degan savolning tadqiq qilinishi orqali namoyon bo'ladi

c) moliyaviy munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati «Davlat kimning hisobidan moliyaviy resurslarni oladi va kimlarning manfaatlari uchun bu mablag'lardan foydalanadi?» degan savolning tadqiq qilinishi orqali namoyon bo'ladi

d) bu yerda savolga to'g'ri javob yo'q

1.1.42. Taqsimlash jarayonlari faqatgina moliya orqali emas, balki ...

a) boshqa iqtisodiy kategoriyalar, jumladan, baho orqali ham amalga oshiriladi

b) boshqa iqtisodiy kategoriyalar, jumladan, kredit orqali ham amalga oshiriladi

c) boshqa iqtisodiy kategoriyalar, jumladan, soliq orqali ham amalga oshiriladi

d) boshqa iqtisodiy kategoriyalar, jumladan, baho, kredit, soliq va h.k. orqali ham amalga oshiriladi

1.1.43. Tovar qiymatining pulda ifodalanishiga ...

a) tannarx deyiladi

b) baho deyiladi

c) foyda deyiladi

d) rentabellik deyiladi

1.1.44. MDning taqsimlanishidan oldin tovar ...

a) realizatsiya qilinishi kerak

b) iste'mol qilinishi kerak

c) ayirboshlanishi kerak

d) taqsimlanishi kerak

1.1.45. Baho ...

a) mulkdorlarga mahsulot realizatsiyasidan kelib tushishi mumkin bo'lgan pul mablag'larini aniqlaydi va navbatdagi taqsimlash jarayonlari uchun boshlang'ich asos sifatida maydonga chiqadi

b) mulkdorlarga mahsulot realizatsiyasidan kelib tushishi mumkin bo'lgan pul mablag'larining o'lchamini aniqlaydi va navbatdagi taqsimlash jarayonlari uchun boshlang'ich asos sifatida maydonga chiqadi

c) mulkdorlarga mahsulot realizatsiyasidan kelib tushishi mumkin bo'lgan pul mablag'larining o'lchamini aniqlaydi va navbatdagi taqsimlash jarayonlari uchun ikkilamchi asos sifatida maydonga chiqadi

d) mulkdorlarga mahsulot realizatsiyasidan kelib tushishi mumkin bo'lgan pul mablag'larining o'lchamini aniqlaydi

1.1.46. Baho ...

a) tovarlarga bo'lgan talabni tartibga soladi va shu orqali takror ishlab chiqarishga o'z ta'sirini ko'rsatadi

b) tovarlarga bo'lgan taklifni tartibga soladi va shu orqali takror ishlab chiqarishga o'z ta'sirini ko'rsatadi

c) tovarlarga bo'lgan talab hamda taklifni tartibga soladi va shu orqali ishlab chiqarishga o'z ta'sirini ko'rsatadi

d) tovarlarga bo'lgan talab hamda taklifni tartibga soladi va shu orqali takror ishlab chiqarishga o'z ta'sirini ko'rsatadi

1.1.47. Bozor iqtisodiyoti sharoitida baho ...

a) pensiyani aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ko'rsatkich hisoblanadi

b) minimal ish haqini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ko'rsatkich hisoblanadi

c) pensiya, nafaqa, hatto minimal ish haqini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ko'rsatkich hisoblanadi

d) pensiya va minimal ish haqini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ko'rsatkich hisoblanadi

1.1.48. Agar davlat baholarni tartibga solmasa ...

a) sotsial to'lovlarni o'zgartirishga majbur bo'ladi

b) minimal ish haqini oshirishga majbur bo'ladi

c) sotsial to'lovlarni o'zgartirishga va minimal ish haqini oshirishga majbur bo'ladi

d) to'g'ri javob yo'q

1.1.49. Hozirgi paytda dunyoning juda ko'p mamlakatlariida ...

a) davlat sotsial ahamiyat kasb etuvchi muhim tovarlarning bahosini o'zgartiryapti

b) davlat sotsial ahamiyat kasb etuvchi muhim tovarlarning bahosini o'zgartirmayapti

c) davlat sotsial ahamiyat kasb etuvchi muhim tovarlar bahosining barqarorligini ta'minlashga harakat qilyapti

d) davlat sotsial ahamiyat kasb etuvchi muhim tovarlarning bahosini o'z holiga tashlab qo'yymoqda

1.1.50. Bahodan, shuningdek ...

a) bojxonaviy tartibga solishda davlat tomonidan foydalaniladi

b) bojxona daromadlarini undirishda davlat tomonidan foydalaniladi

c) bojxonaviy tartibga solishda va bojxona daromadlarini undirishda davlat tomonidan foydalaniladi

d) javoblarning hammasi to'g'ri

1.1.51. Ayrim mamlakatlarda bojxona bojlari ...

a) ko'plab tovar guruhlari bo'yicha sotib olish bahosi bo'yicha emas, balki haqiqatdagsidan keskin farq qiluvchi normativ baholar bo'yicha undiriladi

b) ko'plab tovar guruhlari bo'yicha sotib olish bahosi bo'yicha undiriladi

c) ko'plab tovar guruhlari bo'yicha sotib olish bahosi bo'yicha emas, balki haqiqatdagsidan keskin farq qiluvchi baholar bo'yicha undiriladi

d) ko'plab tovar guruhlari bo'yicha haqiqatdagsidan keskin farq qiluvchi normativ baholar bo'yicha undiriladi

1.1.52. Moliya va kredit mustaqil iqtisodiy kategoriyalar sifatida ...

a) bir-biri bilan uzviy bog'liq emas

b) bir-biri bilan uzviy bog'liqdir

c) bir-birini taqozo etmaydi

d) bir-birini taqozo etadi

1.1.53. Moliya va kredit ...

a) hamkorlikda kengaytirilgan asosda korxonalar pul fondlarining doiraviy aylanishiga xizmat qiladi

b) korxonalar pul fondlarining doiraviy aylanishiga xizmat qiladi

c) hamkorlikda kengaytirilgan asosda korxonalar fondlarining aylanishiga xizmat qiladi

d) hamkorlikda kengaytirilgan asosda korxonalar fondlarining doiraviy aylanishiga xizmat qiladi

1.1.54. Kredit ...

a) maxsus moliya-kredit institutlari tomonidan amalga oshiriladigan ssuda fondning harakatini ifodalaydi

b) bank tizimi va maxsus moliya-kredit institutlari tomonidan amalga oshiriladigan ssuda fondning harakatini ifodalaydi

c) bank tizimi va maxsus moliya-kredit institutlari tomonidan amalga oshiriladigan fondning harakatini ifodalaydi

d) bank tizimi tomonidan amalga oshiriladigan ssuda fondning harakatini ifodalaydi

1.1.55. Bank krediti sifatida sof ko'rinishda tushuniladigan kredit ...

a) davlatga bevosita bog'liq

b) davlatga bevosita bog'liq emas

c) har ikkala javob ham to'g'ri

d) har ikkala javob ham noto'g'ri

1.1.56. Takror ishlab chiqarish jarayonida kreditning roli yetarli darajada aniqlangan, bu ...

a) daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi vaqtinchalik uzilishni qoplash usuli

b) ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishning ehtiyojlarini qoplash usuli

c) daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi vaqtinchalik uzilishni qoplash usuli, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishning ehtiyojlarini qoplash usuli

d) daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi vaqtinchalik uzilishni qoplash usuli, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishning ehtiyojlarini qoplash usuli va h.k.

1.1.57. Kredit bu ...

a) byudjet defitsiti va byudjet-kassa uzilishini qoplashning muhim shakli

b) byudjet defitsiti va byudjet-kassa uzilishini (navbatdagi daromadlar kelib tushgunga qadar byudjet xarajatlari qoplash uchun bank xizmatlari zarur bo'lgan paytda) qoplashning muhim shakli

c) byudjet-kassa uzilishini qoplashning muhim shakli

d) byudjet-kassa uzilishini (navbatdagi daromadlar kelib tushgunga qadar byudjet xarajatlari qoplash uchun bank xizmatlari zarur bo'lgan paytda) qoplashning muhim shakli

1.1.58. Agar byudjet mablag'lari tijorat banklarining hisobvaraqlarida saqlanayotgan bo'lsa ...

a) bu banklar uchun muhim ssuda manbayidir

b) bu banklar uchun muhim depozit manbayidir

c) bu banklar uchun muhim daromad manbayidir

d) bu banklar uchun muhim foyda manbayidir

1.1.59. Kredit moliya (moliyalashtirish)dan ...

a) o'zining qaytariluvchanligi bilan farqlanadi. Bir vaqtning o'zida har ikki holatda ham ular pul mablag'larining harakatlanishini ifodalaydi hamda kredit va moliya pul munosabatlarining chegarasidan (ramkasidan) chetga chiqmaydi. Hatto tovar krediti ham pul asosiga va shakliga ega

b) o'zining qaytariluvchanligi va haqliligi bilan farqlanadi. Bir vaqtning o'zida har ikki holatda ham ular pul mablag'larining harakatlanishini ifodalaydi hamda kredit va moliya pul munosabatlarining chegarasidan (ramkasidan) chetga chiqmaydi. Hatto tovar krediti ham pul asosiga va shakliga ega

c) o'zining qaytariluvchanligi va haqliligi bilan farqlanadi. Bir vaqtning o'zida har ikki holatda ham ular pul mablag'larining harakatlanishini ifodalaydi hamda kredit va moliya pul munosabatlarining chegarasidan (ramkasidan) chetga chiqadi. Hatto tovar krediti ham pul asosiga va shakliga ega

d) o'zining qaytariluvchanligi va haqliligi bilan farqlanadi. Bir vaqtning o'zida har ikki holatda ham ular pul mablag'larining harakatlanishini ifodalaydi hamda kredit va moliya pul munosabatlarining chegarasidan (ramkasidan) chetga chiqmaydi. Hatto tovar krediti ham pul asosiga va shakliga ega emas

1.1.60. Banklar korxonalar hamda aholining bo'sh pul mablag'larini akkumulyatsiya qiladilar va ularni ...

a) ta'minlanganlik, qaytaruvchanlik, haqlilik va muddatlik asosida ularga ehtiyoj sezgan korxonalariga beradilar

b) qaytaruvchanlik, haqlilik va muddatlilik asosida ularga ehtiyoj sezgan korxonalariga beradilar

c) ta'minlanganlik, qaytaruvchanlik, haqlilik va muddatlilik asosida ularga ehtiyoj sezgan subyektlarga beradilar

d) qaytaruvchanlik asosida ularga ehtiyoj sezgan korxonalariga beradilar

1.1.61. Agar moliya qiymatning bir tomonlama va qayta tiklanmaydigan (qaytarilmaydigan) shakldagi harakatini ifodalasa, kredit ...

a) kreditorga oldindan o'rnatilgan foizlarni to'lagan holda qaytarilishi kerak

b) kreditorga belgilangan muddatda foizlarni to'lagan holda qaytarilishi kerak

c) kreditorga foizlarni to'lagan holda qaytarilishi kerak

d) kreditorga belgilangan muddatda oldindan o'rnatilgan foizlarni to'lagan holda qaytarilishi kerak

1.1.62. Moliya, kredit, soliq va h.k. kategoriyalar ...

a) pul xarakteriga, pul tabiatiga ega bo'lib, ularga ikki va undan ortiq kategoriyalarning belgilari xosdir. Masalan, ish haqi yetarli darajada asoslangan tarzda pulli to'lanma, ya'ni pul deb atalishi mumkin. Biroq bu oddiy pul bo'lmasdan, balki sarflangan mehnatga muvofiq olingan pul hisoblanadi

b) pul xarakteriga, pul tabiatiga ega bo'lib, ularga ikki va undan ortiq kategoriyalarning belgilari xosdir. Masalan, ish haqi yetarli darajada asoslangan tarzda pulli to'lanma, ya'ni pul deb atalishi mumkin. Biroq bu oddiy pul bo'lmasdan, balki sarflanmagan mehnatga muvofiq olingan pul hisoblanadi

c) pul xarakteriga, pul tabiatiga ega bo'lib, ularga ikki va undan ortiq kategoriyalarning belgilari xosdir. Masalan, ish haqi yetarli darajada asoslangan tarzda pulli to'lanma, ya'ni pul deb atalishi mumkin. Chunki u oddiy puldir

d) ...ga ikki va undan ortiq kategoriyalarning belgilari xosdir. Masalan, ish haqi yetarli darajada asoslangan tarzda pulli to'lanma, ya'ni pul deb atalishi mumkin. Biroq bu oddiy pul bo'lmasdan, sarflangan mehnatga muvofiq olingan pul hisoblanadi

1.1.63. Moliya, kredit, soliq va h.k. kategoriyalarni...

a) ularning pulli tabiati birlashtirib turadi. Ular bir-birlaridan o'zlarining mo'ljallanganligi bilan ajralib turadi. Bunda kategoriyalarga tegishli barcha belgilarning majmuyi ko'rib chiqilsagina ularni farqlash mumkin

b) ularning pulli tabiati birlashtirib turadi. Ular bir-birlaridan o'zlarining funksiyalari va mo'ljallanganligi bilan ajralib turadi. Bunda kategoriyalarga tegishli barcha belgilarning majmuyi ko'rib chiqilsagina ularni farqlash mumkin

c) ularning qiymat xarakterdaligi birlashtirib turadi. Ular bir-birlaridan o'zlarining funksiyalari va mo'ljallanganligi bilan ajralib turadi. Bunda kategoriyalarga tegishli barcha belgilarning majmuyi ko'rib chiqilsagina ularni farqlash mumkin

d) ularning pulli tabiati birlashtirib turadi. Ular bir-birlaridan o'zlarining funksiyalari va mo'ljallanganligi bilan ajralib turadi. Bunda kategoriyalarga tegishli ayrim belgilarning majmuyi ko'rib chiqilsagina ularni farqlash mumkin

1.2. MOLIYANING FUNKSIYALARI

1.2.1. Moliyaning mohiyati uning nimalari orqali namoyon bo'ladi?

- a) uning prinsiplari orqali namoyon bo'ladi
- b) uning funksiyalari orqali namoyon bo'ladi
- c) uning belgilari orqali namoyon bo'ladi
- d) uning yo'nalishlari orqali namoyon bo'ladi

1.2.2. Moliya qanday funksiyalarni bajaradi?

- a) ijtimoiy, iqtisodiy, taqsimlash
- b) ijtimoiy, taqsimlash, nazorat
- c) taqsimlash, nazorat
- d) maqsadli fondlarni shakllantirish va ulardan foydalanish

1.2.3. Har qanday moliyaviy operatsiya ...

- a) YIMni taqsimlash va shu taqsimlash ustidan nazoratning amalga oshirilishini anglatadi
- b) MDni taqsimlash va shu taqsimlash ustidan nazoratning amalga oshirilishini anglatadi
- c) YIM va MDni taqsimlash hamda shu taqsimlash ustidan nazoratning amalga oshirilishini anglatadi
- d) qiymatni taqsimlash va shu taqsimlash ustidan nazoratning amalga oshirilishini anglatadi

1.2.4. Moliyaviy munosabatlarning asosiy tavsifi ularning taqsimlash xarakteriga ega ekanligi uchun, shunga muvofiq ravishda moliyaning bosh yoki asosiy funksiyasi ...

- a) nazoratdir
- b) taqsimlashdir
- c) pul fondlarini shakllantirishdir
- d) pul fondlaridan foydalanishdir

1.2.5. Moliya YIMni taqsimlashning turli bosqichlariga xizmat qilib, uni ...

- a) birlamchi taqsimlashda ishtirok etadi
- b) qayta taqsimlashda ishtirok etadi
- c) birlamchi taqsimlashda va qayta taqsimlashda ishtirok etadi
- d) nazorat qilishda ishtirok etadi

1.2.6. Moliyaviy metod orqali taqsimlash ...

- a) iqtisodiyotni boshqarishning turli darajalarini (mamlakat, uning alohida olingan mintaqalari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari miqyosida) qamrab oladi
- b) o'ziga xos bo'lib, iqtisodiyotni boshqarishning alohida darajasini qamrab oladi

c) iqtisodiyotni boshqarishning turli darajalarini (mamlakat, uning alohida olingan mintaqalari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari miqyosida) qamrab olmaydi

d) o'ziga xos bo'lib, iqtisodiyotni boshqarishning alohida darajasini qamrab olmaydi

1.2.7. Moliyaviy metod orqali taqsimlashga ...

a) taqsimlashning turli ko'rinishlarini (xo'jalik ichida, tarmoq ichida, tarmoqlararo, hududlararo va b.) tug'diruvchi ko'p bosqichlilik xosdir

b) taqsimlashning turli ko'rinishlarini (xo'jalik ichida, tarmoq ichida, tarmoqlararo, hududlararo va b.) tug'diruvchi ko'p bosqichlilik xos emas

c) taqsimlashning xo'jalik va tarmoq ichidagi ko'rinishlari xos

d) taqsimlashning tarmoqlararo va hududlararo ko'rinishlari xos

1.2.8. Eng avvalo, moliyaning taqsimlash funksiyasi ...

a) YIMni taqsimlashda, «asosiy yoki birlamchi daromadlar» deb nom olganlarni yaratish (tashkil etish) sodir bo'lganda ko'zga tashlanadi

b) MDni taqsimlashda, «asosiy yoki birlamchi daromadlar» deb nom olganlarni yaratish (tashkil etish) sodir bo'lganda ko'zga tashlanadi

c) tushumni taqsimlashda, «asosiy yoki birlamchi daromadlar» deb nom olganlarni yaratish (tashkil etish) sodir bo'lganda ko'zga tashlanadi

d) foydani taqsimlashda, «asosiy yoki birlamchi daromadlar» deb nom olganlarni yaratish (tashkil etish) sodir bo'lganda ko'zga tashlanadi

1.2.9. Asosiy daromadlar MDni moddiy ishlab chiqarish ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash jarayonida shakllanib, ular ...

a) moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo'lgan ishchi va xizmatchilarning ish haqi, fermer va h.k.larning daromadlariga bo'linadi

b) moddiy ishlab chiqarish sohasidagi korxonalarining daromadlariga bo'linadi

c) moddiy ishlab chiqarish sohasidagi korxonalarning daromadlariga hamda moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo'lgan ishchi va xizmatchilarning ish haqi, fermer va h.k.larning daromadlariga bo'linadi

d) yuqoridagi javoblarning hammasi to'g'ri

1.2.10. Birlamchi daromadlar ...

a) milliy xo'jalik ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, mamlakat mudofaa qudratini ta'minlash, aholining moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy pul fondlarining shakllanishini ta'minlay olmaydi

b) milliy xo'jalik ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, mamlakat mudofaa qudratini ta'minlash, aholining moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy pul fondlarining shakllanishini ta'minlay oladi

c) mamlakat mudofaa qudratini ta'minlash, aholining moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy pul fondlarining shakllanishini ta'minlay olmaydi

d) milliy xo'jalik ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, aholining moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy pul fondlarining shakllanishini ta'minlay oladi

1.2.11. Quyidagilar bilan bog'langan holda MDni yanada taqsimlash va qayta taqsimlash zarur ...

a) xo'jalik yurituvchi subyektlar daromadlari va jamg'armalaridan eng samarali hamda oqilona foydalanish maqsadida mablag'larni tarmoqlararo va hududiy qayta taqsimlash bilan

b) ishlab chiqarish sohasi bilan bir qatorda noishlab chiqarish sohasining (maorif, sog'liqni saqlash, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot, boshqaruv va h.k.) ham mavjudligi bilan

c) aholining turli ijtimoiy qatlamlari o'rtasida daromadlarini qayta taqsimlash bilan

d) yuqoridagilarning hammasi bilan

1.2.12. Qayta taqsimlashlar natijasida ...

a) ikkilamchi yoki «kelib chiquvchi» daromadlar tashkil topadi

b) birlamchi daromadlar tashkil topadi

- c) asosiy daromadlar tashkil topadi
- d) asosiy bo'lmagan daromadlar tashkil topadi

1.2.13. Ikkilamchi yoki «kelib chiquvchi» daromadlariga ...

- a) noishlab chiqarish sohasi tarmoqlarida olingan daromadlar kiradi
- b) soliqlar (jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va boshqalar) kiradi
- c) noishlab chiqarish sohasi tarmoqlarida olingan daromadlar va soliqlar (jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va boshqalar) kiradi
- d) noishlab chiqarish sohasi tarmoqlarida olingan daromadlar va soliqlar (jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va boshqalar) kirmaydi

1.2.14. Ikkilamchi daromadlar ...

- a) MDdan foydalanish borasidagi yakuniy nisbatlarni (proporsiyalarni) shakllantirish uchun xizmat qilmaydi
- b) MDdan foydalanish borasidagi yakuniy nisbatlarni (proporsiyalarni) shakllantirish uchun xizmat qiladi
- c) MDdan foydalanish borasidagi oraliq nisbatlarni (proporsiyalarni) shakllantirish uchun xizmat qiladi
- d) MDdan foydalanish borasidagi oraliq nisbatlarni (proporsiyalarni) shakllantirish uchun xizmat qilmaydi

1.2.15. MDni taqsimlash va qayta taqsimlashda faol ishtirok etib, moliya ...

- a) MDni birlamchi taqsimlashda vujudga kelgan nisbatlarni ularning yakuniy foydalanish nisbatlariga transformatsiya qilinishiga (aylanishiga, o'zgarishiga) ta'sir ko'rsatmaydi
- b) MDni birlamchi taqsimlashda vujudga kelgan nisbatlarni ularning yakuniy foydalanish nisbatlariga transformatsiya qilinishiga (aylanishiga, o'zgarishiga) ta'sir ko'rsatadi
- c) MDni ikkilamchi taqsimlashda vujudga kelgan nisbatlarni ularning yakuniy foydalanish nisbatlariga transformatsiya qilinishiga (aylanishiga, o'zgarishiga) ta'sir ko'rsatadi
- d) MDni birlamchi taqsimlashda vujudga kelgan nisbatlar-

ni ularning oraliq foydalanish nisbatlariga transformatsiya qilinishiga (aylanishiga, o'zgarishiga) ta'sir ko'rsatadi

1.2.16. Qayta taqsimlash natijasida yaratiladigan daromadlar ...

a) bir tomondan, pul fondlarining o'lchami va ularning tarkibiy tuzilmasi, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish vositalari hamda iste'mol predmetlarining hajmi va tuzilmasi o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashi kerak

b) moddiy va moliyaviy resurslar, bir tomondan, pul fondlarining o'lchami va ularning tarkibiy tuzilmasi, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish vositalari hamda iste'mol predmetlarining hajmi va tuzilmasi o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashi kerak

c) bir tomondan, pul fondlarining o'lchami va ularning tarkibiy tuzilmasi, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish vositalari va iste'mol predmetlarining hajmi hamda tuzilmasi o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashi kerak emas

d) moddiy va moliyaviy resurslar, bir tomondan, pul fondlarining o'lchami va ularning tarkibiy tuzilmasi, ikkinchi tomondan, ishlab chiqarish vositalari hamda iste'mol predmetlarining hajmi va tuzilmasi o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashi kerak emas

1.2.17. Har bir mamlakat doirasida MDni qayta taqsimlash ...

a) milliy iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini (qishloq xo'jaligi, transport, energetika va h.k.) rivojlantirish maqsadlarida, aholining eng kam ta'minlangan qatlamlari (pensionerlar, talabalar, yolg'iz hamda ko'p bolali onalar va h.k.) foydasiga amalga oshirilishi shart emas

b) milliy iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini (qishloq xo'jaligi, transport, energetika va h.k.) rivojlantirish maqsadlarida, aholining eng kam ta'minlangan qatlamlari (pensionerlar, talabalar, yolg'iz va ko'p bolali onalar va h.k.) foydasiga amalga oshirilishi shart

c) ...da milliy iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini (qishloq xo'jaligi, transport, energetika va h.k.) rivojlantirish maqsadlari, aholining eng kam ta'minlangan qatlamlari (pensionerlar, talabalar, yolg'iz va ko'p bolali onalar va h.k.) foydasi hisobga olinmog'i lozim

d) ...da milliy iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini (qishloq xo'jaligi, transport, energetika va h.k.) rivojlantirish maqsadlari, aholining eng kam ta'minlangan qatlamlari (pensionerlar, talabalar, yolg'iz va ko'p bolali onalar va h.k.) foydasi hisobga olinmasa ham bo'ladi

1.2.18. MDni qayta taqsimlash ...

a) milliy xo'jalikning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari, moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari, mamlakatning alohida mintaqalari o'rtasida sodir bo'ladi

b) moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari, mamlakatning alohida mintaqalari, mulkchilik shakllari va aholining sotsial guruhlari o'rtasida sodir bo'ladi

c) milliy xo'jalikning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari, moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari, mamlakatning alohida mintaqalari, mulkchilik shakllari va aholining sotsial guruhlari o'rtasida sodir bo'ladi

d) milliy xo'jalikning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari, mamlakatning alohida mintaqalari, mulkchilik shakllari va aholining sotsial guruhlari o'rtasida sodir bo'ladi

1.2.19. Moliya yordamida amalga oshiriladigan YIM va MDni taqsimlash va qayta taqsimlashning pirovard maqsadi ...

a) ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish va iqtisodiyotning bozor tarkibiy tuzilmasini shakllantirishdan iborat

b) davlatni mustahkamlash va aholi keng qatlamlari hayotining yuqori sifatli bo'lishini ta'minlashdan iborat

c) ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, iqtisodiyotning bozor tarkibiy tuzilmasini shakllantirish va davlatni mustahkamlashdan iborat

d) ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, iqtisodiyot-

ning bozor tarkibiy tuzilmasini shakllantirish, davlatni mustahkamlash va aholi keng qatlamlari hayotining yuqori sifatlilik bo'lishini ta'minlashdan iborat

1.2.20. Moliyaning roli ...

a) kam xarajat qilib eng yuqori natijalarga erishish vazifalariga bo'ysundirilgan

b) moliya-xo'jalik faoliyatini yanada yaxshilashda xo'jalik yurituvchi subyektlar har bir xodimi va jamoasining moddiy manfaatdorligi va qiziquvchanligini oshirish vazifalariga bo'ysundirilgan

c) kam xarajat qilib eng yuqori natijalarga erishish, moliya-xo'jalik faoliyatini yanada yaxshilashda xo'jalik yurituvchi subyektlar har bir xodimi va jamoasining moddiy manfaatdorligi va qiziquvchanligini oshirish vazifalariga bo'ysundirilgan

d) barcha javoblar noto'g'ri

1.2.21. Moliyaning taqsimlash funksiyasi yordamida davlat faqatgina MDni qayta taqsimlashga emas, balki ...

a) ishlab chiqarishga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi

b) kapitalning jamg'arilishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi

c) iste'mol sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi

d) barcha javoblar to'g'ri

1.2.22. Moliya ...

a) iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlarini rivojlantirishda hal qiluvchi rolni o'ynaydi

b) ishlab chiqarish va sotsial infrastrukturani rivojlantirishda hal qiluvchi rolni o'ynaydi

c) ilmiy-texnika taraqqiyotini va h.k.larni rivojlantirishda hal qiluvchi rolni o'ynaydi

d) barcha javoblar to'g'ri

1.2.23. Moliyaning taqsimlash funksiyasi ...

a) xo'jalik subyektlari, aholi, davlat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari darajasida maqsadli pul mablag'lari fondlarini shakllantirishga shart-sharoit yaratib beradi

b) xo'jalik ichida, tarmoq ichida, tarmoqlararo, hududlararo, shuningdek, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish so-

halari, aholi ijtimoiy guruhlari o'rtasida qayta taqsimlashni sodir etishga shart-sharoit yaratib beradi

c) xo'jalik subyekt va davlat darajasida zaxiralar yaratishga, fuqarolar tomonidan jamg'arishni amalga oshirishga imkoniyat va shart-sharoit yaratib beradi

d) barcha javoblar to'g'ri

1.2.24. Pul daromadlari va fondlarini shakllantirish hamda foydalanishning instrumenti sifatida moliya ...

a) taqsimlash jarayonining amalga oshirilishini obyektiv ravishda o'zida aks ettiradi

b) taqsimlash jarayonining amalga oshirilishini subyektiv ravishda o'zida aks ettiradi

c) taqsimlash jarayonining amalga oshirilishini proporsional ravishda o'zida aks ettiradi

d) taqsimlash jarayonining amalga oshirilishini noproporsional ravishda o'zida aks ettiradi

1.2.25. Moliyaning nazorat funksiyasi ...

a) YIMni tegishli fondlarga taqsimlash ustidan nazoratni amalga oshirish orqali namoyon bo'ladi

b) YIMning maqsadga muvofiq sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish orqali namoyon bo'ladi

c) YIMni tegishli fondlarga taqsimlash va ularning maqsadga muvofiq sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish orqali namoyon bo'ladi

d) «a» va «b» javoblar to'g'ri

1.2.26. Moliyaning taqsimlash va nazorat funksiyalari ...

a) yagona iqtisodiy jarayonning bir tomonidir

b) yagona iqtisodiy jarayonning ikki tomonidir

c) yagona iqtisodiy jarayonning umumiy tomonidir

d) yagona iqtisodiy jarayonning xususiy tomonidir

1.2.27. Moliya nazorat funksiyasining asosini ...

a) pul resurslarining harakati tashkil etadi

b) moliyaviy mablag'larning harakati tashkil etadi

c) moliyaviy resurslarning harakati tashkil etadi

d) byudjet resurslarining harakati tashkil etadi

1.2.28. Agar moliyaning nazorat funksiyasi amaliyotda amalga oshirilmasa ...

a) moliya taqsimlash funksiyasi samaradorligini baholashning iloji yo'q

b) ham moliya taqsimlash funksiyasi samaradorligini baholashning iloji bor

c) uning taqsimlash funksiyasi o'z ahamiyatini yo'qotadi

d) ham taqsimlash funksiyasi o'z ahamiyatini yo'qotmaydi

1.2.29. Moliyaning nazorat funksiyasi ...

a) ijtimoiy va xususiy ishlab chiqarishning dinamik rivojlantirishini ta'minlashga yo'naltirilgan

b) ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga yo'naltirilgan

c) milliy xo'jalikning barcha bo'g'inlarida ish sifatini uzluksiz yaxshilashga yo'naltirilgan

d) barcha javoblar to'g'ri

1.2.30. Moliyaning nazorat funksiyasi ...

a) ishlab chiqarish sohasini to'liq qamrab oladi

b) noishlab chiqarish sohasini to'liq qamrab oladi

c) ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohaslarini to'liq qamrab oladi

d) barcha javoblar noto'g'ri

1.2.31. Moliya nazorat funksiyasining maqsadlari ...

a) iqtisodiy rag'batlantirishni oshirish, moddiy, mehnat, moliyaviy resurslar va tabiiy boyliklardan oqilona va tejamkor foydalanishni ta'minlashdir

b) moddiy, mehnat, moliyaviy resurslar va tabiiy boyliklardan oqilona va tejamkor foydalanishni ta'minlash, noishlab chiqarish xarajatlari va yo'qotmalarni qisqartirishdir

c) iqtisodiy rag'batlantirishni oshirish, moddiy, mehnat, moliyaviy resurslar va tabiiy boyliklardan oqilona va tejamkor foydalanishni ta'minlash, noishlab chiqarish xarajatlari va yo'qotmalarni qisqartirish, xo'jasizlik va isrofgarchilikning oldini olishdir

d) moddiy, mehnat, moliyaviy resurslar va tabiiy boyliklardan oqilona va tejamkor foydalanishni ta'minlash, noishlab

chiqarish xarajatlari va yo'qotmalarni qisqartirish, xo'jasizlik va isrofgarchilikning oldini olishdir

1.2.32. Moliya nazorat funksiyasining eng muhim vazifalaridan biri ...

a) moliyaviy masalalar bo'yicha qonunchilikning aniq bajarilishini, byudjet tizimi, soliq xizmati, banklar oldidagi moliyaviy majburiyatlar, shuningdek, hisob-kitoblar va to'lovlar bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro majburiyatlari bajarilishining o'z vaqtidaligi va to'liqligini tekshirish hisoblanadi

b) hisob-kitoblar va to'lovlar bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro majburiyatlari bajarilishining o'z vaqtidaligi va to'liqligini tekshirish hisoblanadi

c) byudjet tizimi, soliq xizmati, banklar oldidagi moliyaviy majburiyatlar, shuningdek, hisob-kitoblar va to'lovlar bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro majburiyatlari bajarilishining o'z vaqtidaligi va to'liqligini tekshirish hisoblanadi

d) moliyaviy masalalar bo'yicha qonunchilikning aniq bajarilishini, hisob-kitoblar va to'lovlar bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro majburiyatlari bajarilishining o'z vaqtidaligi va to'liqligini tekshirish hisoblanadi

1.2.33. Moliyaning nazorat funksiyasi ...

a) soliq organlarining ko'p qirrali faoliyatlari orqali namoyon bo'ladi

b) banklar va sug'urta tashkilotlarining ko'p qirrali faoliyatlari orqali namoyon bo'ladi

c) moliya organlarining ko'p qirrali faoliyatlari orqali namoyon bo'ladi

d) Moliya vazirligi va uning quyi organlari faoliyatlari orqali namoyon bo'ladi

1.2.34. Moliya tizimi va soliq xizmatining xodimlari ...

a) moliyaviy rejalashtirish jarayonida moliyaviy nazoratni amalga oshiradilar

b) byudjet tizimi daromadlar va xarajatlar qismining bajarilishida moliyaviy nazoratni amalga oshiradilar

c) moliyaviy rejalashtirish jarayonida, byudjet tizimi

daromadlar va xarajatlar qismining bajarilishida moliyaviy nazoratni amalga oshiradilar

d) moliyaviy rejalashtirish jarayonida, byudjet tizimi daromadlar qismining bajarilishida moliyaviy nazoratni amalga oshiradilar

1.2.35. Bozor munosabatlarining rivojlanishi sharoitida...

a) nazorat ishlarining yo'nalishi, moliyaviy nazoratning shakl va metodlari barqarorlik kasb etadi

b) nazorat ishlarining yo'nalishi, moliyaviy nazoratning shakl va metodlari keskin o'zgar olmaydi

c) nazorat ishlarining yo'nalishi, moliyaviy nazoratning shakl va metodlari keskin o'zgaradi

d) nazorat ishlarining yo'nalishi, moliyaviy nazoratning shakl va metodlari turg'unlik xarakteriga ega bo'ladi

1.2.36. Moliyaning funksiyalari...

a) byudjet-soliq mexanizmi orqali amalga oshiriladi

b) xo'jalik mexanizmi orqali amalga oshiriladi

c) moliya mexanizmi orqali amalga oshiriladi

d) iqtisodiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi

1.2.37. Moliya mexanizmi...

a) markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag'lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini, moliyaviy rejalashtirish metodlarini, moliya va moliya tizimini boshqarish shakllarini, moliyaviy qonunchilikni o'z ichiga oladi

b) milliy xo'jalikdagi moliyaviy munosabatlar tashkiliy shakllarining majmuyini, moliyaviy rejalashtirish metodlarini, moliya va moliya tizimini boshqarish shakllarini, moliyaviy qonunchilikni o'z ichiga oladi

c) milliy xo'jalikdagi moliyaviy munosabatlar tashkiliy shakllarining majmuyini, markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag'lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini, moliya va moliya tizimini boshqarish shakllarini, moliyaviy qonunchilikni o'z ichiga oladi

d) milliy xo'jalikdagi moliyaviy munosabatlar tashkiliy

shakllarining majmuyini, markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag'lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini, moliyaviy rejalashtirish metodlarini, moliya va moliya tizimini boshqarish shakllarini, moliyaviy qonunchilikni o'z ichiga oladi

1.3. TAKROR ISHLAB CHIQRISH VA MOLIYA

1.3.1. Kishilik jamiyati oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va sotsial sohani doimiy ravishda ...

a) ishlab chiqarmasdan hayot kechirishi (amal qilishi) mumkin emas

b) oddiy takror ishlab chiqarmasdan hayot kechirishi (amal qilishi) mumkin emas

c) kengaytirilgan takror ishlab chiqarmasdan hayot kechirishi (amal qilishi) mumkin emas

d) takror ishlab chiqarmasdan hayot kechirishi (amal qilishi) mumkin emas

1.3.2. Xalqaro mehnat taqsimoti ...

a) yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarning tekis taqsimlanishiga, eng boy-badavlat sanalgan mamlakatlarda moliyaviy kapitalning konsentratsiyalashuviga (to'planishiga) olib kelmoqda

b) yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarning notekis taqsimlanishiga, eng boy-badavlat sanalgan mamlakatlarda moliyaviy kapitalning konsentratsiyalashuviga (to'planishiga) olib kelmoqda

c) yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarning notekis taqsimlanishiga, barcha mamlakatlarda moliyaviy kapitalning konsentratsiyalashuviga (to'planishiga) olib kelmoqda

d) yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarning tekis taqsimlanishiga, barcha mamlakatlarda moliyaviy kapitalning konsentratsiyalashuviga (to'planishiga) olib kelmoqda

1.3.3. Eng kambag'al mamlakatlar ...

a) faqat xomashyoni qazib chiqarish bilan shug'ullanmoqda

b) faqat qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanmoqda

c) xomashyoni qazib chiqarish va qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanmoqda

d) sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanmoqda

1.3.4. Har qanday sharoitda ham takror ishlab chiqarish jarayonining mazmuni o'zgarmasdan qolayotir ...

a) shunga mos ravishda qo'shimcha mahsulotning konsentratsiyalashuv (to'planish) joyi ham o'zgarmayotir

b) faqat qo'shimcha mahsulotning konsentratsiyalashuv (to'planish) joyi o'zgarmoqda, xolos

c) shunga mos ravishda qo'shimcha mahsulotning konsentratsiyalashuv (to'planish) joyi ham barqarorlik kasb etmoqda

d) va unga ko'ra qo'shimcha mahsulotning konsentratsiyalashuv (to'planish) joyi ham o'zgarmayapti

1.3.5. Moliya, bank va baho mexanizmlari orqali foydaning asosiy qismi ...

a) rivojlangan mamlakatlarda «cho'kmoqda» va ularga kelgusida ham taqsimlashni o'zlari foydalariga hal qilishga imkon berayapti

b) barcha mamlakatlarda «cho'kmoqda» va ularga kelgusida ham taqsimlashni o'zlari foydalariga hal qilishga imkon bermayapti

c) eng rivojlangan mamlakatlarda «cho'kmoqda» va ularga kelgusida ham taqsimlashni o'zlari foydalariga hal qilishga imkon berayapti

d) eng rivojlangan mamlakatlarda «cho'kmoqda» va ularga kelgusida ham taqsimlashni o'zlari foydalariga hal qilishga imkon bermayapti

1.3.6. Takror ishlab chiqarish jarayoni o'z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi ...

a) ishlab chiqarish; almashuv; ayirboshlash; taqsimlash; iste'mol

b) ishlab chiqarish; almashuv; taqsimlash; iste'mol

c) kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, almashuv; taqsimlash; iste'mol

d) oddiy takror ishlab chiqarish, ayirboshlash; taqsimlash; iste'mol

1.3.7. Takror ishlab chiqarish bosqichlari ...

a) majburiy yoki shart bo'lmagan, ularning birisiz takror ishlab chiqarish jarayoni davom etaveradi

b) majburiy yoki shart bo'lib, hatto ularning birisiz takror ishlab chiqarish jarayoni uziladi

c) majburiy yoki shart bo'lib, ularning birisiz takror ishlab chiqarish jarayoni uzilmaydi

d) majburiy yoki shart bo'lib, ularning birisiz takror ishlab chiqarish jarayoni davom etaveradi

1.3.8. Takror ishlab chiqarishning bosqichlariga ...

a) alohida iqtisodiy kategoriyalar xizmat qiladi

b) bir necha iqtisodiy kategoriyalar xizmat qiladi

c) bir yoki bir necha iqtisodiy kategoriyalar xizmat qiladi

d) hech qanday iqtisodiy kategoriyalar xizmat qilmaydi

1.3.9. Kategoriyalarning takror ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishi ...

a) bevosita shaklda bo'lishi mumkin

b) bilvosita shaklda bo'lishi mumkin

c) o'ziga xos shaklda bo'lishi mumkin

d) bevosita va bilvosita shakllarda bo'lishi mumkin

1.3.10. Baho kategoriyasi tovar kategoriyasi singari almashuv bosqichida ...

a) markaziy o'rinni egallaydi

b) markaziy o'rinni egallamaydi

c) alohida o'ringa ega

d) maxsus o'ringa ega emas

1.3.11. Baho kategoriyasining ta'siri, takror ishlab chiqarishning almashuv bosqichida ...

a) boshqa kategoriyalar xizmat qilmasa-da, iste'mol bosqichida bevosita namoyon bo'ladi

b) boshqa kategoriyalar xizmat qilishiga qaramay, iste'mol bosqichida bevosita namoyon bo'lmaydi

c) boshqa kategoriyalar xizmat qilishiga qaramay, iste'mol bosqichida bevosita namoyon bo'ladi

d) to'g'ri javob yo'q

1.3.12. Davlat moliyasining ijtimoiy mo'ljallanganligidan kelib chiqiladigan bo'lsa, taqsimlash bosqichida ularning roli ...

a) nisbatan kattaroq ekanligi yaqqol ko'rinadi

b) nisbatan kichikroq ekanligi yaqqol ko'rinadi

c) o'zgarmas ekanligi yaqqol ko'rinadi

d) o'zgaruvchan ekanligi yaqqol ko'rinadi

1.3.13. Takror ishlab chiqarish jarayonining taqsimlash bosqichida ...

a) barcha ijtimoiy manfaatlar va shunga muvofiq ravishda jamiyatning barcha mutanosibliklari namoyon bo'ladi

b) barcha shaxsiy manfaatlar va shunga muvofiq ravishda jamiyatning barcha qarama-qarshiliklari namoyon bo'ladi

c) barcha ijtimoiy manfaatlar va shunga muvofiq ravishda jamiyatning barcha qarama-qarshiliklari namoyon bo'ladi

d) barcha siyosiy manfaatlar va shunga muvofiq ravishda jamiyatning barcha qarama-qarshiliklari namoyon bo'ladi

1.3.14. Iste'molga ketadigan jami ijtimoiy mahsulot (JIM)dan, birinchi navbatda ...

a) ishlab chiqarishning oldingi (o'tgan) siklida foydalanilgan mehnat qurollari va predmetlarini tiklash uchun mo'ljallangan qismi ajratiladi

b) takror ishlab chiqarishning keyingi (navbatdagi) siklida foydalanilgan mehnat qurollari va predmetlarini tiklash uchun mo'ljallangan qismi ajratiladi

c) ishlab chiqarishning oldingi (o'tgan) siklida foydalanilgan mehnat qurollarini tiklash uchun mo'ljallangan qismi ajratiladi

d) takror ishlab chiqarishning oldingi (o'tgan) siklida foydalanilgan mehnat qurollari va predmetlarini tiklash uchun mo'ljallangan qismi ajratiladi

1.3.15. Taqsimlash proporsiya (nisbat)lari asrlar davomida shakllanib, unda ishtirokchilarning har biri...

a) o'zgalarga tegishli bo'lgan qismni orttirish (ko'paytirish) maqsadida bir-birlari bilan doimiy qarama-qarshilikda bo'ladilar

b) o'ziga tegishli bo'lgan qismni orttirish (ko'paytirish) maqsadida bir-birlari bilan doimiy qarama-qarshilikda bo'ladilar

c) o'ziga tegishli bo'lgan qismni orttirish (ko'paytirish) maqsadida bir-birlari bilan doimiy munosabatda bo'ladilar

d) o'zgalarga tegishli bo'lgan qismni orttirish (ko'paytirish) maqsadida bir-birlari bilan doimiy munosabatda bo'ladilar

1.3.16. Jamiyatda yangidan yaratilgan qiymat...

a) birinchi taqsimlash bosqichini, undan so'ng esa iste'mol va almashuv bosqichlarini bosib o'tadi

b) ikkinchi taqsimlash bosqichini, undan so'ng esa almashuv va iste'mol bosqichlarini bosib o'tadi

c) birinchi taqsimlash bosqichini, undan so'ng esa almashuv va iste'mol bosqichlarini bosib o'tadi

d) ikkinchi taqsimlash bosqichini, undan so'ng esa iste'mol va almashuv bosqichlarini bosib o'tadi

1.3.17. Takror ishlab chiqarish jarayonining har bir ishtirokchisi o'ziga tegishli bo'lgan daromadni quyidagi ikki qismga bo'ladi ...

a) investitsiya fondi va jamg'arish fondi

b) iste'mol fondi va jamg'arish fondi

c) iste'mol fondi va investitsiya fondi

d) jamg'arish fondi va amortizatsiya fondi

3.18. Taqsimlash jarayoniga davlat aralashib ...

a) soliqlar va shu kabi boshqa iqtisodiy instrumentlardan foydalangan holda individual daromadlaridan o'zining hissasini (o'ziga tegishli bo'lgan qismni) ajratib oladi

b) soliqlar va shu kabi boshqa iqtisodiy instrumentlardan foydalangan holda jamoa daromadlaridan o'zining hissasini (o'ziga tegishli bo'lgan qismni) ajratib oladi

c) soliqlar va shu kabi boshqa iqtisodiy instrumentlardan foydalangan holda individual va jamoa daromadlaridan o'zining hissasini (o'ziga tegishli bo'lgan qismni) ajratib oladi

d) soliqlar, ish haqi va boshqa shu kabi iqtisodiy instrumentlardan foydalangan holda individual va jamoa daromadlaridan o'zining hissasini (o'ziga tegishli bo'lgan qismni) ajratib oladi

1.3.19. Daromadlar qancha qismini olishning «ostonasi»ni aniqlashda ...

a) jamiyat ishtirok etadi. U jamoatchilik tashkilotlari orqali qonunchilik va ijroiya hokimiyatini shakllantirish yo'li bilan davlat faoliyatining chegarasini aniqlashga harakat qiladi

b) jamiyat ishtirok etadi. U jamoatchilik tashkilotlari, partiyalar va shunga o'xshashlar orqali, qonunchilik va ijroiya hokimiyatini shakllantirish yo'li bilan davlat faoliyatining chegarasini aniqlashga harakat qiladi

c) davlat ishtirok etadi. U jamoatchilik tashkilotlari, partiyalar va shunga o'xshashlar orqali, qonunchilik va ijroiya hokimiyatini shakllantirish yo'li bilan davlat faoliyatining chegarasini aniqlashga harakat qiladi

d) korxonalar ishtirok etadi. Ular jamoatchilik tashkilotlari, partiyalar va shunga o'xshashlar orqali, qonunchilik va ijroiya hokimiyatini shakllantirish yo'li bilan davlat faoliyatining chegarasini aniqlashga harakat qiladilar

1.3.20. Davlat ham o'zining harakat doirasini (sohasini) kengaytirishga harakat qiladi. Uning funksiyalari ...

a) qancha keng bo'lsa, jamiyat a'zolari daromadlarining shuncha kichik summalariga davlat da'vogarlik qiladi

b) qancha tor bo'lsa, jamiyat a'zolari daromadlarining shuncha katta summalariga davlat da'vogarlik qiladi

c) qancha keng bo'lsa, jamiyat a'zolari daromadlarining shuncha katta summalariga davlat da'vogarlik qiladi

d) ...ga bog'liq bo'lmagan holda jamiyat a'zolari daromadlarining shuncha katta summalariga davlat da'vogarlik qiladi

1.3.21. Iste'mol proporsiya (nisbat)lari ham o'zgaradi. Masalan, agar davlat maorif, sog'liqni saqlash, sotsial ta'minot xarajatlarining bir qismini o'z zimmasiga olsa ...

a) bu narsa ishchi kuchining tannarxida, demak, mehnat haqining darajasida o'z aksini topadi

b) bu narsa ishchi kuchining qiymatida, demak, mehnat haqining darajasida o'z aksini topadi

c) bu narsa ishchi kuchining bahosida, demak, mehnat haqining darajasida o'z aksini topmaydi

d) bu narsa ishchi kuchining bahosida, demak, mehnat haqining darajasida o'z aksini topadi

1.3.22. Ijtimoiy iste'mol fondlarining hissasi qancha yuqori bo'lsa ...

a) shaxsiy iste'mol fondlarining hissasi shuncha past bo'ladi

b) shaxsiy iste'mol fondlarining hissasi shuncha yuqori bo'ladi

c) shaxsiy iste'mol fondlarining hissasi shunga mos ravishda o'zgaradi

d) shaxsiy iste'mol fondlarining hissasi o'zgarmaydi

1.3.23. Har bir davlat uchun ma'lum bir davrda ...

a) mamlakat aholisi (ayniqsa, alohida shaxslar) qancha boy bo'lsa, davlatning o'zi ham shuncha boy bo'ladi degan tushunchadan kelib chiqib aniq tavsiyalar ishlab chiqmoq maqsadga muvofiq

b) mamlakat aholisi (ayniqsa, aholining keng qatlami) qancha boy bo'lsa, davlatning o'zi ham shuncha boy bo'ladi degan tushunchadan kelib chiqib aniq tavsiyalar ishlab chiqmoq maqsadga muvofiq

c) mamlakat aholisi (alohida shaxslar emas, balki aholining keng qatlami) qancha boy bo'lsa, davlatning o'zi ham shuncha boy bo'ladi degan tushunchadan kelib chiqib aniq tavsiyalar ishlab chiqmoq maqsadga muvofiq

d) mamlakat aholisi (alohida shaxslar emas, balki aholining keng qatlami) qancha boy bo'lsa, davlatning o'zi ham shuncha kambag'al bo'ladi degan tushunchadan kelib chiqib aniq tavsiyalar ishlab chiqmoq maqsadga muvofiq

1.3.24. Daromadning yuqori darajasi ...

a) past iste'mol talabini, sog'lomlashib borayotgan iqtisodiyotni vujudga keltiradi. Shunga mos ravishda soliqqa tortiladigan baza (asos) o'sadi va jamg'armalar hissasi oshadi

b) yuqori iste'mol talabini, sog'lomlashib borayotgan iqtisodiyotni vujudga keltiradi. Shunga mos ravishda soliqqa tortiladigan baza (asos) kamayadi va jamg'armalar hissasi oshadi

c) yuqori iste'mol talabini, sog'lomlashib borayotgan iqtisodiyotni vujudga keltiradi. Shunga mos ravishda soliqqa tortiladigan baza (asos) o'sadi va jamg'armalar hissasi kamayadi

d) yuqori iste'mol talabini, sog'lomlashib borayotgan iqtisodiyotni vujudga keltiradi. Shunga mos ravishda soliqqa tortiladigan baza (asos) o'sadi va jamg'armalar hissasi oshadi

1.3.25. Jamg'armalar ssuda kapitalining asosini tashkil etib, o'z navbatida, ular ...

a) oddiy takror ishlab chiqarishga va ilmiy-texnika taraqqiyotiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi

b) kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga va ilmiy-texnika taraqqiyotiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi

c) kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga va ilmiy-texnika taraqqiyotiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatmaydi

d) oddiy takror ishlab chiqarishga va ilmiy-texnika taraqqiyotiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatmaydi

1.3.26. Hukumatlari soliqlar orqali shaxsiy daromadlarni chegaralab (cheklab) qo'ygan mamlakatlarda ...

a) iqtisodiyot o'sish bazasiga (asosiga) egadir. Bunday mamlakatlar ma'lum bir vaqt o'tganidan so'ng nisbatan boyroq mamlakatlarning ta'siri ostiga tushib qoladi

b) iqtisodiyot o'sish bazasiga (asosiga) ega emasdir. Bunday mamlakatlar ma'lum bir vaqt o'tganidan so'ng nisbatan boyroq mamlakatlarning ta'siri ostiga tushib qoladi

c) iqtisodiyot pasayish bazasiga (asosiga) ega emasdir. Bunday mamlakatlar ma'lum bir vaqt o'tganidan so'ng nisbatan kambag'alroq mamlakatlarning ta'siri ostiga tushib qoladi

d) iqtisodiyot kamayish bazasiga (asosiga) ega emasdir. Bunday mamlakatlar ma'lum bir vaqt o'tganidan so'ng nisbatan boyroq mamlakatlarning ta'siri ostiga tushib qoladi

1.3.27. Mamlakat ichki manbalarining qisqarishi...

a) ichki qarzga olishlar evaziga qoplanadi. O'z navbatida, tashqi qarzlarni qaytarishning manbayi sifatida faqat soliqlar va davlat mulki xizmat qilishi mumkin

b) tashqi qarzga olishlar evaziga qoplanadi. O'z navbatida, tashqi qarzlarni qaytarishning manbayi sifatida faqat davlat mulki xizmat qilishi mumkin

c) tashqi qarzga olishlar evaziga qoplanadi. O'z navbatida, tashqi qarzlarni qaytarishning manbayi sifatida faqat soliqlar va davlat mulki xizmat qilishi mumkin

d) tashqi qarzga olishlar evaziga qoplanadi. O'z navbatida, ichki qarzlarni qaytarishning manbayi sifatida faqat soliqlar va davlat mulki xizmat qilishi mumkin

1.3.28. Taqsimlash jarayoniga davlat aralashuvining balanslashtirilgan chegaralari buzilsa...

a) takror ishlab chiqarish jarayonining bir qismi buziladi (izdan chiqadi). Buning barchasini iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish deb atash mumkin

b) butun takror ishlab chiqarish jarayoni buziladi (izdan chiqadi). Buning barchasini mehnat bozorini yaratish deb atash mumkin

c) butun takror ishlab chiqarish jarayoni qisman buziladi (izdan chiqadi). Bularning barchasini iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish va mehnat bozorini yaratish deb atash mumkin

d) butun takror ishlab chiqarish jarayoni buziladi (izdan chiqadi). Bularning barchasini iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish va mehnat bozorini yaratish deb atash mumkin

1.3.29. Agar ijtimoiy portlashlarning oldini olish maqsadida davlat aholi kambag'al qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha ravishda majburiyatlarni o'z zimmasiga olsa...

a) bu ham sog'lom takror ishlab chiqarish jarayonlarining buzilganligidan darak bermaydi

b) bu ham sog'lom takror ishlab chiqarish jarayonlarining buzilganligidan darak beradi

c) bu ham sog'lom ishlab chiqarish jarayonlarining buzilganligidan darak beradi

d) bu ham sog'lom ishlab chiqarish jarayonlarining buzilganligidan darak bermaydi

1.3.30. Markazlashtirilgan rejali tizimning bozor mezanizmi bilan to'liq almashtirilganligi sharoitida ...

a) eski taqsimlash tizimining saqlanib qolishi mumkin emas. Biroq yangi tizimni yaratishda sanoat texnologiyasining holati, sanoatning tarkibiy tuzilishi, raqobatbardoshlik va boshqa omillar inobatga olinishi kerak. Boshqa mamlakatlarning bu boradagi tizimidan nusxa olish o'z davlatchiligiga va faniga ega bo'lmagan kuchsiz rivojlangan mamlakatlargagina xosdir. Shu ma'noda ko'p mingyillik tarixga ega O'zbekiston o'z shaxsiy tajribasini absolyut inkor etib, o'zgalarning tajribasini (hatto ular eng yaxshi bo'lganda ham) ko'r-ko'rona qo'llashi mumkin emas

b) eski taqsimlash tizimining saqlanib qolishi mumkin. Biroq yangi tizimni yaratishda sanoat texnologiyasining holati, sanoatning tarkibiy tuzilishi, raqobatbardoshlik va boshqa omillar inobatga olinishi kerak. Boshqa mamlakatlarning bu boradagi tizimidan nusxa olish o'z davlatchiligiga va faniga ega bo'lmagan kuchsiz rivojlangan mamlakatlargagina xosdir. Shu ma'noda ko'p mingyillik tarixga ega O'zbekiston o'z shaxsiy tajribasini absolyut inkor etib, o'zgalarning tajribasini (hatto ular eng yaxshi bo'lganda ham) ko'r-ko'rona qo'llashi mumkin emas

c) eski taqsimlash tizimining saqlanib qolishi mumkin emas. Biroq yangi tizimni yaratishda sanoat texnologiyasining holati, sanoatning tarkibiy tuzilishi, raqobatbardoshlik va boshqa omillar inobatga olinishi kerak. Boshqa mamlakatlarning bu boradagi tizimidan nusxa olish o'z davlatchiligiga va faniga ega bo'lmagan kuchsiz rivojlangan mamlakatlargagina xosdir. Shu ma'noda ko'p mingyillik tarixga ega O'zbekiston o'z shaxsiy tajribasini absolyut inkor etib, o'zgalarning tajribasini (hatto ular eng yaxshi bo'lganda ham) ko'r-ko'rona qo'llashi mumkin

d) eski taqsimlash tizimining saqlanib qolishi mumkin emas. Biroq yangi tizimni yaratishda sanoat texnologiyasi-ning holati, sanoatning tarkibiy tuzilishi, raqobatbardoshlik va boshqa omillar inobatga olinishi kerak. Boshqa mam-lakatlarning bu boradagi tizimidan nusxa olish o'z dav-latchiligiga va faniga ega bo'lmagan kuchli rivojlangan mam-lakatlargagina xosdir. Shu ma'noda ko'p mingyillik tarixga ega O'zbekiston o'z shaxsiy tajribasini absolyut inkor etib, o'zgalarning tajribasini (hatto ular eng yaxshi bo'lganda ham) ko'r-ko'rona qo'llashi mumkin emas

1.3.31. Takror ishlab chiqarish jarayonining taqsimlanishini tahlil qilishni tanlab, kapitalning real harakatida ...

a) faqat ishlab chiqarish sohasi bilan chegaralanish ke-rak emas. Bundan tashqari, kapitalning milliy chegaralarni tan olmasligini ham e'tirof etmoq lozim. Chunki bunga faqat birja va bank sohalarining o'ziga xos xususiyatlari emas, bal-ki transmilliy kompaniyalarning keng rivojlanishi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi

b) faqat moddiy ishlab chiqarish sohasi bilan chegarala-nish kerak emas. Bundan tashqari, kapitalning milliy chega-ralarni tan olmasligini ham e'tirof etmoq lozim. Chunki bun-ga faqat birja va bank sohalarining o'ziga xos xususiyatlari emas, balki transmilliy kompaniyalarning keng rivojlanishi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi

c) faqat moddiy ishlab chiqarish sohasi bilan chegarala-nish kerak emas. Bundan tashqari, kapitalning milliy che-garalarni tan olishini ham e'tirof etmoq lozim. Chunki bun-ga faqat birja va bank sohalarining o'ziga xos xususiyatlari emas, balki transmilliy kompaniyalarning keng rivojlanishi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi

d) faqat moddiy ishlab chiqarish sohasi bilan chegarala-nish kerak emas. Bundan tashqari, kapitalning milliy chega-ralarni tan olmasligini ham e'tirof etmoq lozim. Chunki bun-ga faqat birja va bank sohalarining o'ziga xos xususiyatlari emas, balki transmilliy kompaniyalarning keng rivojlanma-ganligi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

1.3.32. Taqsimlash jarayonida moliyaning roli va o'rnini ko'rsatish uchun ...

- a) JIMning o'rniga MDdan foydalanish mumkin. Chunki har ikki ko'rsatkich o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega
- b) JIMning o'rniga YIMdan foydalanish mumkin. Chunki har ikki ko'rsatkich faqat o'zining afzalliklariga ega
- c) JIMning o'rniga YIMdan foydalanish mumkin. Chunki har ikki ko'rsatkich o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega
- d) JIMning o'rniga MDdan foydalanish mumkin. Chunki har ikki ko'rsatkich o'zining faqat kamchiliklariga ega

1.3.33. YIM tarkibiga ...

- a) mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan nomoddiy xarajatlar kiritilmaydi
- b) mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lmagan moddiy xarajatlar kiritilmaydi
- c) mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lmagan nomoddiy xarajatlar kiritilmaydi
- d) mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moddiy xarajatlar kiritilmaydi

1.3.34. JIMning tarkibi ...

- a) ishlab chiqarish xizmatlarisiz bo'lib, ularning salmog'i yuqori darajada taraqqiy topgan jamiyatlarda jamiyat xarajatlarining 1/3 qismini tashkil etadi
- b) noishlab chiqarish xizmatlarisiz bo'lib, ularning salmog'i yuqori darajada taraqqiy topgan jamiyatlarda jamiyat xarajatlarining 1/4 qismini tashkil etadi
- c) noishlab chiqarish xizmatlarisiz bo'lib, ularning salmog'i yuqori darajada taraqqiy topgan jamiyatlarda jamiyat xarajatlarining 1/3 qismini tashkil etadi
- d) noishlab chiqarish xizmatlarisiz bo'lib, ularning salmog'i yuqori darajada taraqqiy topgan jamiyatlarda jamiyat xarajatlarining 1/2 qismini tashkil etadi

1.3.35. Taqsimlashning ko'p qadamli ekanligi inobatga olinadigan bo'lsa ...

- a) JIM ko'rsatkichining ma'lum bir kamchiliklarga ega ekanligi ma'lum bo'ladi. Chunki u takror ishlab chiqarish-

ning muhim sohasi – moddiy ishlab chiqarish sohasini o'zida to'liqroq aks ettiradi

b) JIM ko'rsatkichining ma'lum bir afzalliklarga ega ekanligi ma'lum bo'ladi. Chunki u takror ishlab chiqarishning muhim sohasi – moddiy ishlab chiqarish sohasini o'zida to'liqroq aks ettiradi

c) JIM ko'rsatkichining ma'lum bir afzalliklarga ega ekanligi ma'lum bo'ladi. Chunki u takror ishlab chiqarishning muhim sohasi – nomoddiy ishlab chiqarish sohasini o'zida to'liqroq aks ettiradi

d) JIM ko'rsatkichining ma'lum bir kamchiliklarga ega ekanligi ma'lum bo'ladi. Chunki u takror ishlab chiqarishning muhim sohasi – nomoddiy ishlab chiqarish sohasini o'zida to'liqroq aks ettiradi

1.3.36. JIM quyidagi ikki asosiy qismdan iborat ...

a) mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan ishlab chiqarish vositalarining qiymati (mehnat qurollari va mehnat predmetlari); milliy daromad (ishchi kuchi va zaruriy mahsulotning qiymati)

b) mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan ishlab chiqarish vositalarining qiymati (mehnat qurollari va mehnat vositalari); milliy daromad (ishchi kuchi va qo'shimcha mahsulotning qiymati)

c) mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan ishlab chiqarish vositalarining qiymati (mehnat qurollari va mehnat predmetlari); milliy daromad (ishchi kuchi va qo'shimcha mahsulotning qiymati)

d) mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan ishlab chiqarish vositalarining qiymati (mehnat predmetlari); milliy daromad (ishchi kuchi va qo'shimcha mahsulotning qiymati)

3.37. Ishlab chiqarishni tashkil etish uchun ...

a) davlat subsidiyalaridan foydalanish kerak. Ularning har ikkalasi ham moddiy ishlab chiqarish sohasidan chetda shakllanadi

b) davlat subsidiyalaridan yoki bank kreditidan foydala-

nish kerak. Ularning har ikkalasi ham moddiy ishlab chiqarish sohasida shakllanadi

c) davlat subsidiyalaridan yoki bank kreditidan foydalanish kerak. Ularning har ikkalasi ham nomoddiy ishlab chiqarish sohasidan chetda shakllanadi

d) davlat subsidiyalaridan yoki bank kreditidan foydalanish kerak. Ularning har ikkalasi ham moddiy ishlab chiqarish sohasidan chetda shakllanadi

1.3.38. JIMning qiymatidan sarflangan ishlab chiqarish vositalarini tiklashni (amortizatsiya ajratmalari, materiallar, xomashyo, yarimtayyor mahsulotlar sotib olish, yoqilg'i, elektroenergiyani xarid qilish ko'rinishlarida va h.k.)...

a) taqsimlash jarayonlariga kiritish mumkin emas. Bu tiklanish takror ishlab chiqarishning uzluksiz zarurligi bilan belgilanadi. Chunki usiz jamiyatning bo'lishi (amal qilishi) mumkin emas. Lekin shaklan bu JIMni taqsimlash jarayonidir

b) taqsimlash jarayonlariga kiritish mumkin. Bu tiklanish takror ishlab chiqarishning uzluksiz zarurligi bilan belgilanadi. Chunki usiz jamiyatning bo'lishi (amal qilishi) mumkin emas. Lekin shaklan bu JIMni taqsimlash jarayonidir

c) taqsimlash jarayonlariga kiritish mumkin emas. Bu tiklanish takror ishlab chiqarishning uzluksiz zarurligi bilan belgilanmaydi. Chunki usiz jamiyatning bo'lishi (amal qilishi) mumkin emas. Lekin shaklan bu JIMni taqsimlash jarayonidir

d) taqsimlash jarayonlariga kiritish mumkin. Bu tiklanish takror ishlab chiqarishning uzluksiz zarurligi bilan belgilanadi. Chunki usiz jamiyatning bo'lishi (amal qilishi) mumkin. Lekin shaklan bu JIMni taqsimlash jarayonidir

1.3.39. Agar moddiy ishlab chiqarish sohasi yagona (alohidalashgan) tizim sifatida qabul qilinsa ...

a) u holda keyingi qayta taqsimlash MDdan faqat soliqlarni to'lashga borib tugamas edi. Biroq taqsimlashning real sohasida faqat davlat (soliq tizimi orqali) ishtirok etibgina

qolmasdan, balki xizmat ko'rsatish sohasi, maorif, sog'liqni saqlash, bank tizimi va h.k.lar ham qatnashadi

b) u holda keyingi qayta taqsimlash MDdan faqat soliqlarni to'lashga borib tugar edi. Biroq taqsimlashning real sohasida faqat korxonalar (soliq tizimi orqali) ishtirok etibgina qolmasdan, balki xizmat ko'rsatish sohasi, maorif, sog'liqni saqlash, bank tizimi va h.k.lar ham qatnashadi

c) u holda keyingi qayta taqsimlash MDdan faqat soliqlarni to'lashga borib tugar edi. Biroq taqsimlashning real sohasida faqat davlat (soliq tizimi orqali) ishtirok etibgina qolmasdan, balki xizmat ko'rsatish sohasi, maorif, sog'liqni saqlash, bank tizimi va h.k.lar ham qatnashadi

d) u holda keyingi qayta taqsimlash MDdan faqat soliqlarni to'lashga borib tugamas edi. Biroq taqsimlashning real sohasida faqat davlat (soliq tizimi orqali) ishtirok etibgina qolmasdan, balki xizmat ko'rsatish sohasi, maorif, sog'liqni saqlash, bank tizimi va h.k.lar ham qatnashadi

1.3.40. Davlat o'z daromadlarini shakllantirib ...

a) ular hisobidan, xususan, byudjet sohasining xodimlariga ish haqi to'lashi shart emas

b) ular hisobidan, xususan, byudjet sohasining xodimlariga ish haqi to'laydi

c) ular hisobidan, asosan, ishlab chiqarish sohasining xodimlariga ish haqi to'laydi

d) ular hisobidan, xususan, byudjet sohasining xodimlariga ish haqi to'lamaydi

1.3.41. Byudjet sohasida ishlaydiganlar esa, o'z navbatida ...

a) davlat byudjetining daromadlarini shakllantirishga yo'naltirilgan soliqlarni to'lamaydilar

b) davlat byudjetining daromadlarini shakllantirishga yo'naltirilgan soliqlarni to'lashlari shart emas

c) davlat byudjetining daromadlarini shakllantirishga yo'naltirilgan soliqlarni to'laydilar

d) davlat byudjetining daromadlarini taqsimlashga yo'naltirilgan soliqlarni to'laydilar

1.3.42. Fuqarolar o'zlarining shaxsiy daromadlari hisobidan ...

a) turli xizmatlarning haqini to'laydilar, bank kreditidan foydalanganliklari uchun foizlarni qaytaradilar

b) turli xizmatlarning haqini to'laydilar, sug'urta fondlariga ajratmalar (badallar) qiladilar

c) turli xizmatlarning haqini to'lamaydilar, sug'urta fondlariga ajratmalar (badallar) qilmaydilar, bank kreditidan foydalanganliklari uchun foizlarni qaytarmaydilar

d) turli xizmatlarning haqini to'laydilar, sug'urta fondlariga ajratmalar (badallar) qiladilar, bank kreditidan foydalanganliklari uchun foizlarni qaytaradilar

1.3.43. Korxonalar xizmat ko'rsatib ...

a) qilgan xarajatlari hisobidan ham soliqlar to'laydilarki, ular byudjet daromadlarini shakllantirishga yo'naltiriladi

b) olgan daromadlari hisobidan ham soliqlar to'laydilarki, ular byudjet daromadlarini shakllantirishga yo'naltiriladi

c) olgan daromadlari hisobidan ham soliqlar to'laydilarki, ular byudjet xarajatlarini shakllantirishga yo'naltiriladi

d) olgan foydalari hisobidan ham soliqlar to'laydilarki, ular byudjet daromadlarini shakllantirishga yo'naltiriladi

1.3.44. Taqsimlashning tarkibiga kiruvchi barcha munosabatlar ham ...

a) moliya bo'lavermaydi. Lekin taqsimlashning chegarasidan chetda moliya mavjud emas

b) moliya bo'lavermaydi. Lekin taqsimlashning chegarasidan chetda moliya mavjud emas

c) moliya bo'lavermaydi. Lekin taqsimlashning chegarasidan chetda moliya mavjud

d) moliya bo'lavermaydi. Lekin taqsimlashning chegarasidan chetda moliya mavjud

1.3.45. JIMning ikkiga bo'linishi bilan xarakterlanadigan taqsimlashning birinchi bosqichidan so'ng uning ikkinchi bosqichi boshlanadiki, unga muvofiq MD ...

a) jamg'arish fondi va amortizatsiya fondiga bo'linadi

b) renovatsiya fondi va iste'mol fondiga bo'linadi

- c) jamg'arish fondi va iste'mol fondiga bo'linadi
- d) jamg'arish fondi va tiklanish fondiga bo'linadi

1.3.46. Jamg'arish fondi ikki qismdan iborat bo'lib ...

a) uning bir qismi takror ishlab chiqarishni ta'minlash, ikkinchi qismi esa rezerv fondlarini shakllantirishga mo'ljallanganidir

b) uning bir qismi takror ishlab chiqarishni kengaytirish, ikkinchi qismi esa rezerv fondlarini shakllantirishga mo'ljallanganidir

c) uning bir qismi takror ishlab chiqarishni kengaytirish, ikkinchi qismi esa rezerv fondlarini sarflashga mo'ljallanganidir

d) uning bir qismi ishlab chiqarishni kengaytirish, ikkinchi qismi esa rezerv fondlarini shakllantirishga mo'ljallanganidir

1.3.47. Taqsimlash bosqichida moliyaning ishtiroki ...

a) iqtisodiyotga davlat qo'yilmalarini joylashtirish (kiritish), davlat rezervlarini sarflash va sug'urta fondlarini tashkil qilish orqali namoyon bo'ladi

b) iqtisodiyotga davlat qo'yilmalarini joylashtirish (kiritish), davlat rezervlarini shakllantirish va sug'urta fondlarini sarflash orqali namoyon bo'ladi

c) iqtisodiyotga davlat qo'yilmalarini joylashtirish (kiritish), davlat rezervlarini shakllantirish va sug'urta fondlarini tashkil qilish orqali namoyon bo'ladi

d) iqtisodiyotga davlat qo'yilmalarini joylashtirish (kiritish) orqali emas, balki davlat rezervlarini shakllantirish va sug'urta fondlarini tashkil qilish orqali namoyon bo'ladi

1.3.48. Barcha daromad va xarajatlar ...

a) yil oxirida tasdiqlangan byudjet doirasi (chegarasi)da amalga oshiriladi

b) yil boshida tasdiqlanmagan byudjet doirasi (chegarasi)da amalga oshiriladi

c) yil boshida tasdiqlangan byudjet doirasi (chegarasi)dan chetga chiqib amalga oshiriladi

d) yil boshida tasdiqlangan byudjet doirasi (chegarasi)da amalga oshiriladi

1.3.49. Barcha rivojlangan (sivilizatsiyali) mamlakatlarda byudjet...

a) qonun kuchiga ega bo'lib, bu narsa taqsimlash jarayonining qonuniyatlarini o'rganayotgan paytda daromad va xarajatlarning ketma-ketligiga e'tibor berishga imkon beradi

b) qonun kuchiga ega bo'lib, bu narsa taqsimlash jarayonining qonuniyatlarini o'rganayotgan paytda daromad va xarajatlarning ketma-ketligiga e'tibor bermaslikka imkon beradi

c) qonun kuchiga ega bo'lmasdan, bu narsa taqsimlash jarayonining qonuniyatlarini o'rganayotgan paytda daromad va xarajatlarning ketma-ketligiga e'tibor bermaslikka imkon beradi

d) qonun kuchiga ega bo'lmasdan, bu narsa taqsimlash jarayonining qonuniyatlarini o'rganayotgan paytda daromad va xarajatlarning ketma-ketligiga e'tibor berishga imkon beradi

1.3.50. Ko'pchilik hollarda amaliyotda ...

a) daromadlardan xarajatlarning keyinroq amalga oshirishi sodir bo'ladi (daromadlar shakllantirilmasdanoq xarajatlarni sarflash zarurati vujudga keladi)

b) daromadlardan xarajatlarning oldinroq amalga oshirishi sodir bo'ladi (daromadlar shakllantirilganidan so'ng xarajatlarni sarflash zarurati vujudga keladi)

c) daromadlardan xarajatlarning oldinroq amalga oshirishi sodir bo'ladi (daromadlar shakllantirilmasdanoq xarajatlarni sarflash zarurati vujudga keladi)

d) daromadlar va xarajatlarning baravar amalga oshirishi sodir bo'ladi (daromadlar shakllantirilmasdanoq xarajatlarni sarflash zarurati vujudga keladi)

1.3.51. Daromad va xarajatlarning muddatlari bo'yicha nomuvofiqlikni oldini olish uchun (yoki shu muammoni hal etish uchun)...

a) davlat krediti mexanizmidan foydalaniladi

b) davlat byudjeti mexanizmidan foydalaniladi

c) soliq mexanizmidan foydalaniladi

d) bozor mexanizmidan foydalaniladi

1.3.52. Jamg'arish fondi va iste'mol fondi o'rtasidagi nisbat...

b) davlatning tartibga soluvchi rolidan voz kechsa-da, lekin uning iqtisodiyotga va sotsial sohaga aralashuvi darajasini biroz chekladi. Amalda davlatning aralashuvi biroz susaydi. Chunki bunday aralashuv endilikda faqat davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari orqali amalga oshirilib qolmasdan, balki pul muomalasi, valyuta kursi, ssuda kapitallari va qimmatli qog'ozlar bozorini ham tartibga solish orqali sodir etildi. Buning natijasida davlatning ta'sir doirasi kengaydi va kapitallar oqimida uning roli kuchaydi. Bularning barchasi taraqqiyotning qayta qurilish tuzilmasiga va sotsial omillariga o'zining ta'sirini ko'rsatolmadi

c) davlatning tartibga soluvchi rolidan voz kechmasa-da, lekin uning iqtisodiyotga va sotsial sohaga aralashuvi daraja-

sini biroz chekladi. Amalda esa davlatning aralashuvi kamaymadi, aksincha, biroz kuchaydi. Chunki bunday aralashuv endilikda faqat davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari orqali amalga oshirilib qolmasdan, balki pul muomalasi, valyuta kursi, ssuda kapitallari va qimmatli qog'ozlar bozorini ham tartibga solish orqali sodir etildi. Buning natijasida davlatning ta'sir doirasi kengaydi va kapitallar oqimida uning roli kuchaydi. Bularning barchasi taraqqiyotning qayta qurilish tuzilmasiga va sotsial omillariga o'zining ta'sirini ko'rsatdi.

d) davlatning tartibga soluvchi rolidan voz kechmasa-da, lekin uning iqtisodiyotga va sotsial sohaga aralashuvi darajasini biroz chekladi. Amalda esa davlatning aralashuvi kamaymadi, aksincha, biroz kuchaydi. Chunki bunday aralashuv endilikda faqat davlat byudjetining daromadlari orqali amalga oshirilib qolmasdan, balki pul muomalasi, valyuta kursi, ssuda kapitallari va qimmatli qog'ozlar bozorini ham tartibga solish orqali sodir etildi. Buning natijasida davlatning ta'sir doirasi toraydi va kapitallar oqimida uning roli susaydi. Bularning barchasi taraqqiyotning qayta qurilish tuzilmasiga va sotsial omillariga o'zining ta'sirini ko'rsatolmadi.

2.1.54. Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlarning moliyaviy siyosati zamonaviy nazariyalar ostida bo'lib, bu nazariyalar...

a) amalda tartibga solish ikki tizimining konvergensiyasi (qo'shib ketganligi, aralashuvi)dan iborat emas. Shunga muvofiq ravishda ayrim davlatlar davlat tomonidan tartibga solish faqat keynschilik va faqat neokeynschilik tizimining turli-tuman elementlaridan foydalanadilar.

b) amalda tartibga solish ikki tizimining konvergensiyasi (qo'shib ketganligi, aralashuvi)dan iborat. Shunga muvofiq ravishda ayrim davlatlar davlat tomonidan tartibga solish ham keynschilik, ham neokeynschilik tizimining turli-tuman elementlaridan foydalanadilar.

c) amalda tartibga solish ikki tizimining konvergensiyasi (qo'shib ketganligi, aralashuvi)dan iborat. Shunga muvofiq ravishda ayrim davlatlar davlat tomonidan tartibga solish

faqat keynschilik tizimining turli-tuman elementlaridan foydalanadilar

d) amalda tartibga solish ikki tizimining konvergensiya-si (qo'shilib ketganligi, aralashuvi)dan iborat emas. Shunga muvofiq ravishda ayrim davlatlar davlat tomonidan tartibga solish neokeynschilik tizimining turli-tuman elementlaridan foydalanadilar

2.1.55. Sho'rolar davlatida va sotsialistik orientatsiyada (yo'nalishda) bo'lgan barcha mamlakatlarda moliyaviy siyosat...

a) K.Marks (1818 – 1881) va V.I.Leninning (1870 – 1924) nazariy konsepsiyalari ta'sirida shakllandi. Sotsialistik davlatning mohiyati va funksiyalari haqidagi markscha-lenincha nazariya Sho'rolar davlati moliyaviy siyosatining asosiy prinsipini – moliyaviy markazlashtirishni – belgilab bergan edi

b) K.Marks (1818 – 1881) va V.I.Leninning (1870 – 1924) amaliy konsepsiyalari ta'sirida shakllandi. Sotsialistik davlatning mohiyati va funksiyalari haqidagi markscha-lenincha amaliyot Sho'rolar davlati moliyaviy siyosatining asosiy prinsipini – moliyaviy markazlashtirishni – belgilab bergan edi

c) faqat K.Marks (1818 – 1881) va V.I.Leninning (1870 – 1924) nazariy konsepsiyalari ta'sirida shakllanmagan edi. Sotsialistik davlatning mohiyati va funksiyalari haqidagi markscha-lenincha nazariya Sho'rolar davlati moliyaviy siyosatining asosiy prinsipini – moliyaviy nomarkazlashtirishni – belgilab bergan edi

d) faqat K.Marks (1818 – 1881) va V.I.Leninning (1870 – 1924) nazariy konsepsiyalari ta'sirida shakllangan edi. Sotsialistik davlatning mohiyati va funksiyalari haqidagi markscha-lenincha nazariya Sho'rolar davlati moliyaviy siyosatining asosiy prinsipini – moliyaviy nomarkazlashtirishni – belgilab bergan edi

2.1.56. Sho'rolar davlati iqtisodiyot va sotsial soha-ning ehtiyojlarini...

a) byudjetdan qisman moliyalashtirgan edi

b) byudjetdan to'liq moliyalashtirgan edi

c) korxonalar hisobidan to'liq moliyalashtirgan edi

d) kredit hisobidan to'liq moliyalashtirgan edi

2.1.57. Moliyaviy markazlashtirish yana shunda namoyon bo'ladiki...

a) davlat bevosita va ixtiyoriy ravishda baholarni shakllantirish, pul muomalasi, hisob-kitoblar tizimi va kredit munosabatlarini ham tartibga soladi

b) davlat bilvosita va monopoliy ravishda baholarni shakllantirish, pul muomalasi, hisob-kitoblar tizimi va kredit munosabatlarini ham tartibga soladi

c) davlat bilvosita va ixtiyoriy ravishda baholarni shakllantirish, pul muomalasi, hisob-kitoblar tizimi va kredit munosabatlarini ham tartibga soladi

d) davlat bevosita va monopoliy ravishda baholarni shakllantirish, pul muomalasi, hisob-kitoblar tizimi va kredit munosabatlarini ham tartibga soladi

2.1.58. Sho'rolar davridagi moliyaviy siyosat ma'lum ma'noda...

a) bir iqtisodiy munosabatlar tizimidan insoniyat tarixi uchun mutlaqo yangi bo'lgan ikkinchi ijtimoiy munosabatlar tizimiga o'tilishini, Sho'rolar davlati oldida turmagan va faoliyatining turli bosqichlarida vujudga kelgan sotsial-iqtisodiy muammolarning yechilishini kafolatlagan edi

b) bir ijtimoiy munosabatlar tizimidan insoniyat tarixi uchun mutlaqo yangi bo'lgan ikkinchi iqtisodiy munosabatlar tizimiga o'tilishini, Sho'rolar davlati oldida turgan va faoliyatining turli bosqichlarida vujudga kelmagan sotsial-iqtisodiy muammolarning yechilishini kafolatlagan edi

c) bir ijtimoiy munosabatlar tizimidan insoniyat tarixi uchun mutlaqo yangi bo'lgan ikkinchi ijtimoiy munosabatlar tizimiga o'tilishini, Sho'rolar davlati oldida turgan va faoliyatining turli bosqichlarida vujudga kelgan sotsial-iqtisodiy muammolarning yechilishini kafolatlagan edi

d) bir ijtimoiy munosabatlar tizimidan insoniyat tarixi uchun mutlaqo yangi bo'lgan ikkinchi ijtimoiy munosabatlar tizimiga o'tilishini, Sho'rolar davlati oldida turgan va

faoliyatining turli bosqichlarida vujudga kelgan sotsial-iqtisodiy muammolarning yechilishini kafolatlamagan edi

2.1.59. Sho'rolar davridagi moliyaviy siyosatni ma'lum ma'noda ...

a) yetarli darajada samarali bo'lgan moliyaviy siyosat deyish mumkin emas. Chunki chor Rossiyasidan, fuqarolar urushidan, chet el harbiy intervensiyasidan meros bo'lib qolgan favquloddagi murakkab moliyaviy vaziyatga qaramasdan fashistlar Germaniyasi bilan urush arafasida Sho'rolar davlati yetarli darajada kuchli iqtisodiy salohiyatni yaratishga muvaffaq bo'ldi, urushda g'alaba qozondi va qiyosiy qisqa muddatlarda urushdan vayron bo'lgan xalq xo'jaligini tikladi

b) yetarli darajada samarali bo'lgan moliyaviy siyosat deyish mumkin. Chunki chor Rossiyasidan, fuqarolar urushidan, chet el harbiy intervensiyasidan meros bo'lib qolgan favquloddagi murakkab moliyaviy vaziyatga qaramasdan fashistlar Germaniyasi bilan urush arafasida Sho'rolar davlati yetarli darajada kuchli iqtisodiy salohiyatni yaratishga muvaffaq bo'ldi, urushda g'alaba qozondi va qiyosiy qisqa muddatlarda urushdan vayron bo'lgan xalq xo'jaligini tikladi

c) yetarli darajada samarali bo'lgan moliyaviy siyosat deyish mumkin emas. Chunki chor Rossiyasidan, fuqarolar urushidan, chet el harbiy intervensiyasidan meros bo'lib qolgan favquloddagi oddiy moliyaviy vaziyatga qaramasdan fashistlar Germaniyasi bilan urush arafasida Sho'rolar davlati yetarli darajada kuchli iqtisodiy salohiyatni yaratishga muvaffaq bo'lolmadi, urushda g'alaba qozonsa-da, qiyosiy qisqa muddatlarda urushdan vayron bo'lgan xalq xo'jaligini tiklay olmadi

d) yetarli bo'lgan moliyaviy siyosat deyish mumkin. Chunki chor Rossiyasidan, fuqarolar urushidan, chet el harbiy intervensiyasidan meros bo'lib qolgan favquloddagi murakkab moliyaviy vaziyatga qaramasdan fashistlar Germaniyasi bilan urush arafasida Sho'rolar davlati yetarli darajada kuchli iqtisodiy salohiyatni yaratishga muvaffaq bo'lolmasa-da, urushda g'alaba qozondi va qiyosiy qisqa muddatlarda urushdan vayron bo'lgan xalq xo'jaligini tikladi

2.1.60. II jahon urushidan keyingi yillarda Sho'rolar davlatining moliyaviy siyosati ...

a) g'arb mamlakatlari, eng avvalo, AQSh bilan qurollanish poygasi va kosmosni rivojlantirishdagi musobaqani (raqobatni) moliyaviy jihatdan ta'minlashga qaratildi

b) sharq mamlakatlari, shuningdek, Yaponiya bilan qurollanish poygasi va kosmosni rivojlantirishdagi musobaqani (raqobatni) moliyaviy jihatdan ta'minlashga qaratildi

c) g'arb mamlakatlari, eng avvalo, AQSh bilan qurollanish poygasi va kosmosni rivojlantirishdagi musobaqani (raqobatni) iqtisodiy va g'oyaviy jihatdan ta'minlashga qaratildi

d) sharq mamlakatlari, shuningdek, Yaponiya bilan qurollanish poygasi va kosmosni rivojlantirishdagi musobaqani (raqobatni) moddiy jihatdan ta'minlashga qaratildi

2.1.61. Sho'rolardavlati tomonidan sotsialistik lager mamlakatlariga qanday yo'nalishlarda juda katta miqdordagi moliyaviy yordamlar ko'rsatildi?

a) ularning taraqqiyotida sotsialistik oriyentatsiya (yo'nalish)ni ta'minlash yo'nalishida

b) sotsialistik mamlakatlarni sanoati rivojlangan mamlakatlarga aylantirish yo'nalishida

c) kuchli harbiy ittifoqchilarni shakllantirish, umuman, mudofaa qobiliyatini mustahkamlash yo'nalishida

d) barcha javoblar to'g'ri

2.1.62. Sho'rolar davlati tomonidan belgilangan maqsadlar nuqtayi nazaridan urushdan keyingi davrning moliya siyosati va uni amalga oshirish choralari ...

a) nosamarali deb aytish mumkin emas

b) nosamarali deb aytish unchalik to'g'ri bo'lmaydi

c) samarali deb aytish unchalik to'g'ri bo'lmaydi

d) samarali deb aytish mumkin emas

2.1.63. Moliyaviy siyosatni ishlab chiqishda moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlashning negizida quyidagilarning yotishi prinsipial ahamiyatga egadir ...

a) taqsimlash munosabatlarining subyektlarini tanlash, ya'ni moliyaviy resurslarning egalari va taqsimlovchilarini tanlash

b) yuridik shaxslar va aholining o'z ehtiyojlarini qondirishdagi mustaqillik darajasi va davlatning funksiyalariga bog'liq ravishda davlat ixtiyoridagi moliyaviy resurslarning markazlashtirilish darajasini aniqlash

c) birinchi darajali ijtimoiy ehtiyojlar va ularni qondirish choralarini aniqlash va shularga mos ravishda moliyaviy resurslardan foydalanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash

d) yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda yana moliyaviy resurslarni shakllantirishning manbalari va metodlarini tashlash

2.1.64. Moliyaviy siyosat ko'p o'lchamli tushuncha hisoblanadi. Agar umumiy holda ...

a) uning sohasi davlat taraqqiyotining alohida bosqichlarida hukmronlik qilgan nazariy konsepsiyalardan kelib chiqqan holda iqtisodiy va sotsial sohalarni boshqarishda davlatning ishtirok etish parametrlari bilan aniqlansa, uning qiymat munosabatlarining elementlari bo'yicha differentsiatsiya qilinishi (tabaqalanishi) moliya tizimining rivojlanganligiga va uning ayrim (alohida) bo'g'inlarining bo'ysunuvchanligiga bog'liq bo'ladi

b) uning sohasi jamiyat taraqqiyotining alohida bosqichlarida hukmronlik qilgan nazariy konsepsiyalardan kelib chiqqan holda iqtisodiy va sotsial sohalarni boshqarishda davlatning ishtirok etish parametrlari bilan aniqlansa, uning qiymat munosabatlarining elementlari bo'yicha differentsiatsiya qilinishi (tabaqalanishi) moliya tizimining rivojlanganligiga va uning ayrim (alohida) bo'g'inlarining mustaqilligiga bog'liq bo'ladi

c) uning sohasi jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida hukmronlik qilgan amaliy konsepsiyalardan kelib chiqqan holda iqtisodiy va sotsial sohalarni boshqarishda davlatning ishtirok etish parametrlari bilan aniqlansa, uning qiymat munosabatlarining elementlari bo'yicha differentsiatsiya qilinishi (tabaqalanishi) moliya tizimining rivojlanganligiga va uning ayrim (alohida) bo'g'inlarining mustaqilligiga bog'liq bo'ladi

d) uning sohasi jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida hukmronlik qilgan amaliy konsepsiyalardan kelib chiqqan holda iqtisodiy va sotsial sohalarni boshqarishda davlatning ishtirok etmaslik parametrlari bilan aniqlansa, uning qiymat munosabatlarining elementlari bo'yicha differentsiat-siya qilinishi (tabaqalanishi) moliya tizimining rivojlanganligiga va uning ayrim (alohida) bo'g'inlarining bo'ysunuvchanligiga bog'liq bo'ladi

2.2. MOLIYAVIY SIYOSATNING TARKIBIY QISM (YO'NALISH)LARI

2.2.1. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qism (yo'nalish) lari quyidagilardan iborat ...

- a) byudjet siyosati; soliq siyosati
- b) pul siyosati; kredit siyosati; baho siyosati
- c) investitsion siyosat; sotsial moliyaviy siyosat; boj siyosati
- d) yuqoridagilarning barchasi moliyaviy siyosatning tarkibiy qism (yo'nalish)lari hisoblanadi

2.2.2. Moliyaviy siyosat ...

- a) davlat iqtisodiy siyosatini amalga oshirishning vositasi hisoblanadi va shu ma'noda unga nisbatan yordamchi rolni o'ynaydi
- b) davlat iqtisodiy va sotsial siyosatini amalga oshirishning vositasi hisoblanadi va shu ma'noda unga nisbatan yordamchi rolni o'ynaydi
- c) davlat sotsial siyosatini amalga oshirishning vositasi hisoblanadi va shu ma'noda unga nisbatan asosiy rolni o'ynaydi
- d) davlat iqtisodiy va sotsial siyosatini amalga oshirishning vositasi hisoblanadi va shu ma'noda unga nisbatan asosiy rolni o'ynaydi

2.2.3. Moliyaviy siyosat ...

- a) moliyaviy boshqaruvning tarkibiy qismi sifatida boshqaruvning yuqori (oliy) organlariga tegishlidir

b) moliyaviy boshqaruvning tarkibiy qismi sifatida boshqaruvning quyi organlariga tegishlidir

c) umumiy boshqaruvning tarkibiy qismi sifatida boshqaruvning yuqori (oliy) organlariga tegishlidir

d) mamlakat boshqaruvining tarkibiy qismi sifatida boshqaruvning quyi organlariga tegishlidir

2.2.4. Mamlakatning subyektlari darajasida moliyaviy siyosat borasida qarorlarning qabul qilinish imkoniyatlari...

a) cheklanmagan va mahalliy hokimiyat organlarining funksiyalari ancha katta. Ularning bu funksiyalari byudjet va mahalliy soliqlargacha borib yetadi

b) cheklanmagan va mahalliy hokimiyat organlarining funksiyalari ancha katta. Ularning bu funksiyalari davlat byudjeti va umumdavlat soliqlari bilan chegaralanadi

c) cheklangan va mahalliy hokimiyat organlarining funksiyalari unchalik katta emas. Ularning bu funksiyalari byudjet va mahalliy soliqlar bilan chegaralanadi

d) cheklanmagan, shunday bo'lishiga qaramasdan, mahalliy hokimiyat organlarining funksiyalari unchalik katta emas. Ularning bu funksiyalari byudjet va mahalliy soliqlar bilan chegaralanmaydi

2.2.5. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi (yo'nalishi) sifatida davlatning byudjet siyosati, eng avvalo ...

a) har bir mamlakatning Konstitutsiyasi va byudjet jarayonida hamda qonun ijodkorligida alohida hokimiyat organlarining funksiyalarini belgilovchi boshqa qonunlar majmuyiga muvofiq aniqlanadi

b) har bir mamlakatning Konstitutsiyasi va qonun ijodkorligida alohida hokimiyat organlarining funksiyalarini belgilovchi boshqa qonunlar majmuyiga muvofiq aniqlanadi

c) har bir mamlakatning byudjet jarayonida va qonun ijodkorligida alohida hokimiyat organlarining funksiyalarini belgilovchi boshqa qonunlar majmuyiga muvofiq aniqlanadi

d) har bir mamlakatning Konstitutsiyasi va byudjet jarayonida alohida hokimiyat organlarining funksiyalarini belgilovchi boshqa qonunlar majmuyiga muvofiq aniqlanadi

2.2.6. O'zining hajmi va muhimligi jihatidan eng katta ish bo'lishiga qaramasdan, byudjet siyosatini...

a) faqat byudjet jarayoniga tegishli deb hisoblash maqsadga muvofiq

b) faqat byudjet tizimiga tegishli deb hisoblash maqsadga muvofiq emas

c) faqat byudjet jarayoniga tegishli deb hisoblash maqsadga muvofiq emas

d) faqat byudjet tizimiga tegishli deb hisoblash maqsadga muvofiq

2.2.7. Qonun byudjet jarayonida ...

a) hokimiyatning qonunchilik va ijroiya organlari funksiyalarini, mamlakat subyektlari funksiyalarini, byudjet tuzilishi prinsiplarini, byudjet jarayoni subyektlarining huquq va majburiyatlarini va h.k.larni aniq belgilashi kerak. Biroq byudjet siyosati shu bilan cheklanmaydi

b) hokimiyatning qonunchilik va ijroiya organlari funksiyalarini, mamlakat subyektlari funksiyalarini, byudjet tuzilishi prinsiplarini, byudjet jarayoni subyektlarining huquq va majburiyatlarini va h.k.larni aniq belgilashi kerak. Afsuski, byudjet siyosati shu bilan cheklanishi zarur

c) hokimiyatning qonunchilik organi funksiyalarini, mamlakat obyektlari funksiyalarini, byudjet tuzilishi prinsiplarini, byudjet jarayoni subyektlarining huquq va majburiyatlarini va h.k.larni aniq belgilashi kerak. Biroq byudjet siyosati shu bilan cheklanmaydi

d) hokimiyatning ijroiya organlari funksiyalarini, mamlakat subyektlari funksiyalarini, byudjet tuzilishi prinsiplarini, byudjet jarayoni obyektlarining huquq va majburiyatlarini va h.k.larni aniq belgilashi kerak. Afsuski, byudjet siyosati shu bilan cheklanadi

2.2.8. Byudjet siyosati ...

a) byudjetda konsentratsiya qilinadigan (to'planadigan) YIM hissasini aniqlash, mamlakat yuqori va quyi organlarining o'zaro munosabatlari orqali ifodalanadi

b) byudjet xarajatlar qismining tarkibiy tuzilishi, turli da-

rajadagi byudjetlar o'rtasida xarajatlarni taqsimlash orqali ifodalanadi

c) davlat qarzini boshqarish, byudjet defitsitini qoplash yo'llarini aniqlash orqali ifodalanadi

d) yuqoridagi javoblarning barchasi birgalikda olib qaralsa, javob to'g'ri bo'ladi

2.2.9. Demokratik davlatda byudjet...

a) qonun tarzida tasdiqlanadigan hujjat hisoblanmaydi. Unda davlatning o'z funksiyalarini bajarish maqsadida davlat qo'lida konsentratsiya qilingan (to'plangan) pul mablag'larining harakati o'z ifodasini topadi

b) qonun tarzida tasdiqlanadigan hujjat hisoblanadi. Unda davlatning o'z funksiyalarini bajarish maqsadida davlat qo'lida konsentratsiya qilingan (to'plangan) pul mablag'larining harakati o'z ifodasini topadi

c) ...ning qonun tarzida tasdiqlanadigan hujjat bo'lishi prinsipial ahamiyatga ega emas. Unda davlatning o'z funksiyalarini bajarish maqsadida davlat qo'lida konsentratsiya qilingan (to'plangan) pul mablag'larining harakati o'z ifodasini topadi

d) qonun tarzida tasdiqlanadigan hujjat bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Unda davlatning o'z funksiyalarini bajarish maqsadida davlat qo'lida konsentratsiya qilingan (to'plangan) pul mablag'larining harakati o'z ifodasini topadi

2.2.10. Byudjet siyosatining ustuvorligini...

a) davlat siyosati aniqlab beradigan maqsadlarga erishish uchun pul resurslarini yo'naltirish tashkil etadi

b) davlat siyosati aniqlab beradigan maqsadlarga erishish uchun pul resurslarini shakllantirish tashkil etadi

c) davlat siyosati aniqlab beradigan maqsadlarga erishish uchun pul resurslarini iqtisod qilish tashkil etadi

d) davlat siyosati aniqlab beradigan maqsadlarga erishish uchun pul resurslarini ko'paytirish tashkil etadi

2.2.11. Agar maqsadga erishish milliy iqtisodiyot ta'minlaydigan mablag'lardan ko'p mablag' talab etsa, davlat qo'shimcha daromadlarni shakllantirishning

**quyidagi favquloddagi usulini qo'llashga majbur bo'la-
di...**

- a) ichki va tashqi kreditlar
- b) milliy boylikni sotish
- c) boylik va mol-mulkni ijaraga berish va konsessiyalar
- d) barcha javoblar to'g'ri

**2.2.12. Byudjet daromadlar qismini to'ldirishning fav-
qulodda choralari...**

a) iqtisodiy mustaqillikning yo'qolishiga olib kelishi mum-
kin. Buni hisobga olgan holda hokimiyatning qonunchilik or-
ganlari qarz olishning chegarasini oldindan belgilamaydi

b) iqtisodiy mustaqillikning yo'qolishiga olib kelishi mum-
kin. Buni hisobga olgan holda hokimiyatning qonunchilik or-
ganlari qarz olishning chegarasini oldindan belgilaydi

c) iqtisodiy mustaqillikning yo'qolishiga olib kelmaydi.
Buni hisobga olgan holda hokimiyatning qonunchilik organ-
lari qarz olishning chegarasini oldindan belgilaydi

d) iqtisodiy mustaqillikning yo'qolishiga olib kelmaydi.
Buni hisobga olgan holda hokimiyatning qonunchilik organ-
lari qarz olishning chegarasini oldindan belgilamaydi

2.2.13. Soliqlarsiz ...

- a) davlat faoliyat ko'rsatishi mumkin
- b) davlatning faoliyat ko'rsatishi tabiiy hol
- c) davlat faoliyat ko'rsatishi mumkin emas
- d) davlat faoliyat ko'rsataveradi

2.2.14. Soliqli undirish ...

- a) qat'iy o'sish tendensiyasiga ega
- b) qat'iy o'sish tendensiyasiga ega emas
- c) qat'iy pasayish tendensiyasiga ega
- d) qat'iy pasayish tendensiyasiga ega emas

2.2.15. Oqilona soliq ostonasidan o'tilganidan so'ng...

a) oddiy takror ishlab chiqarish jarayoni buziladi – iqti-
sodiyotning o'z-o'zidan buzilishi (yemirilishi) sodir bo'ladi

b) kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoni buzil-
maydi – iqtisodiyotning o'z-o'zidan buzilishi (yemirilishi) sodir
bo'lmaydi

c) tabiiy takror ishlab chiqarish jarayoni buziladi – iqtisodiyotning o‘z-o‘zidan buzilishi (yemirilishi) sodir bo‘ladi

d) ijobiy takror ishlab chiqarish jarayoni sodir bo‘ladi, iqtisodiyot o‘z-o‘zidan buziladi

2.2.16. Tanazzul davrida soliqlar imkon qadar ...

a) minimal darajada o‘rnatilmog‘i lozim. Buning natijasida mamlakatning iqtisodiy mexanizmi tashqi investitsion salohiyatni safarbar etish hisobidan tiklanadi

b) minimal darajada o‘rnatilmog‘i lozim. Buning natijasida mamlakatning iqtisodiy mexanizmi ichki investitsion salohiyatni safarbar etish hisobidan tiklanadi

c) maksimal darajada o‘rnatilmog‘i lozim. Buning natijasida mamlakatning iqtisodiy mexanizmi ichki investitsion salohiyatni safarbar etish hisobidan tiklanadi

d) maksimal darajada o‘rnatilmog‘i lozim. Buning natijasida mamlakatning iqtisodiy mexanizmi tashqi investitsion salohiyatni safarbar etish hisobidan tiklanadi

2.2.17. Soliqlarning yuqori ostonasi ...

a) kapitalning chetga chiqib ketishiga olib keladi

b) kapitalning chetdan kirib kelishiga olib keladi

c) kapitalning samaradorligini oshiradi

d) kapitalning holatiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmaydi

2.2.18. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish kerak, albatta. Biroq summar o‘lchovlarda sof daromadning 30% dan ortiq qismining undirilishida ...

a) odatda, mamlakatning iqtisodiy o‘sishi to‘xtamaydi

b) odatda, mamlakatning iqtisodiy o‘sishi o‘zgarishsiz qoladi

c) mamlakatning iqtisodiy o‘sishi to‘xtaydi

d) mamlakatning iqtisodiy o‘sishi jadallashadi

2.2.19. Soliq imtiyozlari ...

a) ochiqlik xarakteriga ega bo‘lishi va barcha takror ishlab chiqarish subyektlari uchun teng bo‘lishi kerak

b) ochiqlik xarakteriga ega bo‘lishi va barcha takror ishlab chiqarish subyektlari uchun noteng bo‘lishi kerak

c) yopiqlik xarakteriga ega bo‘lishi va barcha takror ishlab chiqarish subyektlari uchun teng bo‘lishi kerak

d) yopiqlik xarakteriga ega bo'lishi va barcha takror ishlab chiqarish subyektlari uchun noteng bo'lishi kerak.

2.2.20. Soliq tizimi ...

- a) konfiskatsion xarakterga ega bo'lishi lozim
- b) konfiskatsion xarakterga ega bo'lmasligi lozim
- c) uchun konfiskatsion xarakterga ega bo'lish yoki bo'lmaslik prinsipial ahamiyatga ega emas
- d) barcha javoblar noto'g'ri

2.2.21. Faqat, jumladan, individual daromadlarning o'sishida ifodalangan ...

- a) milliy boylikning kamayishi soliqqa tortiladigan baza (asos)ning barqaror o'sishini ta'minlashi mumkin
- b) milliy boylikning o'sishi soliqqa tortiladigan baza (asos)ning barqarorligini ta'minlashi mumkin
- c) milliy boylikning o'sishi soliqqa tortiladigan baza (asos)ning barqaror pasayishi ta'minlashi mumkin
- d) milliy boylikning o'sishi soliqqa tortiladigan baza (asos)ning barqaror o'sishini ta'minlashi mumkin

2.2.22. Qonunlar va qoidalarning barqarorligini davlat kafolatlagan iqtisodiy tizimda ...

- a) soliqlarning summar o'lchovi beqaror pasayish tendensiyasiga ega bo'ladi
- b) soliqlarning summar o'lchovi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'ladi
- c) soliqlarning summar o'lchovi beqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'ladi
- d) soliqlarning summar o'lchovi o'sish tendensiyasiga ega bo'ladi

2.2.23. Barqarorlik kafolati sifatida davlat o'zining majburiyatlarini buzishni boshladimi ...

- a) kapital xufyona iqtisodiyotga yoki xorijga o'tmasa-da, byudjetning daromadlar bazasi (asosi)ni qisqartiraveradi
- b) kapital xufyona iqtisodiyotga yoki xorijga o'tmasdan, byudjetning daromadlar bazasi (asosi)ni kengaytiraveradi
- c) kapital xufyona iqtisodiyotga yoki xorijga o'tishni boshlab, byudjetning daromadlar bazasi (asosi)ni qisqartiraveradi

d) kapital xufyona iqtisodiyotga yoki xorijga o'tishni boshlab, byudjetning daromadlar bazasi (asosi)ni kengaytiraveradi

2.2.24. Soliq tizimi...

- a) o'rtacha, ochiq va samarali bo'lmog'i lozim
- b) oddiy, ochiq va samarali bo'lmog'i lozim
- c) oddiy, lekin yopiq va samaraliroq bo'lmog'i lozim
- d) murakkab, lekin ochiq va samarali bo'lmog'i lozim

2.2.25. Soliqlar sonini, soliqlarga tortish obyektlarini ko'paytirish, ko'p bosqichli soliqlarni joriy etish...

a) soliqlarni undirish bo'yicha xarajatlarning ortishiga, boqimanda va jarimalarning o'sishiga va pirovardida mulkni qamoqqa olish, soliq to'lovchini kasod deb e'lon qilish va h.k. yo'llar orqali iqtisodiyotning yemirilishiga olib keladi

b) soliqlarni undirish bo'yicha xarajatlarning kamayishiga, boqimanda va jarimalarning o'sishiga va pirovardida mulkni qamoqqa olish, soliq to'lovchini kasod deb e'lon qilish va h.k. yo'llar orqali iqtisodiyotning yemirilishiga olib keladi

c) soliqlarni undirish bo'yicha xarajatlarning ortishiga, boqimanda va jarimalarning kamayishiga va pirovardida mulkni qamoqqa olish, soliq to'lovchini kasod deb e'lon qilish va h.k. yo'llar orqali iqtisodiyotning yemirilishiga olib keladi

d) soliqlarni undirish bo'yicha xarajatlarning ortishiga, boqimanda va jarimalarning o'sishiga va pirovardida mulkni qamoqqa olmaslik, soliq to'lovchini kasod deb e'lon qilmaslik va h.k. yo'llar orqali iqtisodiyotning yemirilishiga olib keladi

2.2.26. Soliqlarga tortish egri (bilvosita) tizimining ustuvorligi byudjet daromadlarini shakllantirish nuqtayi nazaridan qulay hisoblanadi. Lekin bu narsa oxir-oqibatda ...

a) mamlakat aholisi asosiy qismi ahvolining yaxshilanishiga olib keladi. Chunki bunday soliqlarning yuki tovarlar va xizmatlarning oraliq iste'molchisi gardani (zimmasi)ga, ya'ni yashash minimumi darajasida yoki sotsial tirikchilik darajasida daromadga ega aholining 80 - 90% qismiga yuklanadi. Bu paradoks daromadlarning turli darajalarida iste'molning nisbatan bir xil darajasiga asoslangan

b) mamlakat aholisi asosiy qismi ahvolining o'zgarasligiga olib keladi. Chunki bunday soliqlarning yuki tovarlar va xizmatlarning yakuniy (oxirgi) iste'molchisi gardani (zimmasi)ga, ya'ni yashash minimumi darajasida yoki sotsial tirikchilik darajasida daromadga ega aholining 80 – 90% qismiga yuklanadi. Bu paradoks daromadlarning turli darajalarida iste'molning nisbatan har xil darajasiga asoslangan

c) mamlakat aholisi asosiy qismining qashshoqlanishiga olib keladi. Chunki bunday soliqlarning yuki tovarlar va xizmatlarning yakuniy (oxirgi) iste'molchisi gardani (zimmasi)ga, ya'ni yashash minimumi darajasida yoki sotsial tirikchilik darajasida daromadga ega aholining 80 – 90% qismiga yuklanadi. Bu paradoks daromadlarning turli darajalarida iste'molning nisbatan bir xil darajasiga asoslangan

d) mamlakat aholisi asosiy qismining qashshoqlanishiga olib keladi. Chunki bunday soliqlarning yuki tovarlar va xizmatlarning yakuniy (oxirgi) iste'molchisi gardani (zimmasi)ga, ya'ni yashash maksimum darajasida yoki sotsial tirikchilik darajasida daromadga ega aholining 80 – 90% qismiga yuklanadi. Bu paradoks daromadlarning bir xil darajalarida iste'molning nisbatan har xil darajasiga asoslangan

2.2.27. Egri (bilvosita) soliqlar tizimining xavfliligi shundaki, bu tizimda ...

a) aholining asosiy qismiga jamg'armalar berib qo'yiladi va bu, o'z navbatida, kredit tizimi va ikkilamchi moliyaviy bozor tizimi asoslariga zarar yetkazmaydi. Egri (bilvosita) soliqlardan voz kechgan AQSh tajribasi bunga yaqqol tasdiqdir

b) aholining asosiy qismidan jamg'armalar olib qo'yiladi va bu, o'z navbatida, kredit tizimi va ikkilamchi moliyaviy bozor tizimi asoslarini buzadi. Egri (bilvosita) soliqlardan voz kechgan AQSh tajribasi bunga yaqqol tasdiqdir

c) aholining asosiy qismiga jamg'armalar berilmaydi va bu, o'z navbatida, kredit tizimi va ikkilamchi moliyaviy bozor tizimi asoslarini buzmaydi. Egri (bilvosita) soliqlardan voz kechmagan AQSh tajribasi bunga yaqqol tasdiqdir

d) aholining asosiy qismidan jamg'armalar olib qo'yiladi va bu, o'z navbatida, kredit tizimi va ikkilamchi moliyaviy bozor tizimi asoslarini yanada mustahkamlaydi. Egri (bilvosita) soliqlardan voz kechmagan AQSh tajribasi bunga yaqqol tasdiqdir

2.2.28. Egri (bilvosita) soliqlarni ...

a) sog'liq uchun zararli bo'lgan tovarlar, zeb-ziynat buyumlari, ayrim hollarda import qilinadigan tovarlar va xizmatlar hamda boshqa bir qancha o'ziga xos bo'lgan maxsus holatlarga nisbatan joriy etish zarur

b) sog'liq uchun zararli bo'lmagan tovarlar, zeb-ziynat buyumlari, ayrim hollarda import qilinadigan tovarlar va xizmatlar hamda boshqa bir qancha o'ziga xos bo'lgan maxsus holatlarga nisbatan joriy etish zarur

c) sog'liq uchun zararli bo'lmagan tovarlar, zeb-ziynat buyumlari, ayrim hollarda eksport qilinadigan tovarlar va xizmatlar hamda boshqa bir qancha o'ziga xos bo'lgan maxsus holatlarga nisbatan joriy etish zarur

d) sog'liq uchun zararli bo'lgan tovarlar, zeb-ziynat buyumlari, ayrim hollarda eksport qilinadigan tovarlar va xizmatlar hamda boshqa bir qancha o'ziga xos bo'lmagan maxsus holatlarga nisbatan joriy etish zarur

2.2.29. Daromad va mol-mulkdan olinadigan soliqlar ...

a) soliq bazasining asosiysi hisoblanishi (xizmat qilishi) kerak emas. Ularni progressiv soliqqa tortish prinsiplariga asosan qurmoq lozim

b) soliq bazasining asosiysi hisoblanishi (xizmat qilishi) kerak bo'lsa-da, ularni proporsional soliqqa tortish prinsiplariga asosan qurmoq shart emas

c) soliq bazasining asosiysi hisoblanishi (xizmat qilishi) kerak emas. Ularni regressiv soliqqa tortish prinsiplariga asosan qurmoq lozim

d) soliq bazasining asosiysi hisoblanishi (xizmat qilishi) kerak. Ularni proporsional soliqqa tortish prinsiplariga asosan qurmoq lozim

2.2.30. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaxsiy tashabbusiz va jamiyat barcha a'zolarining samarali mehnatsiz iqtisodiyotni tiklash murakkabligicha qolaveradi. Holbuki, soliqlar...

a) bozor iqtisodiyotida mehnatning asosiy rag'batlantirilishi (motivatsiya qilinishi)ni olib qo'ymaydi, ya'ni mehnat daromad keltirishi lozim

b) bozor iqtisodiyotida mehnatning asosiy rag'batlantirilishi (motivatsiya qilinishi)ni olib qo'ymaydi, ya'ni mehnat daromad keltirishi shart emas

c) bozor iqtisodiyotida mehnatning asosiy rag'batlantirilishi (motivatsiya qilinishi)ni olib qo'yadi, ya'ni mehnat daromad keltirishi lozim

d) bozor iqtisodiyotida mehnatning asosiy rag'batlantirilishi (motivatsiya qilinishi)ga o'z ta'sirini ko'rsatmaydi va bu narsa «mehnat daromad keltirishi lozim» degan tezisga zid emas

2.2.31. Mamlakat iqtisodiyotiga soliq siyosatining ta'siri...

a) bevosita namoyon bo'ladi – yuqori soliq ostonasi takror ishlab chiqarish jarayonining investitsion imkoniyatlarini qisqartiradi (toraytiradi), jamiyatda iste'mol darajasi pasayadi va bu narsa, o'z navbatida, ishlab chiqarish va xizmat sektorlari o'sish bazalari (asoslari)ning pasayishiga olib keladi

b) bevosita namoyon bo'lmaydi – yuqori soliq ostonasi takror ishlab chiqarish jarayonining investitsion imkoniyatlarini qisqartirmaydi (toraytirmaydi), jamiyatda iste'mol darajasi pasayadi va bu narsa, o'z navbatida, ishlab chiqarish va xizmat sektorlari o'sish bazalari (asoslari)ning pasayishiga olib kelmaydi

c) bevosita namoyon bo'ladi – yuqori soliq ostonasi takror ishlab chiqarish jarayonining investitsion imkoniyatlarini qisqartiradi (toraytiradi), jamiyatda iste'mol darajasi pasaymaydi va bu narsa, o'z navbatida, ishlab chiqarish va xizmat sektorlari o'sish bazalari (asoslari)ning pasayishiga olib kelmaydi

d) bevosita namoyon bo'lmaydi – yuqori soliq ostonasi takror ishlab chiqarish jarayonining investitsion imkoniyatlarini qisqartiradi (toraytiradi), jamiyatda iste'mol darajasi pasayadi va bu narsa, o'z navbatida, ishlab chiqarish va xizmat sektorlari o'sish bazalari (asoslari)ning kengayishiga olib keladi

2.2.32. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari (yo'nalishlari)dan biri...

- a) sifatida pul siyosatini qarash maqsadga muvofiq emas
- b) sifatida pul siyosatini qarasa ham, qaramasa ham bo'la-veradi
- c) pul siyosati hisoblanadi
- d) pul siyosati hisoblanmaydi, chunki u mustaqil siyosatdir

2.2.33. Agar muomaladagi pul miqdori tovarlar massasi miqdoriga (pulning aylanish tezligini hisobga olgan holda) mos kelmasa², u holda...

- a) pul massasining yetmagan qismi qog'oz pullar (pullarning surrogati) hisobidan to'ldiriladi (tiklanadi)
- b) pul massasining yetmagan qismi qog'oz pullar (pullarning surrogati) yoki xorijiy valyuta hisobidan to'ldiriladi (tiklanadi)
- c) pul massasining yetmagan qismi xorijiy valyuta hisobidan to'ldiriladi (tiklanadi)
- d) pul massasining yetmagan qismi qog'oz pullar (pullarning surrogati) yoki xorijiy valyuta hisobidan to'ldirilishi maqsadga muvofiq emas

2.2.34. Agar pul massasi unga bo'lgan talabdan ortiq bo'lsa³, u holda...

- a) yo pul massasining mamlakatdan chetga chiqmasli-

² Tabiiyki, bu variantlarning barchasi mamlakatning qonunchiligiga ham bevosita bog'liq – mamlakatda xorijiy valyutaning muomalada bo'lishiga ruxsat beriladimi yoki yo'q, milliy valyuta konvertatsiya qilinadimi yoki yo'q va h.k.

³ Tabiiyki, bu yerda ham mazkur variantlarning barchasi mamlakatning qonunchiligiga bog'liq – mamlakatda xorijiy valyutaning muomalada bo'lishiga ruxsat beriladimi yoki yo'q, milliy valyuta konvertatsiya qilinadimi yoki yo'q va h.k.

gi (oqmasligi) yoki milliy valyutaning qadrsizlanishi sodir bo'ladi

b) yo pul massasining mamlakatdan chetga chiqishi (oqi-shi) yoki milliy valyuta qadrining oshishi sodir bo'ladi

c) yo pul massasining mamlakatga kirib kelishi yoki milliy valyutaning qadrsizlanishi sodir bo'ladi

d) yo pul massasining mamlakatdan chetga chiqishi (oqi-shi) yoki milliy valyutaning qadrsizlanishi sodir bo'ladi

2.2.35. Tovarlar massasi cheklanganda pul emissiyasi ...

a) boshqa mamlakatlarning pul birligiga nisbatan milliy pul birligining barqarorlashuviga olib keladi

b) boshqa mamlakatlarning pul birligiga nisbatan milliy pul birligining qadrsizlanishiga olib keladi

c) boshqa mamlakatlarning pul birligiga nisbatan milliy pul birligining qadrsizlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmaydi

d) boshqa mamlakatlarning pul birligiga nisbatan milliy pul birligining barqarorlashuviga o'z ta'sirini ko'rsatmaydi

2.2.36. Emissiya siyosati va milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash ...

a) pul siyosatining tarkibiy qismlari (yo'nalishlari)dir

b) pul siyosatining tarkibiy qismlari (yo'nalishlari) hisoblanmaydi

c) o'ziga xos iqtisodiy munosabatlarni o'z ichiga olib, ular pul siyosatiga unchalik aloqador emas

d) pul siyosatiga nisbatan mustaqil siyosat hisoblanadi

2.2.37. Emission siyosat muomala uchun zarur bo'lgan pulning miqdorini aniqlashdan tashqari ...

a) yana boshqa bir yo'nalishga ega. Bu yo'nalish byudjet daromadlarini qisqartirishdir. U alohida ehtiyotkorlikni talab etadi

b) yana boshqa bir yo'nalishga ega. Bu yo'nalish byudjet daromadlarining barqarorligini ta'minlashdir. U alohida ehtiyotkorlikni talab etmaydi

c) yana boshqa bir yo'nalishga ega. Bu yo'nalish byudjet daromadlarini ko'paytirishdir. U alohida ehtiyotkorlikni talab etadi

d) yana boshqa bir yo'nalishga ega. Bu yo'nalish byudjet daromadlarining o'zgaruvchanligini ta'minlashdir. U umumiy ehtiyotkorlikni talab etadi

2.2.38. Ma'lum bir miqdoriy chegaradan o'tilganidan so'ng pul tizimi...

a) inflyatsiyaga moyil (ta'sirchan) bo'lib qoladi, ya'ni byudjet daromadlarining real qadrsizlanishi sodir bo'lishi mumkin

b) inflyatsiyaga moyil (ta'sirchan) bo'lib qolmaydi, ya'ni byudjet daromadlarining real qadrsizlanishi sodir bo'lishi mumkin emas

c) inflyatsiyaga moyil (ta'sirchan) bo'lib qoladi, ya'ni byudjet daromadlarining nominal qadrsizlanishi sodir bo'lishi mumkin

d) inflyatsiyaga moyil (ta'sirchan) bo'lib qolmaydi, ya'ni byudjet daromadlarining nominal qadrsizlanishi sodir bo'lishi mumkin emas

2.2.39. Agar qandaydir bir sabablarga ko'ra davlat o'z pul tizimini tartibga solishga qodir bo'lmasa, u holda...

a) mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga putur etadi. Shunga qaramasdan, mamlakatning milliy valyutasi boshqa kuchli valyutalarning ekspansiyasiga qarshi tura oladi va mamlakat milliy boylikdan mahrum bo'lib qolmasligi mumkin (o'zaro hisobga olishlar, aksiyalarni sotib olish va h.k.lar orqali)

b) mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga putur etadi. Chunki bunday sharoitda mamlakatning milliy valyutasi boshqa kuchli valyutalarning ekspansiyasiga qarshi tura olmaydi va mamlakat milliy boylikdan mahrum bo'lib qolish mumkin (o'zaro hisobga olishlar, aksiyalarni sotib olish va h.k.lar orqali)

c) mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga putur yetishidan tashvishga tushmaslik kerak. Chunki bunday sharoitda mamlakatning milliy valyutasi boshqa kuchli valyutalarning ekspansiyasiga qarshi tura oladi va mamlakat milliy boylikdan mahrum bo'lib qolmasligi mumkin (o'zaro hisobga olishlar, aksiyalarni sotib olish va h.k.lar orqali)

d) mamlakatning, avvalo, siyosiy xavfsizligiga putur eta-

di. Chunki bunday sharoitda mamlakatning milliy valyutasi boshqa kuchli valyutalarning ekspansiyasiga qarshi tura olmaydi va mamlakat milliy boylıkdan mahrum bo'lib qolish mumkin (o'zaro hisobga olishlar, aksiyalarni sotib olish va h.k.lar orqali)

2.2.40. Kredit siyosati moliyaviy siyosatning ...

a) tarkibiy qismi (yo'nalishi) bo'lib, uning namoyon bo'lishi mamlakatning moliya tizimi orqali amalga oshiriladi

b) tarkibiy qismi (yo'nalishi) bo'lmasdan, uning namoyon bo'lishi mamlakatning o'ziga xos va mustaqil bo'lgan krediti tizimi orqali amalga oshiriladi

c) tarkibiy qismi (yo'nalishi) bo'lib, uning namoyon bo'lishi mamlakatning krediti tizimi orqali amalga oshiriladi

d) tarkibiy qismi (yo'nalishi) bo'lmasdan, uning namoyon bo'lishi mamlakatning bank tizimi orqali amalga oshiriladi

2.2.41. Kredit tizimi ...

a) ssuda kapitalining o'sishini ta'minlaydi

b) ssuda kapitalining qisqarishiga xizmat qiladi

c) ssuda kapitalining samaradorligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi

d) ssuda kapitalining faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi

2.2.42. Ssuda kapitali takror ishlab chiqarish jarayoni ni amalga oshirishning muhim sharti hisoblanib ...

a) moliyaviy mablag'larni to'ldirish va investitsiyalar uchun mablag'larning qarzga olinishini ta'minlaydi

b) aylanma mablag'larni to'ldirish va investitsiyalar uchun mablag'larning qarzga olinishini ta'minlaydi

c) moddiy mablag'larni to'ldirish va investitsiyalar uchun mablag'larning ko'paytirilishini ta'minlaydi

d) iqtisodiy mablag'larni iqtisod qilish va investitsiyalar uchun mablag'larning ko'paytirilishi ta'minlaydi

2.2.43. Iqtisodiyotning kredit sektori ...

a) o'rtacha kredit normasini oshirish uchun ham xizmat qiladi

b) o'rtacha tannarx normasini kamaytirish uchun ham xizmat qiladi

c) o'rtacha iqtisodiy faollik normasini o'zgartirmasdan goldirish uchun ham xizmat qiladi

d) o'rtacha foyda normasini tenglashtirish uchun ham xizmat qiladi

2.2.44. Foiz stavkasining darajasi ...

a) bilan jamiyatdagi iqtisodiy faollik bir-biriga bog'liq emas

b) jamiyatdagi iqtisodiy faollikka faqat ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin

c) jamiyatdagi iqtisodiy faollikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin

d) jamiyatdagi iqtisodiy faollikka ta'sir etmaydi

2.2.45. Foiz stavkasi asossiz darajada yuqori bo'lsa, quyidagi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin ...

a) kreditlarning qaytarilmasligi; ishlab chiqarish sektori va xizmatlar sektorida mahsulotlar narxining o'sishi

b) qarzga oluvchilar rentabellik darajasining pasayishi va buning oqibatida soliqqa tortiladigan bazaning qisqarishi

c) ishlab chiqarishning qisqarishi; takror ishlab chiqarish jarayoni subyektlari daromadlarining pasayishi natijasida ichki iste'mol bozorining torayishi

d) barcha javoblar to'g'ri

2.2.46. Kreditning arzonlashuvi ...

a) ishlab chiqarishning sog'lomlashuviga, tovarlar massasining ortishiga, tovarlar va xizmatlar bahosining pasayishiga, ana shularning natijasida esa takror ishlab chiqarish jarayoni subyektlari daromadlarining oshishiga, soliqqa tortish bazasining kengayishiga va buning oqibatida byudjet daromadlarining ko'payishiga olib keladi

b) ishlab chiqarishning sog'lomlashuviga, tovarlar massasining ortishiga, tovarlar va xizmatlar bahosining ham ortishiga, ana shularning natijasida esa takror ishlab chiqarish jarayoni subyektlari daromadlarining oshishiga, soliqqa tortish bazasining kengayishiga va buning oqibatida byudjet daromadlarining ko'payishiga olib keladi

c) ishlab chiqarishning sog'lomlashuviga, tovarlar massasining ortishiga, tovarlar va xizmatlar bahosining pasayishiga,

ana shularning natijasida esa takror ishlab chiqarish jarayoni subyektlari daromadlarining oshishiga, soliqqa tortish bazasining torayishiga va buning oqibatida byudjet daromadlarining ham qisqarishiga olib kelmaydi

d) ishlab chiqarishning izdan chiqishiga, tovarlar massasining kamayishiga, tovarlar va xizmatlar bahosining ortishiga, ana shularning natijasida esa takror ishlab chiqarish jarayoni subyektlari daromadlarining kamayishiga, soliqqa tortish bazasining kengayishiga va buning oqibatida byudjet daromadlarining ko'payishiga olib kelmaydi

2.2.47. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi (yo'naliishi) sifatida davlatning baho siyosati ...

a) afsuski, monopol tovar va xizmatlar bahosi hamda tarifining korrektirovka qilinishi (o'zgartirilishi) orqali ifodalanmaydi

b) oligopol tovar va xizmatlar bahosi hamda tarifining korrektirovka qilinishi (o'zgartirilishi) orqali ifodalanadi

c) monopol tovar va xizmatlar bahosi hamda tarifining korrektirovka qilinishi (o'zgartirilishi) orqali ifodalanadi

d) oligopol tovar va xizmatlar bahosi hamda tarifining korrektirovka qilinishi (o'zgartirilishi) orqali ifodalanmaydi

2.2.48. Yer, yerosti boyliklari, suv havzalari, temir yo'llar, elektr uzatish tarmoqlari, neft va gaz quvurlari davlatning monopol egaligidadir. Bu tarmoqlar ...

a) tovarlari va xizmatlari bahosining o'sishi (ortishi) milliy xo'jalik barcha boshqa sektorlarida baholarning o'sishiga olib keladi

b) tovarlari va xizmatlari bahosining o'sishi (ortishi) har doim ham milliy xo'jalik barcha boshqa sektorlarida baholarning o'sishiga olib kelmaydi

c) ...da tannarxning o'sishi (ortishi) milliy xo'jalik barcha boshqa sektorlarida baholarning o'sishiga olib keladi

d) ...da foyda summasining o'sishi (ortishi) milliy xo'jalik barcha boshqa sektorlarida baholarning o'sishiga olib keladi

2.2.49. Baho siyosati iqtisodiyotni tartibga solish ...

a) ...ning muhim omili hisoblanmaydi

- b) ...ning muhim omili hisoblanadi
- c) ...da prinsipial ahamiyatga ega emas
- d) ...ning yakka-yu yagona omili hisoblanadi

2.2.50. Investitsiya siyosati moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari (yo'nalishlari)dan biri bo'lib, u, eng avvalo ...

a) mamlakat iqtisodiyotining real sektoriga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun sharoitlarni yaratish bo'yicha tadbirlar kompleksidan iborat

b) mamlakat iqtisodiyotining real sektoriga o'z investitsiyalarini jalb qilish uchun sharoitlarni yaratish bo'yicha tadbirlar kompleksidan iborat

c) mamlakat iqtisodiyotining real sektoriga o'z va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun sharoitlarni yaratish bo'yicha tadbirlar kompleksidan iborat

d) mamlakat iqtisodiyotining nominal sektoriga o'z va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun sharoitlarni yaratish bo'yicha tadbirlar kompleksidan iborat

2.2.51. Investitsiya siyosati...

a) davlat boshqaruvi va xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasini boshqarishning ayrim darajalarida amalga oshiriladi

b) davlat boshqaruvi va xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasini boshqarishning turli darajalarida amalga oshiriladi

c) davlat boshqaruvi va xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasini boshqarishning yuqori darajalarida amalga oshiriladi

d) davlat boshqaruvi va xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasini boshqarishning quyi darajalarida amalga oshiriladi

2.2.52. Investitsion siyosatning asosiy vazifasi...

a) faqat mamlakatning real sektoriga investorlar tomonidan moddiy resurslarni kiritish (joylashtirish), mamlakatdan kapitalning «qochib» ketmasligi va, aksincha, mamlakatga xorijiy kapitallar oqimining kirib kelishi uchun sharoitlarni yaratish orqali ifodalanadi

b) faqat mamlakatning real sektoriga investorlar tomonidan pul resurslarni kiritish (joylashtirish), mamlakatdan ka-

pitalning «qochib» ketmasligi va, aksincha, mamlakatga xorijiy kapitallar oqimining kirib kelishi va chiqib ketishi uchun sharoitlarni yaratish orqali ifodalanadi

c) mamlakat iqtisodiyotiga investorlar tomonidan kapital resurslarni kiritish (joylashtirish), mamlakatdan kapitalning «qochib» ketmasligi va, aksincha, mamlakatga xorijiy va o'z kapitallari oqimining kirib kelishi va chiqib ketishi uchun sharoitlarni yaratish orqali ifodalanadi

d) mamlakat iqtisodiyotiga investorlar tomonidan moliyaviy resurslarni kiritish (joylashtirish), mamlakatdan kapitalning «qochib» ketmasligi va, aksincha, mamlakatga xorijiy kapitallar oqimining kirib kelishi uchun sharoitlarni yaratish orqali ifodalanadi

2.2.53. Sotsial moliyaviy siyosat Konstitutsiyaga muvofiq ...

a) mamlakat ishchi va xizmatchilarining huquqlarini moliyaviy jihatdan ta'minlash bilan bog'liq

b) mamlakat aholisining huquqlarini moliyaviy jihatdan ta'minlash bilan bog'liq

c) mamlakat yoshlarining huquqlarini moliyaviy jihatdan ta'minlash bilan bog'liq

d) mamlakat nafaqaxo'rlarining huquqlarini moliyaviy jihatdan ta'minlash bilan bog'liq

2.2.54. Sotsial moliyaviy siyosat ...

a) pensiya siyosati, immigratsion siyosat, aholi ayrim sotsial guruhlariga moliyaviy yordam ko'rsatish siyosati va boshqa siyosatlardan biroz bo'lsa-da farq qiladi

b) pensiya siyosati, immigratsion siyosat, aholi ayrim sotsial guruhlariga moliyaviy yordam ko'rsatish siyosati va boshqa siyosatlarni o'z ichiga oladi

c) pensiya siyosati, immigratsion siyosat, aholi ayrim sotsial guruhlariga moliyaviy yordam ko'rsatish siyosati va boshqa siyosatlardan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi

d) pensiya siyosati, immigratsion siyosat, aholi ayrim sotsial guruhlariga moddiy yordam ko'rsatish siyosati va boshqa siyosatlarning xususiy ko'rinishidir

2.2.55. Boj siyosatini moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi (yo'nalishi) sifatida qarash bilan birgalikda ...

a) uni soliq va baho siyosatlarining ham bir qismi sifatida e'tiborga olish kerak. Chunki soliqlar va bojlar (boj yig'implari) tovar va xizmatlarning bahosiga bevosita ta'sir ko'rsatadi

b) uni soliq va baho siyosatlarining ham bir qismi sifatida e'tiborga olmaslik kerak. Chunki soliqlar va bojlar (boj yig'implari) tovar va xizmatlarning bahosiga bevosita ta'sir ko'rsatmaydi

c) uni faqat soliq siyosatining ham bir qismi sifatida e'tiborga olish kerak. Chunki soliqlar tovar va xizmatlarning bahosiga bevosita ta'sir ko'rsatadi

d) uni faqat baho siyosatining ham bir qismi sifatida e'tiborga olish kerak. Chunki bojlar (boj yig'implari) tovar va xizmatlarning bahosiga bevosita ta'sir ko'rsatadi

2.2.56. Bir vaqtning o'zida boj siyosati mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos usuliga ham egadir. Usulning o'ziga xosligi shundaki ...

a) bu siyosat, bir tomondan, mamlakatga import qilinayotgan tovarlar va xizmatlarni toraytirishi yoki cheklashi, ikkinchi tomondan, mamlakatdan tovarlar va xizmatlar eksportini rag'batlantirishi yoki unga to'sqinlik qilishi mumkin

b) bu siyosat, bir tomondan, mamlakat ichki bozoriga import qilinayotgan tovarlarni kengaytirishi yoki cheklashi, ikkinchi tomondan, mamlakatdan tovarlar eksportini rag'batlantirishi yoki unga to'sqinlik qilishi mumkin

c) bu siyosat, bir tomondan, mamlakat ichki bozoriga import qilinayotgan tovarlar va xizmatlarni kengaytirishi yoki cheklashi, ikkinchi tomondan, mamlakatdan tovarlar va xizmatlar eksportini rag'batlantirishi yoki unga to'sqinlik qilishi mumkin

d) bu siyosat, bir tomondan, mamlakat tashqi bozoriga eksport qilinayotgan tovarlar va xizmatlarni kengaytirishi yoki cheklashi, ikkinchi tomondan, mamlakatdan tovarlar va xizmatlar importini rag'batlantirishi yoki unga to'sqinlik qilishi mumkin

2.2.57. Mamlakatda o'xshashi bo'lmagan texnologik asbob-uskunani import qilishga 20% li boj yig'imi o'rnatilsa, bu narsa ...

a) mamlakatdagi ishlab chiqaruvchilarning investitsion imkoniyatlarini kamaytiradi, ichki ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini oshiradi, import qilinadigan mahsulotlarning salmog'ini kamaytiradi

b) mamlakatdagi ishlab chiqaruvchilarning investitsion imkoniyatlarini kamaytiradi, ichki ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini pasaytiradi, import qilinadigan mahsulotlarning salmog'ini oshiradi

c) mamlakatdagi ishlab chiqaruvchilarning investitsion imkoniyatlarini va shunga mos ravishda ichki ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini ham yuksaltiradi, import qilinadigan mahsulotlarning salmog'ini oshiradi

d) mamlakatdagi ishlab chiqaruvchilarning investitsion imkoniyatlarini, ichki ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini va import qilinadigan mahsulotlarning salmog'ini kamaytiradi

2.2.58. Har qanday mamlakatning boj siyosati ...

a) havorang xarakterga egadir. Chunki boj undirish cheklovchi yoki rag'batlantiruvchi stavkalarining joriy etilishi xuddi shunday javob choralarining qo'llanilishi bilan kuzatiladi

b) bumerang harakatiga egadir. Chunki boj undirish cheklovchi stavkalarining joriy etilishi xuddi shunday javob choralarining qo'llanilishi bilan kuzatiladi

c) havorang xarakterga egadir. Chunki boj undirish rag'batlantiruvchi stavkalarining joriy etilishi xuddi shunday javob choralarining qo'llanilishi bilan kuzatiladi

b) soliq to'lovchilarda (jumladan, soliq to'lovchilar bilan bog'langan qarshi subyektlarda) moliyaviy hujjatlar, shartnomalar, smetalar, soliqlarni hisoblab yozish va to'lash hamda eksport-import bilan bog'liq holatlarni hujjatlar asosida tekshirish, tekshiruv vaqtida yuzaga keladigan masalalar bo'yicha zarur bo'lgan tushuntirish, ma'lumotnoma va ma'lumotlarni olish

c) savdo, tovarlarni sotish va xizmat ko'rsatish, aksiz spirtli ichimlik va tamaki mahsulotlarini realizatsiya qilish va markalash qoidalariga rioya etilishi, naqd pul mablag'lari-

ning to'liq kirim qilinishi, nazorat-kassa apparatlarini qo'llash qonunchiligiga rioya etilishi va boshqalarni nazorat qilish

d) yuqoridagi barcha javoblar to'g'ri

6.3.63. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tizimida Bosh nazorat-taftish boshqarmasi tuzilgan bo'lib, uning...

a) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'linmalari mavjud

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari mavjud

c) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari mavjud

d) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mustaqil bo'linmalari mavjud

6.3.64. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tizimidagi Bosh nazorat-taftish boshqarmasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

a) xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliq qonunchiligiga rioya etishi bo'yicha moliyaviy-xo'jalik faoliyatini belgilangan tartibda hujjatlar asosida tekshiruvlarni hamda hukumat qarorlari bilan soliq organlari zimmasiga yuklatilgan masalalar bo'yicha nazorat tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish

b) xo'jalik yurituvchi subyektlardan olinadigan soliqlar va yig'implarning hisoblab yozilishi, undirib olinishida qonuniylikka rioya etilishi, byudjetga to'lovlarning to'g'ri hisoblaniishi va o'z vaqtida tushishini nazorat qilish; soliq qonunbuzarliklarini aniqlash, ogohlantirish va to'xtatish

c) yuqoridagi har ikkala javob ham to'g'ri

d) faqat «a» javob to'g'ri

6.3.65. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tizimidagi Bosh nazorat-taftish boshqarmasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

a) o'tkazilgan hujjatli va nazorat tekshiruvlari (hisoblangan summalar, moliyaviy sanksiyalar, ma'muriy jarimalar va h.k.ni undirib olish) yakuni bo'yicha xo'jalik yurituvchi

subyektlarning byudjet oldidagi majburiyatlari bajarilishini nazorat qilish

b) soliq qonunchiligining buzilishiga oid ma'lumotlarni hamda hujjatli va nazorat tekshiruvlari natijasida aniqlangan boshqa faktlarni umumlashtirish hamda tahlil etish va h.k.

c) yuqoridagi har ikkala javob ham to'g'ri

d) faqat «b» javob to'g'ri

6.3.66. Davlat soliq qo'mitasining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni hal etishi va funksiyalarini bajarishi uchun qanday huquqlarga ega?

a) yuridik va jismoniy shaxslardan xo'jalik yurituvchi subyektlar (soliq to'lovchilar) faoliyatiga tegishli ma'lumot, axborot, ma'lumotnoma, hujjatlar va ularning nusxalarini olish

b) banklar va boshqa kredit-moliya muassasalaridan xo'jalik yurituvchi subyektlar (soliq to'lovchilar)ning hisob-kitob va boshqa hisobvaraqlarida amalga oshirilgan operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilangan tartibda olish

c) yuqoridagi har ikkala javob ham noto'g'ri

d) yuqoridagi har ikkala javob ham to'g'ri

6.3.67. Davlat moliyaviy nazorati bo'yicha funksiyalarini ...

a) bank tizimi ham bajaradi

b) bank tizimi bajarmaydi

c) bajarish bank tizimiga xos emas

d) bank tizimiga mos emas

6.3.68. O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki moliyaviy nazoratni bo'yicha ...

a) bank tizimi barqarorligini qo'llab-quvvatlash, omonatchilar va kreditorlarning manfaatlari himoyalanihini ta'minlash maqsadida bank nazoratini amalga oshiradi

b) bank tizimi barqarorligini qo'llab-quvvatlash, omonatchilar va kreditorlarning manfaatlari himoyalanihini ta'minlash maqsadida bank nazoratini va banklar faoliyatini tartibga solishni amalga oshiradi

c) bank tizimi barqarorligini qo'llab-quvvatlash, omonatchilar va kreditorlarning manfaatlari himoyalanihini ta'minlash maqsadida banklar faoliyatini tartibga solishni amalga oshiradi

d) yuqoridagilarning birortasi ham to'g'ri javob bo'lolmaydi

6.3.69. Markaziy bank nazorat funksiyalarini bajarish bo'yicha o'z vakolatlarini amalga oshirish yuzasidan...

a) bank operatsiyalarini amalga oshirish, buxgalteriya hisobini yuritish va bank statistik hisobotini yuritish, yillik hisobotlarni tuzish uchun banklar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qoidalarni belgilaydi

b) bank operatsiyalarini amalga oshirish, buxgalteriya hisobini yuritish va bank statistik hisobotini yuritish, yillik hisobotlarni tuzish uchun banklar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lmagan qoidalarni belgilaydi

c) bank operatsiyalarini amalga oshirish, buxgalteriya hisobini yuritish va bank statistik hisobotini yuritish, oylik hisobotlarni tuzish uchun banklar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qoidalarni belgilaydi

d) bank operatsiyalarini amalga oshirish, buxgalteriya hisobini yuritish va bank statistik hisobotini yuritish, choraklik hisobotlarni tuzish uchun banklar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qoidalarni belgilaydi

6.3.70. Moliyaviy nazoratni amalga oshirish bo'yicha Markaziy bankka qanday huquqlar berilgan?

a) banklardan hisobotlar va boshqa hujjatlarni olish hamda tekshirish, ularning faoliyati, jumladan, operatsiyalari to'g'risida axborot, ma'lumotlarni so'rash va olish

b) olingan axborot, ma'lumotlar bo'yicha tushuntirishlar talab qilish

c) banklarning ichki auditi bo'yicha talablar belgilash

d) yuqoridagi barcha javoblar to'g'ri

6.3.71. Moliyaviy nazoratni amalga oshirish bo'yicha Markaziy bankka qanday huquqlar berilgan?

a) bank aktivlarini sifat bo'yicha tasnif qilish va aktivlar

bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun shunday zaxiralar tuzishni talab qilish

b) banklarga ular faoliyatida aniqlangan tartibbuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha bajarilishi majburiy bo'lgan yozma buyruqlar, ko'rsatmalar jo'natish

c) «a» va «b» javoblar to'g'ri

d) faqat «a» javob to'g'ri

6.3.72. Moliyaviy nazoratni amalga oshirish bo'yicha tekshiruvlar Markaziy bank tomonidan belgilanadigan...

a) vakolatli vakillari va auditorlar tomonidan o'tkaziladi

b) vakolatli vakillari tomonidan o'tkaziladi

c) auditorlar tomonidan o'tkaziladi

d) yuqoridagilarning birortasi ham to'g'ri javob bo'lolmaydi

6.3.73. Davlat moliyaviy nazoratining ayrim funksiyalarini boshqa organlar ham bajaradi. Bu, xususan, O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat etish markaziga taalluqli bo'lib, uning zimmasiga ...

a) faqat davlat organlari tomonidan qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish vazifasi yuklatilgan

b) barcha davlat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish vazifasi yuklatilgan

c) faqat xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish vazifasi yuklatilgan

d) yuqoridagi javoblarning barchasi noto'g'ri

6.4. NODAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI

6.4.1. Bozor iqtisodiyoti asoslarining shakllanishi...

a) davlat nazorat organlarining bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladigan moliyaviy nazoratning turlari rolini oshiradi

b) davlat nazorat organlarining bilvosita ishtirokisiz amalga oshiriladigan moliyaviy nazoratning turlari rolini oshiradi

c) davlat nazorat organlarining bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladigan moliyaviy nazoratning turlari rolini oshirmaydi

d) davlat nazorat organlarining bilvosita ishtirokisiz amalga oshiriladigan moliyaviy nazoratning turlari rolini oshirmaydi

6.4.2. Moliyaviy nazoratning nodavlat turlari ...

a) ichki firmaviy (korporativ) nazorat, tijorat banklari tomonidan mijoz-tashkilotlar ustidan o'tkaziladigan nazorat, auditorlik nazoratlaridan iborat

b) faqat auditorlik nazoratlaridan iborat

c) faqat ichki firmaviy (korporativ) nazoratdan iborat

d) faqat tijorat banklari tomonidan mijoz-tashkilotlar ustidan o'tkaziladigan nazoratdan iborat

6.4.3. Ichki firmaviy moliyaviy nazoratda ...

a) korxonalar, muassasalar, firma, korporatsiyalar o'zining iqtisodiy xizmatlari, ya'ni buxgalteriya, moliya bo'limi, moliyaviy menejment xizmatlari va boshqalar tomonidan o'z korxonasi, filiallari va shu'ba tuzilmalarining iqtisodiy faoliyati ustidan nazorat amalga oshiriladi

b) korxonalar, muassasalar, firma, korporatsiyalar o'zining iqtisodiy xizmatlari, ya'ni buxgalteriya, moliya bo'limi, moliyaviy menejment xizmatlari va boshqalar tomonidan o'z korxonasi, filiallari va shu'ba tuzilmalarining moliyaviy faoliyati ustidan nazorat amalga oshiriladi

c) korxonalar, muassasalar, firma, korporatsiyalar o'zining iqtisodiy xizmatlari, ya'ni buxgalteriya, moliya bo'limi, moliyaviy menejment xizmatlari va boshqalar tomonidan o'z korxonasi, filiallari va shu'ba tuzilmalarining moddiy faoliyati ustidan nazorat amalga oshiriladi

d) korxonalar, muassasalar, firma, korporatsiyalar o'zining iqtisodiy xizmatlari, ya'ni buxgalteriya, moliya bo'limi, moliyaviy menejment xizmatlari va boshqalar tomonidan o'z korxonasi, filiallari va shu'ba tuzilmalarining ijtimoiy faoliyati ustidan nazorat amalga oshiriladi

6.4.4. Ichki moliyaviy nazorat xizmatlari doimiy ravishda ...

a) pul mablag'lari (shaxsiy, qarziy, jalb etilgan) ishlatilishining samaradorligi va maqsadga muvofiqligini kuzatadi, rejalashtirilgan moliyaviy natijalar bilan haqiqiy moliyaviy natijalarni qiyoslab tahlil qiladi, investitsion loyihalarning natijalariga iqtisodiy baho beradi, korxonaning moliyaviy holatini nazorat qiladi

b) pul mablag'lari (shaxsiy, qarziy, jalb etilgan) ishlatilishining samaradorligi va maqsadga muvofiqligini kuzatadi, rejalashtirilgan moliyaviy natijalar bilan haqiqiy moliyaviy natijalarni qiyoslab tahlil qiladi, investitsion loyihalarning natijalariga moliyaviy baho beradi, korxonaning moliyaviy holatini nazorat qiladi

c) pul mablag'lari (shaxsiy, qarziy, jalb etilgan) ishlatilishining samaradorligi va maqsadga muvofiqligini kuzatadi, rejalashtirilgan moliyaviy natijalar bilan haqiqiy moliyaviy natijalarni qiyoslab tahlil qiladi, investitsion loyihalarning natijalariga moliyaviy baho beradi, korxonaning iqtisodiy holatini nazorat qiladi

d) pul mablag'lari (shaxsiy, qarziy, jalb etilgan) ishlatilishining samaradorligi va maqsadga muvofiqligini kuzatadi, erishilgan moliyaviy natijalar bilan haqiqiy moliyaviy natijalarni qiyoslab tahlil qiladi, investitsion loyihalarning natijalariga moliyaviy baho beradi, korxonaning moliyaviy holatini nazorat qiladi

6.4.5. Ichki moliyaviy nazorat ...

a) kapitalni investitsiyalashtirishning butun jarayonini kuzatib boradi

b) kapitalni investitsiyalashtirishning ayrim jarayonlarini kuzatib boradi

c) afsuski, kapitalni investitsiyalashtirishning butun jarayonini kuzatib borish imkoniyatiga ega emas

d) reinvestitsiyalashtirishning butun jarayonini kuzatib boradi, xolos

6.4.6. Ichki moliyaviy nazoratning ko'rinishlaridan biri bo'lgan va «post-audit» nomini olgan nazorat ...

a) biznes-rejaning moliya bo'limidagi ishlab chiqarish-investitsiya faoliyatining har bir bosqichida rejalashtirilgan moliyaviy natijani haqiqiy holat bilan taqqoslash, ularning muvofiq kelishi sabablarini aniqlash va bartaraf etish, chiqimlarni kamaytirish va moliyaviy rejalashtirish metodlarini yaxshilash yo'llarini qidirishni anglatadi

b) biznes-rejaning moliya bo'limidagi ishlab chiqarish-investitsiya faoliyatining har bir bosqichida rejalashtirilgan moliyaviy natijani haqiqiy holat bilan taqqoslash, ularning nomuvofiq kelishi sabablarini aniqlash va bartaraf etish, chiqimlarni kamaytirish va moliyaviy rejalashtirish metodlarini yaxshilash yo'llarini qidirishni anglatadi

c) biznes-rejaning moliya bo'limidagi ishlab chiqarish-investitsiya faoliyatining har bir bosqichida rejalashtirilgan moliyaviy natijani haqiqiy holat bilan taqqoslash, ularning muvofiq kelishi sabablarini aniqlash va bartaraf etish, chiqimlarni ko'paytirish va moliyaviy rejalashtirish metodlarini yaxshilash yo'llarini qidirishni anglatadi

d) biznes-rejaning moliya bo'limidagi ishlab chiqarish-investitsiya faoliyatining har bir bosqichida rejalashtirilgan moliyaviy natijani haqiqiy holat bilan taqqoslash, ularning nomuvofiq kelishi sabablarini aniqlash va bartaraf etish, chiqimlarni birxillashtirish va moliyaviy rejalashtirish metodlarini yaxshilash yo'llarini qidirishni anglatadi

6.4.7. Bank tizimining qayta qurilishi natijasida tijorat banklarining paydo bo'lishi ahamiyatli darajada moliyaviy nazorat sohasidagi banklarning funksiyalarini ...

a) o'zgartiradi

b) o'zgartira olmaydi

c) minimallashtiradi

d) maksimallashtiradi

6.4.8. Agar SSSR Davlat bankining bo'limlari o'zlariga birlashtirilgan korxonalarining butun moliyaviy faoliyatini nazorat qilgan bo'lsa, tijorat banklari esa ...

a) qarorga muvofiq ravishda davlat tomonidan faqat hisob-kassa operatsiyalarini yuritish va valyuta qonunchiligiga rioya etish borasida o'rnatilgan tartibga mijozlar tomonidan amal qilinishini nazorat etib borishi kerak

b) farmonga muvofiq ravishda davlat tomonidan faqat hisob-kassa operatsiyalarini yuritish va valyuta qonunchiligiga rioya etish borasida o'rnatilgan tartibga mijozlar tomonidan amal qilinishini nazorat etib borishi kerak

c) qonunga muvofiq ravishda davlat tomonidan faqat hisob-kassa operatsiyalarini yuritish va valyuta qonunchiligiga rioya etish borasida o'rnatilgan tartibga mijozlar tomonidan amal qilinishini nazorat etib borishi kerak

d) yo'riqnomaga muvofiq ravishda davlat tomonidan faqat hisob-kassa operatsiyalarini yuritish va valyuta qonunchiligiga rioya etish borasida o'rnatilgan tartibga mijozlar tomonidan amal qilinishini nazorat etib borishi kerak

6.4.9. Likvidlikni qo'llab-quvvatlashning obyektiv zarurligi bankdan potensial zayom oluvchilarning, ya'ni zayom oluvchi korxonalarining ...

a) iqtisodiy holati va kredit olishga layoqatliligini baholashni talab qiladi

b) moliyaviy holati va kredit olish salohiyatini baholashni talab qiladi

c) ijtimoiy holati va kredit olish imkoniyatini baholashni talab qiladi

d) moliyaviy holati va kredit olishga layoqatliligini baholashni talab qiladi

6.4.10. Ssuda berilgan taqdirda bank o'rnatilgan muddatlarda tegishli foizlar bilan birgalikda ssudaning qaytarilish ehtimolini baholash maqsadida ...

a) berilgan ssudaning ishlatilishini, mijozning to'lov qobiliyati va likvidligini nazorat qiladi. Bank tomonidan amalga oshiriladigan bunday nazorat tijorat riskini boshqarishning muhim elementi hisoblanadi

b) berilgan ssudaning ishlatilishini, mijozning to'lov qobiliyati va likvidligini nazorat qiladi. Bank tomonidan amalga

oshiriladigan bunday nazorat kredit riskini boshqarishning muhim elementi hisoblanadi

c) berilgan ssudaning ishlatilishini, mijozning to'lov qobiliyati va likvidligini nazorat qiladi. Bank tomonidan amalga oshiriladigan bunday nazorat ishlab chiqarish riskini boshqarishning muhim elementi hisoblanadi

d) berilgan ssudaning ishlatilishini, mijozning to'lov qobiliyati va likvidligini nazorat qiladi. Bank tomonidan amalga oshiriladigan bunday nazorat favqulodda risklarni boshqarishning muhim elementi hisoblanadi

6.4.11. Auditorlik nazorati nodavlat moliyaviy nazoratining ...

a) yangi turi bo'lib, u mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda ham paydo bo'ldi

b) an'anaviy turi bo'lib, u mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda ham paydo bo'ldi

c) yangi turi bo'lib, u mustaqillikning dastlabki 10 yilidan so'ng O'zbekistonda ham paydo bo'ldi

d) mumtoz turi bo'lib, u mustaqillikning oxirgi yillarida O'zbekistonda ham paydo bo'ldi

6.4.12. Auditorlik nazoratining asosiy vazifalari ...

a) buxgalterlik va moliyaviy hisobotning ishonchligini hamda amalga oshirilgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarining amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlash, tekshirilayotgan iqtisodiy obyektlarning to'lov-hisobot hujjatlarini, soliq deklaratsiyalarini va boshqa moliyaviy majburiyatlarini tekshirishdan iborat

b) buxgalterlik va moliyaviy hisobotning ishonchligini hamda amalga oshirilgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarining amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlash, tekshirilayotgan iqtisodiy subyektlarning to'lov-hisobot hujjatlarini, soliq deklaratsiyalarini va boshqa moliyaviy majburiyatlarini tekshirishdan iborat

c) moliyaviy hisobotning ishonchligini hamda amalga oshirilgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarining amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlash, tek-

shirilayotgan iqtisodiy subyektlarning to'lov-hisobot hujjatlarini, soliq deklaratsiyalarini va boshqa moliyaviy majburiyatlarini tekshirishdan iborat

d) buxgalteriya hisobotining ishonchliligini hamda amalga oshirilgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarining amalga bo'lgan me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlash, tekshirilayotgan iqtisodiy obyektlarning to'lov-hisobot hujjatlarini, soliq deklaratsiyalarini va boshqa moliyaviy majburiyatlarini tekshirishdan iborat

6.4.13. Auditorlik xizmatlari qanday boshqa xizmatlarni ham ko'rsatishlari mumkin?

a) buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish va olib borish; daromadlar haqida buxgalteriya hisobotini va deklaratsiyani tuzish

b) moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish va bashoratlash; buxgalteriya xizmati xodimlarini o'qitish va qonunchilik masalalarida maslahat berish

c) auditorlik tekshiruvlari natijasida olingan tavsiyalarni ishlab chiqish va boshqalar

d) yuqoridagi barcha javoblar to'g'ri

6.4.14. Auditorlik tekshiruvi ...

a) majburiy va tashabbusli bo'lishi mumkin

b) faqat majburiy bo'lishi mumkin

c) faqat tashabbusli bo'lishi mumkin

d) bu yerda to'g'ri javob mavjud emas

6.4.15. Agar tashabbusli tekshiruv iqtisodiy subjektning o'z qarori bo'yicha amalga oshiriladigan bo'lsa, majburiy audit ...

a) uning xohish-irodasi va istagiga bog'liq bo'lib, qonunchilikda belgilangan hollarda majburiy tartibda o'tkaziladi

b) uning xohish-irodasi va istagiga bog'liq bo'lib, qonunchilikda belgilanmagan hollarda majburiy tartibda o'tkaziladi

c) uning xohish-irodasi va istagiga bog'liq bo'lmagan va qonunchilikda belgilangan hollarda majburiy tartibda o'tkaziladi

d) uning xohish-irodasi va istagiga bog'liq bo'lmasdan, qonunchilikda belgilangan hollarda ixtiyoriy tartibda o'tkaziladi

6.4.16. Har yili majburiy auditorlik tekshiruvi ...

a) aksiyadorlik jamiyatlari; banklar va boshqa kredit tashkilotlari; sug'urta tashkilotlari; investitsion va boshqa jamg'armalar, yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'lari, ularning boshqaruvchi kompaniyalarida o'tkazilishi shart

b) yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy ajratma mablag'lari ularning asosiy manbalari bo'lgan xayriya va boshqa ijtimoiy jamg'armalarda o'tkazilishi shart

c) hosil bo'lish manbalari qonunchilikda nazarda tutilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan majburiy ajratmalardan iborat bo'lgan nobyudjet fondlar, ustav jamg'armasida davlatga tegishli ulushi bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarda o'tkazilishi shart

d) yuqoridagi barcha javoblar to'g'ri

6.4.17. Majburiy auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi sifatida ...

a) xo'jalik yurituvchi subyekt ishtirok etadi

b) xo'jalik yurituvchi obyekt ishtirok etadi

c) xo'jalik yurituvchi korxonalar ishtirok etadi

d) xo'jalik yurituvchi firma ishtirok etadi

6.4.18. Auditorlik tashkilotini tanlash ...

a) mulk egasi va xo'jalik yurituvchi obyekt qatnashchi (aksiyador)lari umumiy majlisi bilan kelishiladi

b) mulk egasi va xo'jalik yurituvchi subyekt qatnashchi (aksiyador)lari umumiy majlisi bilan kelishiladi

c) mulk egasi va xo'jalik yurituvchi subyekt qatnashchi (aksiyador)lari xususiy majlisi bilan kelishiladi

d) mulk egasi va xo'jalik yurituvchi subyekt qatnashchi (aksiyador)lari navbatdan tashqari umumiy majlisi bilan kelishiladi

6.4.19. Majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bosh tortish xo'jalik yurituvchi subyektdan ...

a) eng kam ish haqining yuz barobari miqdoridagi jarima undirib olinishi hamda uning rahbarining qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi

b) eng kam ish haqining o'n barobari miqdoridagi jarima undirib olinishi hamda uning rahbarining qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi

c) eng kam ish haqining ellik barobari miqdoridagi jarima undirib olinishi hamda uning rahbarining qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi

d) eng kam ish haqining ikki yuz barobari miqdoridagi jarima undirib olinishi hamda uning rahbarining qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi

6.4.20. Jarima to'lash xo'jalik yurituvchi subyektning majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan ...

a) ozod etadi

b) ozod etmaydi

c) saqlab qoladi

d) bu yerda to'g'ri javob mavjud emas

6.4.21. Auditning asosiy tamoyili uning mustaqilligi bo'lib, u ...

a) asosan, tekshirilayotgan subyektning moliyaviy hisoboti to'g'risidagi kasbiy fikrni ifodalashda biror tomonning ta'siri ostida bo'lishini anglatadi

b) asosan, tekshirilayotgan obyektning moliyaviy hisoboti to'g'risidagi kasbiy fikrni ifodalashda biror tomonning ta'siri ostida bo'lishdan uning ozod emasligini anglatadi

c) asosan, tekshirilayotgan subyektning moliyaviy hisoboti to'g'risidagi kasbiy fikrni ifodalashda biror tomonning ta'siri ostida bo'lishdan uning ozod ekanligini anglatadi

d) asosan, tekshirilayotgan obyektning moliyaviy hisoboti to'g'risidagi kasbiy fikrni ifodalashda biror tomonning ta'siri ostida bo'lishdan uning ozod ekanligini anglatadi

6.4.22. Audit barcha mamlakatlarda yetarli darajada qattiq ...

a) tartibga solinadi

b) tartibga solinmaydi

c) markazlashtiriladi

d) markazlashtirilmaydi

6.4.23. Ayrim davlatlarda (masalan, Fransiyada) audit jarayoniga davlat aralashib, u...

a) audit me'yori va normativlarini belgilamasa-da, lekin auditorlarni va auditorlik firmalarini ro'yxatdan o'tkazadi hamda ularning faoliyati ustidan nazorat o'rnatadi

b) audit me'yori va normativlarini belgilaydi, auditorlarni va auditorlik firmalarini ro'yxatdan o'tkazmasa-da, ularning faoliyati ustidan nazorat o'rnatadi

c) audit me'yori va normativlarini belgilaydi, auditorlarni va auditorlik firmalarini ro'yxatdan o'tkazadi hamda ularning faoliyati ustidan nazorat o'rnatadi

d) audit me'yori va normativlarini belgilaydi, auditorlarni va auditorlik firmalarini ro'yxatdan o'tkazadi, lekin ularning faoliyati ustidan nazoratni o'rnatmaydi

6.4.24. O'zbekistonda davlat auditorlik faoliyatini tartibga solishni faol amalga oshiradi. U...

a) moliyaviy qiyinchiliklari iqtisodiyotga ta'sir etishi mumkin bo'lgan muhim korxonalarni ajratib olmasa-da, shunga qaramasdan, ularda audit o'tkazish majburiy ekanligini belgilaydi, auditorlarga (ma'lumoti, malakasi, imtihonlarni topshirish tartibi, mas'uliyati, javobgarligi va boshqalar bo'yicha) talablar qo'yadi

b) moliyaviy qiyinchiliklari iqtisodiyotga ta'sir etishi mumkin bo'lgan muhim korxonalarni ajratib oladi, lekin ularda audit o'tkazish majburiy ekanligini belgilamaydi, auditorlarga (ma'lumoti, malakasi, imtihonlarni topshirish tartibi, mas'uliyati, javobgarligi va boshqalar bo'yicha) talablar qo'yadi

c) moliyaviy qiyinchiliklari iqtisodiyotga ta'sir etishi mumkin bo'lgan muhim korxonalarni ajratib, ularda audit o'tkazish majburiy ekanligini belgilaydi, lekin auditorlarga (ma'lumoti, malakasi, imtihonlarni topshirish tartibi, mas'uliyati, javobgarligi va boshqalar bo'yicha) talablar qo'ymaydi

d) moliyaviy qiyinchiliklari iqtisodiyotga ta'sir etishi mumkin bo'lgan muhim korxonalarni ajratib, ularda audit o'tkazish majburiy ekanligini belgilaydi, auditorlarga (ma'lumoti,

malakasi, imtihonlarni topshirish tartibi, mas'uliyati, javobgarligi va boshqalar bo'yicha) talablar qo'yadi

6.4.25. Buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tuzish ishlari auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan mikrofirmalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati...

a) moliya organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan majburiy tarzda tegishli auditorlik tashkilotlari jalb etilgan holda tekshiriladi. Bunda moliyaviy hisobotning to'g'riligi uchun auditorlik tashkiloti javobgar hisoblanadi

b) soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan majburiy tarzda tegishli auditorlik tashkilotlari jalb etilgan holda tekshiriladi. Bunda moliyaviy hisobotning to'g'riligi uchun auditorlik tashkiloti javobgar hisoblanadi

c) soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan majburiy tarzda tegishli auditorlik tashkilotlari jalb etilmagan holda tekshiriladi. Bunda moliyaviy hisobotning to'g'riligi uchun auditorlik tashkiloti javobgar hisoblanadi

d) soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan majburiy tarzda tegishli auditorlik tashkilotlari jalb etilgan holda tekshiriladi. Bunda moliyaviy hisobotning to'g'riligi uchun auditorlik tashkiloti javobgar hisoblanmaydi

6.4.26. Ijobiy auditorlik xulosasi...

a) xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti uning moliyaviy ahvolini to'g'ri aks ettiradi va xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq keladi degan fikrlar mavjud bo'lgan auditorlik tashkiloti hujjatidir

b) xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti uning moliyaviy ahvolini, asosan, to'g'ri aks ettiradi va xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalari, asosan, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq keladi degan fikrlar mavjud bo'lgan auditorlik tashkiloti hujjatidir

c) xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti uning moliyaviy ahvolini deyarli to'g'ri aks ettiradi va xo'jalik yu-

rituvchi subyekt tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga deyarli muvofiq keladi degan fikrlar mavjud bo'lgan auditorlik tashkiloti hujjatidir

d) xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti uning moliyaviy ahvolini qisman bo'lsa-da to'g'ri aks ettiradi va xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga qisman bo'lsa-da muvofiq keladi degan fikrlar mavjud bo'lgan auditorlik tashkiloti hujjatidir

6.4.27. Salbiy auditorlik xulosasi ...

a) xo'jalik yurituvchi subyektning xo'jalik hisobotida tartibbuzarliklar mavjud bo'lib, xo'jalik hisobotidan foydalanuvchini yanglishishga olib kelishi mumkin bo'lganligi to'g'risidagi fikr bildirilgan auditorlik tashkiloti hujjatidir

b) xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotida tartibbuzarliklar mavjud bo'lib, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchini yanglishishga olib kelishi mumkin bo'lganligi to'g'risidagi fikr bildirilgan auditorlik tashkiloti hujjatidir

c) xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy hisobotida tartibbuzarliklar mavjud bo'lib, iqtisodiy hisobotdan foydalanuvchini yanglishishga olib kelishi mumkin bo'lganligi to'g'risidagi fikr bildirilgan auditorlik tashkiloti hujjatidir

d) xo'jalik yurituvchi subyektning moddiy hisobotida tartibbuzarliklar mavjud bo'lib, moddiy hisobotdan foydalanuvchini yanglishishga olib kelishi mumkin bo'lganligi to'g'risidagi fikr bildirilgan auditorlik tashkiloti hujjatidir

6.4.28. Salbiy auditorlik xulosasiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt ...

a) xo'jalik yurituvchi subyektlarning nazorat organlari tomonidan belgilangan tartibda o'tkaziladigan tekshiruv reja-jadvaliga kiritilmasligi kerak

b) xo'jalik yurituvchi subyektlarning nazorat organlari tomonidan belgilangan tartibda o'tkaziladigan tekshiruv reja-jadvaliga kiritishga tavsiya etilishi kerak

c) xo'jalik yurituvchi subyektlarning nazorat organlari to-

monidan belgilangan tartibda o'tkaziladigan tekshiruv reja-jadvaliga kiritilishi kerak

d) xo'jalik yurituvchi subyektlarning nazorat organlari tomonidan belgilangan tartibda o'tkaziladigan tekshiruv reja-jadvaliga kiritilishi taqiqlanadi

6.4.29. Soliq va boshqa nazorat organlari tomonidan belgilangan tartibda o'tkaziladigan tekshiruv auditorlik xulosasi xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalariga muvofiq kelmasligini aniqlagan holda ushbu auditorlik xulosasi...

a) bekor qilinadi va auditorlik tashkiloti, shuningdek, bunda aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikda nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladi

b) shak-shubhasiz, soxta deb hisoblanadi va auditorlik tashkiloti, shuningdek, bunda aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikda nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladi

c) shak-shubhasiz, soxta deb hisoblanadi va auditorlik tashkiloti, shuningdek, bunda aybdor bo'lgan shaxslar ogohlantiriladi

d) shak-shubhasiz, soxta deb hisoblanadi va auditorlik tashkiloti, shuningdek, bunda aybdor bo'lgan shaxslarga qattiq hayfsan e'lon qilinadi

6.4.30. Auditorlik tashkiloti, shuningdek, shak-shubhasiz, soxta auditorlik xulosalarini tuzishda aybdor bo'lgan shaxslarni javobgarlikka tortish...

a) xo'jalik yurituvchi subyektni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha belgilangan tartibni buzganligi uchun qonunchilikda nazarda tutilgan jazo choralaridan ozod qiladi

b) xo'jalik yurituvchi subyektni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha belgilangan tartibni buzganligi uchun qonunchilikda nazarda tutilgan jazo choralaridan faqat ikki oy muddatga ozod qiladi

c) xo'jalik yurituvchi subyektni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha belgilangan tartibni buzganligi uchun qonunchilikda nazarda tutilgan jazo choralaridan qisman ozod qiladi

d) xo'jalik yurituvchi subyektning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha belgilangan tartibni buzganligi uchun qonunchilikda nazarda tutilgan jazo choralaridan ozod qilmaydi

6.4.31. Majburiy auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishdan bosh tortganligi uchun xo'jalik yurituvchi subyektlardan jarima undirib olish tartibi to'g'risida nizom ...

a) qonunchilikka muvofiq majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishi lozim bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan amal qiladi

b) qonunchilikka muvofiq ixtiyoriy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishi lozim bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan amal qiladi

c) qonunchilikka muvofiq umumiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishi lozim bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan amal qiladi

d) qonunchilikka muvofiq xususiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishi lozim bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan amal qiladi

6.4.32. Majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishi lozim bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining yillik moliyaviy yil uchun auditorlik tekshiruvini ...

a) hisobot yilining 15-mayiga qadar o'tkazadi va auditorlik tekshiruvi o'tkazilganidan keyin 15 kunlik muddat ichida tegishli soliq organiga auditorlik xulosasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasini taqdim etadi

b) hisobot yilining 1-mayiga qadar o'tkazadi va auditorlik tekshiruvi o'tkazilganidan keyin 15 kunlik muddat ichida tegishli soliq organiga auditorlik xulosasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasini taqdim etadi

c) hisobot yilining 10-mayiga qadar o'tkazadi va auditorlik tekshiruvi o'tkazilganidan keyin 15 kunlik muddat ichida tegishli soliq organiga auditorlik xulosasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasini taqdim etadi

d) hisobot yilining 20-mayiga qadar o'tkazadi va auditorlik tekshiruvi o'tkazilganidan keyin 15 kunlik muddat ichida te-

gishli soliq organiga auditorlik xulosasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasini taqdim etadi

6.4.33. Auditorlik xulosasining nusxasi belgilangan muddatda soliq organiga topshirilmagan holda ...

a) xo'jalik yurituvchi subyekt ushbu organga yozma ravishda auditorlik xulosasi yo'qligi sababini aks ettiruvchi tushuntirishni taqdim etishi shart emas

b) xo'jalik yurituvchi subyekt ushbu organga og'zaki ravishda auditorlik xulosasi yo'qligi sababini aks ettiruvchi tushuntirishni taqdim etishi shart

c) xo'jalik yurituvchi subyekt ushbu organga yozma ravishda auditorlik xulosasi yo'qligi sababini aks ettiruvchi tushuntirishni taqdim etishi shart

d) xo'jalik yurituvchi subyekt ushbu organga yozma ravishda auditorlik xulosasi yo'qligi sababini aks ettiruvchi tushuntirishni taqdim etishi tavsiya qilinadi

6.4.34. Majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bosh tortilganligi sababli auditorlik xulosasi yo'q bo'lgan taqdirda ...

a) soliq organi xo'jalik yurituvchi subyektga belgilangan tartibda hayfsan e'lon qiladi

b) soliq organi xo'jalik yurituvchi subyektga belgilangan tartibda ogohlantiradi

c) soliq organi xo'jalik yurituvchi subyektga belgilangan tartibda qattiq hayfsan e'lon qiladi

d) soliq organi xo'jalik yurituvchi subyektga belgilangan tartibda jarima soladi

6.4.35. Boshqa nazorat organi tomonidan majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazmagan xo'jalik yurituvchi subyektga nisbatan soliq organi tomonidan jarima solish chorasi qo'llanilmaganligi aniqlangan taqdirda ...

a) tegishli soliq organining mansabdor shaxslari qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi

b) tegishli soliq organining barcha shaxslari qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi

c) tegishli soliq organining ayrim shaxslari qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi

d) tegishli soliq organining mansabdor shaxslari emas, balki uning ba'zi shaxslari qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi

6.4.36. Auditorlik faoliyati (auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlaridan tashqari) yangi qonunchilik bo'yicha auditorlik teshiruvini o'tkazish uchun ...

a) faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) mavjud bo'lmagan taqdirda ham amalga oshirilishi mumkin

b) faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) mavjud bo'lgan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin

c) faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) mavjud bo'lgan taqdirdagina tavsiya etilishi mumkin

d) faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) mavjud bo'lgan taqdirdagina ruxsat berilishi mumkin

6.4.37. Auditorlik faoliyatini litsenziyalash ...

a) auditorlik tashkilotlariga auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyalar berish tartibi to'g'risidagi qarorga muvofiq ravishda olib boriladi

b) auditorlik tashkilotlariga auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyalar berish tartibi to'g'risidagi farmonga muvofiq ravishda olib boriladi

c) auditorlik tashkilotlariga auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyalar berish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq ravishda olib boriladi

d) auditorlik tashkilotlariga auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyalar berish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga muvofiq ravishda olib boriladi

6.4.38. Auditorlik faoliyatini litsenziyalash ...

a) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (litsenziyalovchi organ) tomonidan amalga oshiriladi

b) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (litsenziyalovchi organ) tomonidan amalga oshiriladi

c) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi (litsenziyalovchi organ) tomonidan amalga oshiriladi

d) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi (litsenzyalovchi organ) tomonidan amalga oshiriladi

NAZORAT SAVOLLARI

◆ Odatda, moliyaviy nazorat qanday ikki yo'nalish (aspekt) da qaraladi?

◆ Moliyaviy nazorat deb nimaga aytiladi?

◆ Moliyaviy nazoratning predmeti qanday moliyaviy ko'rsatkichlardan iborat?

◆ Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda moliyaviy nazorat qanday sohalarga bo'linadi?

◆ Nodavlat moliyaviy nazorati nechga bo'linadi?

◆ Moliyaviy nazorat o'z ichiga qanday tekshiruvlarni oladi?

◆ Taraqqiy etgan mamlakatlarda moliyaviy nazorat tizimi, asosan, qanday elementlardan tashkil topadi?

◆ Moliyaviy nazoratning oldida turgan eng asosiy vazifalar nimalardan iborat?

◆ Moliyaviy nazoratni tashkil etishning asosiy prinsiplari tarkibiga nimalar kiradi?

◆ Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi subyektlarga ko'ra uning qanday turlari mavjud?

◆ Moliyaviy nazoratning shakllarini qanday mezonlar bo'yicha klassifikatsiyalash qabul qilingan?

◆ Amalga oshirilish reglamenti bo'yicha moliyaviy nazoratning shakllari nimalardan iborat bo'lishi mumkin?

◆ O'tkazilish vaqti bo'yicha moliyaviy nazoratning shakllari o'z ichiga nimalarni oladi?

◆ Nazoratning subyektlari bo'yicha moliyaviy nazoratning qanday shakllari bo'lishi mumkin?

◆ Nazoratning obyektlariga muvofiq ravishda moliyaviy nazoratning qanday shakllari mavjud?

◆ Ichki va tashqi moliyaviy nazorat bir-biridan qanday farqlanadi va ularning qanday umumiy jihatlari bor?

♦ Moliyaviy nazoratni amalga oshirish jarayonida uning qanday metodlaridan foydalaniladi?

♦ Subyekt xo'jalik faoliyatini qamrab olishning to'liqligiga qarab taftishning qanday turlari bo'lishi mumkin?

♦ Moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarining qamrab olinishi darajasiga ko'ra taftishlar qanday guruhlariga bo'linadi?

♦ Hisob palatasi to'g'risidagi nizomga muvofiq, uning zimmasiga qanday funksiyalarni bajarish yuklatilgan?

♦ Hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va byudjetga to'lovlar intizomini mustahkamlash bo'yicha hukumat komissiyasi to'g'risidagi nizomga muvofiq, nimalar uning asosiy vazifalari deb belgilangan?

♦ Respublika nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish kengashining oldiga qanday vazifalar qo'yilgan?

♦ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining zimmasiga davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish bo'yicha qanday asosiy vazifa va funksiyalar yuklangan?

♦ Moliya vazirligi huzuridagi Bosh nazorat-taftish boshqarmasining vazifalari sifatida nimalar belgilangan?

♦ Davlat soliq xizmati organlarining moliyaviy nazoratga oid asosiy vazifalari nimalardan iborat?

♦ O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tizimida-gi Bosh nazorat-taftish boshqarmasining vazifalariga nimalar kiradi?

♦ Moliyaviy nazorat nodavlat turlarining tarkibi nimalardan iborat?

♦ Ichki firmaviy moliyaviy nazoratning xarakterli xususiyatlari nimalardan tashkil topadi?

♦ Tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat qanday xususiyatlarga ega?

♦ Auditorlik nazoratining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

♦ Auditorlik tashkilotlari yana qanday boshqa xizmatlarni ham ko'rsatishlari mumkin?

- ◆ Auditorlik tekshiruvining qanday turlari mavjud?
- ◆ Har yili qanday subyektlar majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tkazilishi shart?
- ◆ Auditning asosiy tamoyili nimadan iborat?

TESTLARNING JAVOBLARI**MOLIYAVIY NAZORAT****1.1. Moliyaviy nazorat: mazmuni, sohalari, obyeksi, predmeti, tizimi, vazifalari, prinsiplari**

1.1 – b	1.13 – a	1.25 – c	1.37 – d
1.2 – b	1.14 – c	1.26 – c	1.38 – c
1.3 – b	1.15 – b	1.27 – c	1.39 – a
1.4 – a	1.16 – b	1.28 – b	1.40 – c
1.5 – a	1.17 – c	1.29 – b	1.41 – b
1.6 – a	1.18 – b	1.30 – a	1.42 – a
1.7 – d	1.19 – a	1.31 – a	1.43 – d
1.8 – d	1.20 – b	1.32 – d	1.44 – c
1.9 – d	1.21 – c	1.33 – d	1.45 – b
1.10 – c	1.22 – b	1.34 – b	
1.11 – c	1.23 – c	1.35 – a	
1.12 – c	1.24 – d	1.36 – b	

2. Moliyaviy nazorat turlari, shakllari va metodlari

2.1 – a	2.13 – c	2.25 – c	2.37 – b
2.2 – d	1.14 – d	2.26 – c	2.38 – c
2.3 – a	2.15 – c	2.27 – b	2.39 – c
2.4 – b	2.16 – b	2.28 – b	2.40 – d
2.5 – c	2.17 – a	2.29 – a	2.41 – d
2.6 – d	2.18 – a	2.30 – a	2.42 – d
2.7 – b	2.19 – b	2.31 – c	2.43 – c
2.8 – c	2.20 – b	2.32 – b	2.44 – c
2.9 – d	2.21 – c	2.33 – a	2.45 – c
2.10 – d	2.22 – c	2.34 – a	2.46 – c
2.11 – a	2.23 – d	2.35 – b	2.47 – b
2.12 – b	2.24 – d	2.36 – b	

3. Davlat moliyaviy nazorati organlarining vazifalari va funksiyalari

3.1 - b	3.20 - d	3.39 - b	3.58 - a
3.2 - b	3.21 - d	3.40 - d	3.59 - b
3.3 - c	3.22 - d	3.41 - a	3.60 - a
3.4 - c	3.23 - b	3.42 - c	3.61 - b
3.5 - c	3.24 - c	3.43 - d	3.62 - d
3.6 - d	3.25 - b	3.44 - d	3.63 - a
3.7 - d	3.26 - c	3.45 - d	3.64 - c
3.8 - d	3.27 - a	3.46 - d	3.65 - c
3.9 - d	3.28 - b	3.47 - d	3.66 - d
3.10 - d	3.29 - c	3.48 - d	3.67 - a
3.11 - d	3.30 - a	3.49 - d	3.68 - b
3.12 - d	3.31 - d	3.50 - a	3.69 - a
3.13 - d	3.32 - d	3.51 - b	3.70 - d
3.14 - d	3.33 - d	3.52 - a	3.71 - c
3.15 - d	3.34 - d	3.53 - b	3.72 - a
3.16 - c	3.35 - d	3.54 - c	3.73 - b
3.17 - b	3.36 - a	3.55 - c	
3.18 - a	3.37 - b	3.56 - c	
3.19 - b	3.38 - c	3.57 - a	

4. Nodavlat moliyaviy nazorat

4.1 - a	4.11 - a	4.21 - c	4.31 - a
4.2 - a	4.12 - b	4.22 - a	4.32 - b
4.3 - b	4.13 - d	4.23 - c	4.33 - c
4.4 - b	4.14 - a	4.24 - d	4.34 - d
4.5 - a	4.15 - c	4.25 - b	4.35 - a
4.6 - b	4.16 - d	4.26 - a	4.36 - b
4.7 - a	4.17 - a	4.27 - b	4.37 - c
4.8 - c	4.18 - b	4.28 - c	4.38 - b
4.9 - d	4.19 - c	4.29 - b	
4.10 - b	4.20 - b	4.30 - d	

ADABIYOTLAR

1. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: Darslik. – Toshkent: Noshir, 2012. – 712 b.
2. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2008. – 380 b.
3. Malikov T.S., Vahobov D.R. Moliya: chizmalarda. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2010. – 660 b.
4. Malikov T.S., Vahobov D.R. Moliya: chizmalarda. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2012. – 660 b .

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-BOB. MOLIYANING MOHIYATI VA FUNKSIYALARI	9
1. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati	9
1.2. Moliyaning funksiyalari	30
1.3. Takror ishlab chiqarish va moliya	42
1.4. Moliya (fani) genezisi (taraqqiyoti).....	67
2-BOB. MOLIYAVIY SIYOSAT	114
2.1. Moliyaviy siyosatning mazmuni va prinsiplari	114
2.2. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qism (yo'nalish)lari.....	149
2.3. Hozirgi bosqichdagi moliyaviy siyosat va uning o'ziga xos xususiyatlari	171
3-BOB. MOLIYA TIZIMI	194
3.1. Moliya tizimining sohalari va bo'g'inlari	194
3.2. Yetakchi xorijiy mamlakatlarning davlat moliya tizimi	222
4-BOB. MOLIYAVIY BOSHQARUV	243
4.1. Moliyaviy boshqaruvning mazmun-mohiyati	243
4.2. Moliyaviy boshqaruv organlari va ularning vazifalari.....	250
4.3. Moliyaviy oqimlarni boshqarish	266
5-BOB. MOLIYAVIY REJALASHTIRISH VA ARTIBGA SOLISH	285
5.1. Moliyaviy rejalashtirish va bashoratlash	285
5.2. Sotsial-iqtisodiy jarayonlarni moliyaviy tartibga solish	316

6-BOB. MOLİYAVIY NAZORAT	358
6.1. Moliyaviy nazorat: mazmuni, sohalari, obyekti, predmeti, tizimi, vazifalari, prinsiplari	358
6.2. Moliyaviy nazorat turlari, shakllari va metodlari	375
6.3. Davlat moliyaviy nazorati organlarining vazifalari va funksiyalari	393
6.4. Nodavlat moliyaviy nazorati	423
 ADABIYOTLAR	444

Ilmiy-ommabop nashr

T.S.MALIKOV, N.T.TILABOV

MOLIYA

SAVOL-JAVOBLAR

Muharrir: Abdulla SHAROPOV

Musahhah: Marhabo JO'RAYEVA

Texnik muharrir: Alimardon AQILOV

Badiiy muharrir: Xurshid IBROHIMOV

10000 nusxa

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009

Terishga berildi: 07.01.2013-y.

Bosishga ruxsat etildi: 16.04.2013-y.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$.

Bookman garniturası. Ofset usulida bosildi.

Hisob-nashriyot t.: 19,21. Shartli b.t.: 26,04.

Adadi: 300 nusxa.

Buyurtma № 29

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi va chop etildi.
100156, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, 20^A-mevze, 42-uy.

Tel.: (+99871) 217-16-77.

e-mail: akademnashr@mail.ru

web-site: www.akademnashr.uz